



MUHANDISLIK KOMMUNIKASIYALARI
QURILISHI VA MONTAJI (ISSIQLIK-GAZ
TA'MINOTI VA VENTILYASIYA)

Toshkent arxitektura-qurilish
instituti huzuridagi tarmoq markazi

**ENERGIYA TEJAMKOR
VENTILYASIYA VA HAVONI
KONDISIYALASH TIZIMLARI**

TOSHKENT-2023

Вентиляция ва ҳавони кондициялаш тизимлари

Mazkur o'quv-uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli -sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi: TAQI, t.f.n. dots. Ismanxodjayeva M.R.

Taqrizchi: Garred Volf Fulbrayt fondi doktoranti.

O'quv -uslubiy majmua TAQIning navbatdan tashqari Kengashida 2022 yil 7 dekabrda nashrga tavsiya qilingan.

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	4
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....	12
III. NAZARIY MATERIALLAR.....	18
IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....	144
V. KEYSLAR BANKI.....	226
VI. GLOSSARIY	230
VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI	232

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Ishchi dastur oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligi darajasini rivojlantirish, ularning ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganishlari hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha malaka va ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Ishchi dastur mazmunida xorij ta'lim tajribasi, rivojlangan davlatlarda ta'lim tizimi va uning o'ziga xos jihatlari yoritib berilgan.

Ushbu ishchi dastur bugungi issiqlik gaz ta'minoti sohasidagi so'nggi yutuqlar, tizimlar, usullarini. Dunyodagi ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlariga kiritilgan o'zgarishlarni. Energiyatejamkor ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlari sohasidagi modulni o'qitishdagi ilg'or xorijiy tajribalarni. Eng oxirgi innovatsion loyihalash usullarini. ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlari sohasidagi dolzarb masalalarni o'z ichiga oladi

Ishchi dasturning mazmuni tinglovchilarni **“Energiyatejamkor ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlari”** modulidagi nazariy metodologik muammolar, chet el tajribasi va uning mazmuni, tuzilishi, o'ziga xos xususiyatlari, ilg'or g'oyalar va maxsus fanlar doirasidagi bilimlar hamda dolzarb masalalarni yechishning zamonaviy usullari bilan tanishtirishdan iborat.

Modulning maqsadi va vazifalari

“Energiyatejamkor ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlari” modulining maqsadi: pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilarini ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlari sohasidagi innovatsiyalarga doir bilimlarini takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish, joriy etish, ta'lim amaliyotida qo'llash va yaratish bo'yicha ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish.

“Energiyatejamkor ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlari” modulining vazifalari:

- ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlari sohasining rivoji uchun muhim bo'lgan nazariya moduli butun dunyo rivojlangan mamlakatlarning universitetlarida muxim o'rin topgan.

- modulning asosiy vazifasi - tinglovchilarda ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlari sohasidagi innovatsiyalarning ilg'or texnologiyalariga doir olgan yangi bilimlarini o'z modullarini o'qitishda o'rinli ishlata olish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

“Energiyatejamkor ventilyatsiya va xavoni konditsiyalash tizimlari” modulining o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- bugungi ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlari sohasidagi so'nggi yutuqlar, tizimlar, usullarni;
- dunyo ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlariga kiritilgan o'zgarishlarni;
- ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlari sohasidagi modulni o'qitishdagi ilg'or xorijiy tajribalarni;
- eng oxirgi innovatsion loyihalash usullarini;
- ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlari sohasidagi dolzarb masalalarni **bilishi** kerak.

Tinglovchi:

- loyiha g'oyasini asoslash, uning mohiyatiga ko'ra loyihalash turlarini ajrata olish;
- loyixalashdagi raqamli texnologiyalar tizimining yangiliklarini;
- O'zbekiston Respublikasining ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlari sohasidagi loyixalash usullarini texnologiyalar darajasiga ko'tara olish;
- Innovatsion energiyatejamkor ventilyatsiya va xavoni konditsiyalash tizimlaridagi binolarda energiya iste'molining normalariga javob berishini ta'minlash **ko'nikmalariga** ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- loyiha g'oyasini asoslash grafonalitik va 3 o'lchamli usullaridan foydalana olish, loyihani bajarishda xalqaro innovatsiyalaridan foydalanish;
- ayniqsa 3 o'lchamli texnologiyalar asosida dolzarb bo'lgan energiya faol binolarni loyihalash, va konstruktiv yechimlarini tanlay olish;
- ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlari sohasidagi yangi falsafiy yondashishlarni, usluban yangi me'yorlarni, innovatsion 3 o'lchamli texnologik tizimlarni, va energiya iste'moli no'qtai nazaridan benuqson binolardagi tizimlarni loyihalash sohasidagi yangiliklarni o'rinli ishlata olish **kompetensiyalariga** ega bo'lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Energiyatejamkor ventilyatsiya va xavoni konditsiyalash tizimlari” modulini o‘qitish jarayonida quyidagi innovatsion ta’lim shakllari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida interfaol ma’ruzalarni tashkil etish;
- virtual amaliy mashg‘ulotlar jarayonida loyiha va keys texnologiyalarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Energiyatejamkor ventilyatsiya va xavoni konditsiyalash tizimlari” moduli bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘quv rejasidagi “Ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlari”, “Binolarni injinerlik jihozlari” va “Ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlari” modullari bilan uzviy bog‘langan holda ularning ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini ochib berishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy tayyorgarligi darajasini rivojlantirish, ularning ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlaridagi, misli ko‘rilmagan 3 o‘lchamli texnologik tizimidagi, va energiya faol binolarni loyihalash sohasidagi innovatsiyalar bo‘yicha malaka va ko‘nikmalarini takomillashtirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlari, sohasidagi innovatsion loyixalash nazariyalarini o‘zlashtirish, joriy etish va amaliyotda qo‘llashga doir projektiv, kreativ va texnologik kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining ukuv yuklamasi, soat	
		Hammasi	Auditoriya ukuv yuklamasi
			Jam i

Энергия тежамкор вентиляция ва хавони кондициялаш тизимлари

				Nazariy	Amaliy
1	Ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlarida energiyani tejashning asosiy yo‘llari zamonaviy energiyatejamkor, ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlari	2	2	2	
2	Xonadan ajraladigan zararliklar miqdorini hisoblash. Xonada ajraladigan namlikni hisoblash. Havoning issiqlik namlik balansini tuzish. Xonaga beriladigan toza havoning miqdorini minimal darajada bo‘lishini ta’minlash asoslari	2	2	2	
3	Markaziy konditsionerlar: KTS-3 va KSKP. Ularning asosiy baza sxemalari, ishlovchi bloklari, konstruktiv tavsiflari va prinsepial sxemalari. Chiller va fankoyl tizimlarining tuzilishi va asosiy jixozlari. Sovutgichlar va issiqlik nasoslarining tuzilishi va ishlash prinsiplari	2	2	2	
4	Ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlarini loyixalashda ichki va tashqi xavolarni parametrlarini tanlash.	2	2		2
5	Xonadan ajraladigan zararliklar miqdorini hisoblash. Xonada ajraladigan namlikni hisoblash. Xonada hisobiy havo almashinishini tanlash. Havo almashinuvi miqdorini xisoblash.Havoning issiqlik namlik balansini tuzish	2	2		2
6	Nam havoning xususiyatlari. Nam havoning I-d diagrammasi. Qish va yoz mavsumlari uchun I-d diagrammasi jarayonlarni tuzish	2	2		2

Вентиляция ва хавони кондициялаш тизимлари

7	Ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlaridagi havo kanallarining aerodinamik hisobi	2	2		2
8	Turar-joy binolarida split-tizimli konditsionerlar bazasidagi havoni konditsiyalash tizimlari tabiiy so'rib oluvchi ventilyatsiya tizimlari. Tomda o'rnatilgan so'rib oluvchi ventilyatsiya va oqimli qurilma asosidagi texnik ventilyatsiya tizimi	2	2		2
9	Oqimli ventilyatsiya tizimlari bazasidagi split tizimli xavoni konditsiyalash tizimlari. Ma'muriy binodagi tabiiy ventilyatsiya tizimi, isitish tizimi bazasidagi "Chiller-fankoylli" xavoni konditsiyalash tizimlari.	2	2		2
10	"Chiller-fankoyl" bazasidagi bir gurux ofis xonalari uchun havoni konditsiyalash tizimlari. Markaziy konditsioner, chiller-fankoyl bazasidagi ofis binosining havosini konditsiyalash tizimlari.	2	2		2
Jami		20	20	6	14

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-ma'ruza: Modul maqsadi va vazifalari. Nazariyalar ta'riflari. Ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlarida energiyani tejashning asosiy yo'llari zamonaviy energiyatejamkor, ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlari.

Nazariyalarni qayta ko'rib chiqish zaruriyati. Energiyatejamkor ventilyatsiya va xavoni konditsiyalash tizimlari. Amerika, Kanadadagi Ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlarida xaqida. **Robert McDowall, Fundamentals of HVAC Systems** Ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlari tarixi va rivojlanish tendensiyasi. Kanada Energy management series 10 Heating ventilating and air conditioning Multizonali Ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlari

2-ma'ruza: Xonadan ajraladigan zararliklar miqdorini hisoblash. Xonada ajraladigan namlikni hisoblash. Havoning issiqlik namlik balansini

tuzish. Xonaga beriladigan toza havoning miqdorini minimal darajada bo'lishini ta'minlash asoslari. Robert McDowall, Fundamentals of HVAC Systems

Kirish. Xona ichidagi issiqlik kamfortining samaradorligi. Issiqlik kamfortining inson salomatligiga ta'siri. Loyixalashning yangi usullarini qidirish Kanada Energy management series 10 Heating ventilating and air conditioning Xonadagi boshlang'ich havo holatining diffuziyasi. O'zaro uzviy artikulyatsiya.

3-ma'ruza: Markaziy konditsionerlar: KTS-3 va KSKP. Ularning asosiy baza sxemalari, ishlovchi bloklari, konstruktiv tavsiflari va prinsipial sxemalari. Chiller va fankoyl tizimlarining tuzilishi va asosiy jixozlari. Sovutgichlar va issiqlik nasoslarining tuzilishi va ishlash prinsiplari.

Markaziy konditsionerlar: KTS-3 va KSKP. Ularning asosiy baza sxemalari, ishlovchi bloklari, konstruktiv elementlari. Chiller va fankoyl tizimlarining tuzilishi va asosiy jixozlari. Sovutgichlar (sovitish mashinalari) va issiqlik nasoslarining tuzilishi va ishlash prinsiplari. Havoni markaziy konditsiyalash uskunalari. Markaziy konditsiyalash qurilmalarida havoga ishlov beruvchi purkash bo'limi, prinsipial sxemalari va texnik tavsiflari. Ventilyator agregati.

AMALIY MASHG'ULOT MAZMUNI

1-amaliy mashg'ulot: Ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlarini loyixalashda ichki va tashqi xavolarni parametrlarini tanlash.

Nazariya ta'riflari. Ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlari. Bajarilayotgan loyihada tashqi parametrlarni berilgan shahar uchun tug'ri aniqlash Loyixalash uchun boshlang'ich ma'lumotlar. Ichki va tashqi havoning belgilangan hisobiy parametrlari o'rganish.

2-amaliy mashg'ulot: Xonadan ajraladigan zararliklar miqdorini hisoblash. Xonada ajraladigan namlikni hisoblash. Xonada hisobiy havo almashinishini tanlash. Havo almashinuvi miqdorini xisoblash. Havoning issiqlik namlik balansini tuzish.

Xonada ajraladigan zararli miqdorni aniqlash. Havoning termodinamik paraiyetrlarini to'g'ri xisoblash. Issiqlik namlik tenglamalaridan to'g'ri foydalanish havo xususiyatlarini o'rganish. Sanoat binolarda ulardan tashqari xonaga gazlar, zararli moddalar bug'lari, changlar, ortiqcha suv bug'larini tahlil qilib o'rganish. Ventilyatsiyani hisoblaganda xonaga kirayotgan, ajralayotgan zararli miqdorlarni aniqlash

3-amaliy mashg‘ulot: Nam havoning xususiyatlari.

I-d diagrammaning to‘zilishini batafsil o‘rganish . I-d diagrammada parametrlarni to‘g‘ri tanlash xonada va markaziy konditsioner bo‘limlarida sodir bo‘ladigan jarayonlarni to‘g‘ri tasvirlash tuzilgan jarayonlar asosida markaziy konditsionerning baza sxemasini tanlash unimdorligini aniqlash va konditsioner bo‘limlarini xisoblash. Havoni qizdirish va sovutish jarayonlari. Isitish va sovitish jarayonlari o‘rganish. Issiqlik va namlik almashinuvidagi politropik jarayonlarini o‘rganish.

4-amaliy mashg‘ulot: Ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlaridagi havo kanallarining aerodinamik hisobi.

Ishqalanishga bosim yo‘qolishi o‘rganish. Havo quvurlarining aerodinamik xisobiy yechimi. Issiqlik almashgichlar. Regenerativ va rekuperativ issiqlik almashgichlar. (Teploutilizatorlar) va ularni xisoblash. Ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlarida energiyatejamkorlik samaradorligini oshirish. Havoni konditsiyalash tizimini qurish va undan foydalanish. Teploutilizatorlarning turlari. Teploutilizatorlarni ishlatish va qo‘llanishi. Teploutilizatorlar tayyorlashdagi qo‘llaniladigan materiallari turlari.

5-amaliy mashg‘ulot: Turar-joy binolarida split-tizimli konditsionerlar bazasidagi havoni konditsiyalash tizimlari tabiiy so‘rib oluvchi ventilyatsiya tizimlari. Tomda o‘rnatilgan so‘rib oluvchi ventilyatsiya va oqimli qurilma asosidagi texnik ventilyatsiya tizimi.

Ichki temperaturalar sharoitini avtonom ta‘minlaydigan, turar joy binolari devorlarida urnatiladigan split-tizim konditsionerlari. Kondensat, konditsioner sovutish rejimi. turar joy binosidagi oqib keluvchi va so‘rib chiqaruvchi mexanik ventilyatsiya tizimi sxemasini tuzish.

6-amaliy mashg‘ulot: Oqimli ventilyatsiya tizimlari bazasidagi split tizimli xavoni konditsiyalash tizimlari. Ma‘muriy binodagi tabiiy ventilyatsiya tizimi, isitish tizimi bazasidagi “Chiller-fankoylli” xavoni konditsiyalash tizimlari.

Xavo qabul qilish panjarasida elektrivodli klapanlar haqida umumiy ma‘lumotlarga ega bo‘lish. Xavoni changdan tozalash. Elektrli yoki suvli qish mavsumida xavoni isitish. Avtomatik sozlash va boshqarish punkti. ichki blok filtr, ventilyator freonli sovutgich , elektron boshqaruv paneli , havo isitgichlar hona ichidagi osma shift montaj qilish usullari.

7-amaliy mashg‘ulot: “Chiller-fankoyl” bazasidagi bir gurux ofis xonalari uchun havoni konditsiyalash tizimlari. Markaziy konditsioner, chiller-fankoyl bazasidagi ofis binosining havosini konditsiyalash tizimlari.

Ofislardagi komfort sharoitni yaratish. Chiller sovutish mashinasi o‘rnatish. Issiqlik almashgichlarni xisoblash va uskunalarni tanlash. Fankoillarning issiqlik yuklamasini xisoblash. Tizimning gidravlik xisobi. Gidravlik xisobni bajarish. Chillerni issiqlik nasosi bilan ishlatilishi.

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

«FSMU» metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya tinglovchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Fikr: *“Nazariyalarni qayta ko'rib chiqish zaruriyati. Energiyatejamkor ventilyatsiya va xavoni konditsiyalash tizimlari. Amerika, Kanadadagi Ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlari tavsifi”.*

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;
- har bir tinglovchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi:



- tinglovchilarning munosabatlari individual yoki guruhij tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

“SWOT-tahlil” metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil

Энергия тежамкор вентиляция ва хавони кондициялаш тизимлари

qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	• кучли томонлари
W – (weakness)	• заиф, кучсиз томонлари
O – (opportunity)	• имкониятлари
T – (threat)	• тўсиқлар

Energiyatejamkor ventilyatsiya va xavoni konditsiyalash tizimining SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	Energiyatejamkor ventilyatsiya va xavoni konditsiyalash tizimining issiqlik va gaz ta'minoti sohasida olib borayotgan amaliy tadqiqotlar tizimining kuchli tomonlari	Energiyatejamkor ventilyatsiya va xavoni konditsiyalash tizimiga o'tish uchun samarali loyiha va uskunalarni xisoblash usullarini tarqatish va testlash. Evolyutsion innovatsiyalarni o'zgarishdan (izmeneniye, mutation) boshlab, saralashga (otbor) utish kerak, va, nixoyat, ishlab chiqarishga (vosproizvedeniye) keltirish darkor.
W	Energiyatejamkor ventilyatsiya va xavoni konditsiyalash tizimining issiqlik va gaz ta'minoti sohasida olib borayotgan amaliy tadqiqotlar tizimining kuchsiz tomonlari	Energiyatejamkor ventilyatsiya va xavoni konditsiyalash tizimlarini avtomatik ravishda chizmalarni yaratib bera olmasligi
O	Energiyatejamkor ventilyatsiya va xavoni konditsiyalash tizimining issiqlik va gaz ta'minoti sohasida olib borayotgan amaliy tadqiqotlar tizimidan foydalanishning imkoniyatlari (ichki)	Kompyuterning Avtocab modellashtirish dasturida prezentatsiya qiladi.
T	Tashqi havoga ishlov berish (ID diogramma)	Energiyatejamkor ventilyatsiya va xavoni konditsiyalash tizimining issiqlik va gaz ta'minoti sohasida olib borayotgan amaliy tadqiqotlar tizimining kamchiliklari

“Insert” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod Tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod Tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda Tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

“1902-yil (AQSh) da Uillis Kerriyer o‘zining birinchi konditsionerini ixtiro qildi. 1902-yil CARRIER kompaniyasini tashkil yetilgan yili deb hisoblanadi. Birinchi istemolchi Nev-yorkdagi poligrafiya kombinati yedi. Poligrafiya kombinatidagi me’yoriy texnologik parametrlarni ta’minlash asosiy jarayon bo‘lib, chiqarilayotgan maxsulotning sifati va rang tasvirlari o‘ta muhim ahamiyatga ega edi va konditsioner yordamida yuqori darajadagi texnologik jarayon ta’minlandi. Undan tashqari yengil sanoat korxonalaridagi texnologik jarayon uchun zarur bo‘lgan xarorat va nisbiy namlik CARRIER konditsionerlari tomonidan ta’minlandi.”

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma’lumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“– ” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, tinglovchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning

mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod tinglovchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- tinglovchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir tinglovchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

“Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo‘shimcha ma’lumot
1. Ventilyatsiya-	shamollatish.	
2. Xavo almashinuvi-	xonada zararlangan xavoni qisman yoki to‘lik atmosfera xavosi bilan almashinuviga aytiladi	
3. Sanitariya-gigiyenik vazifasi	-havo muxitining axvoli , assimilyatsiya orqali ortiqcha issiqlik va namlik, bundan tashqari gazlar, bug‘lar, va changlarni chiqarib yuborishdan iborat.	
4. Texnologik talablar-	texnologik jarayonining moxiyatidan kelib chiqadigan tozalik, xarorat, namlik va xavo xarakati tezligini ta’minlashdan iborat.	
5. Meteorologik sharoitlar –	temperatura, nisbiy namlik, xavo tezligi , to‘siqning hamda ichki yuzaning temperasi va xonadagi jixozlarning temperaturasi bilan xarakterlanadi.	
6. Meyorlangan almashishning karraligi bo‘yicha –	xonaga berilayotgan xavo miqdorini meyorlangan usuli bilan xisoblash.	

Вентиляция ва хавони кондициялаш тизимлари

7. Xonaning mikroiklimi –	nisbiy namligi va xavoning tezligi bilan tavsiflanadi. ichki xavoning temperaturasi, to‘siq konstruksiyasining ichki yuzalarini radiatsion temperaturasi.	
8. Komfort sharoit –	ventilyatsiya tizimini loyixalashda xonadagi xavo muxitini xisobiy parametrlarini va texnologik jaryonlar talablarini qoniqtiradi	
9. Xonaning optimal meteorologik sharoitlari –	avtomatik sozlanuvchi tizimlar yordamida ta’minlanuvchi sharoit.	
10. Xonadagi yo‘l qo‘yilgan meteorologik parametrlar –	avtomatika sozlash tizimisiz ishlaydigan ventilyatsiya tizimlari yordamida ta’minlanishi lozim.	
11. Xonada talab etilgan meteorologik parametrlar –	xonaning xizmat qilish zoanlarida yoki ish zonalarida va doimiy ish zonalarida ta’minlanadi.	
12. Xisobiy pyaarametrlar –	xarakat, nisbiy namlik va havoning xarakat tezligini bajariladigan ishning kategoriyasi va otriqcha issiqlik ajralishiga qarab tanlanadi.	
13. Ventilyatsiyaning asosiy maqsadi –	xonadagi yo‘l qo‘yilgan parametrlarni ta’minlash, ushlab turish.	
14. Ventilyatsion tizim –	havoga ishlov berish, xarakatlanish, uzatish va chiqarib tashlaydigan majmua.	
15. Oqimli tizim –	xonaga xavoni uzatuvchi tizim	
16. So‘rib oluvchi tizim –	xonadagi ifloslangan xavoni chiqarib yuboruvchi tizim.	
17. Umumiy almashinuvchi ventilyatsiya –	zarali moddalar ajraladigan ish zonasi yoki xona ventilyatsiya qilinadi.	
18. Xavoning xususiyatlari –	uning gazli tarkibi, issiqlik va namlik holati, zararli gazlar, bug‘lar, changlar mavjudligi bilan aniqlanadi.	
19. Havoning tarkibiy namligi –	nam havoda uning 1kg quruq qismiga to‘g‘ri keladigan suv bug‘larining massa miqdoriga aytiladi.	

20. Havoning nisbiy namligi –	bir xil temperaturada nam g'avodagi suv bug'larini haqiqiy parsial bosimiga bo'lgan nisbatiga aytiladi.	
-------------------------------	---	--

Izoh: Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo'shimcha ma'lumot glossariyda keltirilgan.



III. NAZARIY MATERIALLAR

1-ma'ruza: Modul maqsadi va vazifalari. Nazariyalar ta'riflari. Ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlarida energiyani tejashning asosiy yo'llari zamonaviy energiyatejamkor, ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlari.

O'zbekiston Respublikasida yoqulg'i va energiyaga bo'lgan talabi kundan kunga ortib bormoqda shuning uchun kapital mablag'larni judda katta ortib borishi emas balki undan samarali foydalanish usullarini qidirish lozim. Respublikada issitish va xavoni konditsiyalash tizimlarida ishlab chiqariladigan qattiq va gazsimon yoqulg'ining 40-45% va undan tashqari ishlab chiqarilayotgan elektr energiyaning 15% tizimlarga sarflanadi.


Loyihalashda ishtirok etuvchi barcha mutaxassislar energiyani tejashga etibor berishlari kerak. Chunki energiyatejamkorlik ishlanmalar sifatini oshirishga va eksploatatsiya jarayonidagi enargiya istemoli kamayishiga olib keladi bino va tizimlarni energiyasamaradorligiga erishish uchun arxitektorlar va konstruklor va texnologlar bilan gigiyenist va issitish, ventilyatsiya va XK tizimi, yorug'lik texnikasi suv ta'minoti va oqava suvlarni oqizish issiqlik ta'minotiva sovutish texnikasi mutaxasislari bilan loyhani boshlang'ich bosqichdan to bino va tizimlarni ekspluantatsiya jarayoniga qadar kelishgan holda ishlarni bajarilishini ta'minlanishi kerak. Energiyatejamkorlik va texnologlarni amalda tadbiq etishda qurilishda va sanoatdagi qo'shimcha tarmoqlarda kapital mablag'larni va xususan yangi turdagi ixozlarni ishlatilishi bilan maxsulot tannarxi oshishiga olib keladi. Shuning uchun energiyatejamkorlik va vosita va usullarni eng birinchi navbatda sanoatning qo'shimcha tarmoqlarida ortiqcha quvvatsiz va minimal iqtisodiy samarali yuqori teplotexnik qo'shimcha kapital mablag'larga erishish yo'llarini qo'llash kerak.

Binolarni ventilyatsiya va Havoni konditsialash tizimlarini energiyasamaradorli tadbirlarni oshirish tavsifi 1.1-1.4 rasmlarda keltirilgan





1.1 rasm: Hajmiy rejalashtirish va qurilish konstruksiyalashning tasnifi va xavoni konditsiyalash tizmlaridagi yuklamalarni kamaytirish chora tadbirlari.

Вентиляция ва хавони кондициялаш тизимлари




1.2 Rasm: Xavoni konditsiyalash tizimlarida energiyatejamkorlik va uning sifatini yaxshilovchi chora tadbirlar tasnifi.



1.3 Rasm: Tabiiy va chiqarib yuboriladigan issiqlik va sovuqlikni utilizatsiya (ikkilamchi ishlov berish) vositalari va tasniflarining usullari.

Вентиляция ва ҳавони кондициялаш тизимлари



1.4 Rasm: Sovutish qurilmalaridagi energiyatejamkorlik tadbirlarining tasnifi.

TES bazasida kombinatsiyalangan elektrenergiyasi, issiqlik va sovuqlik ishlab chiqarilishi natijasida issiqlik va sovuqlik tizimlari takomillashib gaz va bo‘g‘ turbinali absorbsion sovutish mashinalari, vintli bug‘ kompression sovutish mashinalari va issiqlik nasoslari bilan, issiqlik va sovuqlik generetorlarining

Issiqlik va sovuqlik xisobiy yuklamalari uchun issiqlik generatorlarini, bo'g' kopression sovutish mashinalari sovuqlik unumdorligini sonli sozlanishini, "Vixrevoy quvurlar" turbodetander mashinalarining ishlatilishi, geotermal va artezian suvlarning issiqlik va sovuqligini ishlatish hamda quyosh energiyasi, kommunal va sanoat korxonalaridagi issiqlik chiqindilaridan foydalanish natijasida issiqlik va sovuqlik ta'minoti tizimlarini takomillashtirish mumkin. Bino xonalarida parametrlarini sonli sozlanishiga, sovuqlik va issiqlik yuklamalarining keskin o'zgarishiga, xonalardagi issiqlik – namlik balansi yo'l qo'ygan sharoitda, konditsionerning 2 bosqichda istish bo'limi va ikkinchi resirkuliyatsidan voz kechilishi havoni konditsiyalash tizimlarini avtomatik sozlash texnika va texnologiyasini samarali takomillanishiga olib keladi.

1-mavzu: Ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlarida energiyani tejashning asosiy yo'llari zamonaviy energiyatejamkor, ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlari.

Reja:

- 1.1. Havoni konditsiyalash tizimlarini energiyatejamkorlik samarasini oshirishdagi tadbirlar tavsifi.
- 1.2. Binoni qutb yo'nalishiga nisbatan joylashishini tanlash.
- 1.3 Loyhalashda bino shaklini to'g'ri tanlash.
- 1.4 Tashqi devorlarni oynalanish darajasini kamaytirish.
- 1.5 Arxitekturaviy qurilmalar o'rnatilishi bilan quyosh radiatsiyasidan tushadigan issiqlikni kamaytirish.
- 1.6 Quyoshdan himoya qilish qurilmalarini o'rnatish.
- 1.7 Ramalar orasidagi ikki va uch qavatli jalyuzili ventilyatsilanadigan derazalarni o'rnatish.

Tayanch iboralar: havo parametrlari, yilning issiq mavsumi, yilning sovuq mavsumi, tashqi va ichki havoning infiltratsiyasi, xavoni konditsiyalash, shamol bosimi, uch qavatli ventilyatsiyalanadigan deraza, quyoshdan ximoyalovchi qurilmalar, germetik derazalar, quyoshdan ximoya qiluvchi issiqlikni yutuvchi jalyuzilar, issiqlikni tarqatuvchi oynalar, issiqlikni akkumulyatsiya qiluvchi (teploakkumuliruyuujiye) qistirmalar, quyoshdan ximoyalovchi qurilmalar, tabiiy yoritilganlig, quyosh raditsiyasi, quyosh nurini yutuvchi oynalar.

Ushbu modulning maqsadi – tinglovchilarning ventilyatsiya va havoni konditsiyalash sohasida olib borayotgan amaliy tadqiqotlari uchun zarur bo'lgan dunyoqarashini kengaytirish (6 para). Ta'lim oluvchining oldiga taklif etilgan dunyoqarashni o'zining mustaqil ishi bilan kengaytirish maqsadi qo'yiladi (2 para). Bahoning 50 % i ta'lim oluvchining fikrlay olishi, uni o'qib bayon etib bera olish

Вентиляция ва хавони кондициялаш тизимлари

qobiliyati uchun berilsa, 50 % baho semestr ohirida taqdim etilgan mustaqil ish uchun beriladi.

1.1. Hajmiy rejalashtirish va qurilish konstruktiv tadbirlarini hal qilish.

Arxitektura, qurilish, teplotexnik, yoritish texnikasida. Binoda yuqori energiyasamarador havoni konditsiyalash tizimlarini yaratishda, to'g'ri qarorlar qabul qilish bunda, bino energiyasidan samarali foydalanish maqsadida yuqori energiyasamarador xavoni konditsiyalash tizimlari yordamida bunga erishish mumkin.

Texnologik uskunalardan ajraladigan issiqlikni, namlikni, changni, gazlarni va bo'g'larni to'liq kamaytirish yoki umuman yo'q qilish. Yuqoridagi zararliklarni bartaraf etish uchun xonalarda aniq ichki havo parametrlarini texnologik, sanitariya-gigiyenik nuqtai nazardan asoslangan binoga juda katta miqdorda tashqi xavo berish kerak. Issiqlik tushishini kamaytiruvchi binoni hajmiy rejalashtirish qurilish konstruktiv tadbirlarini hal qilishi kerak. Sun'iy sovuqlik yordamida havoni konditsiyalash tizimlari kapital energiyatejamkorlik va ekspluatatsion mablag'larni kamatstirishga olib keladi. Shu bilan birgalikda havoni konditsiyalash tizimlarini va uning elementlarini sifatini, sovuqlik va issiqlik ta'minoti tizimlarini avtomatik sozlash texnika va texnologiyasini, havoni konditsiyalash va ventilyatsiya tizimlariga zaruriy ikkilamchi ishlov berish issiqlik va sovuqlik tizimlarini takomillashtirish zarur.

Qandaydir energiyatejamkor tadbirlarni tatbiq etish uchun qarorlar yil davomida kutilayotgan tejalgan energiya sarfi kapital mablag'larning ortishi, energiya tanqisligini inobatga olgandagi ekspluatatsiya mablag'lar materiallar, konstruksilar va uskunalarini va kelajakda tannarxini o'zgarishini xisobga olgan holdagi taqqoslash variantlari qarorlar qabul qilinadi. Ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlarini energiyatejamkorlik qarorlarini qabul qilishni umumiy tavsifi.

1.1 Havoni konditsiyalash tizimlarini energiyatejamkorlik samarasini oshirishdagi tadbirlar tavsifi.

Havoni konditsiyalash tizimlarini (havoni konditsialash tizimlari) xonalardagi komfort yoki texnologlar talab qiladigan havo parametrlarini ta'minlovchi "Binolarni nafas olish" tizimlaridir. Sovutish qurilmalari bilan jixozlangan havoni konditsialash tizimlari energiya iste'moli bo'yicha oqimli-ventilyatsiya tizimlaridan ustun turadi havoni konditsialash tizimlariga sarf bo'ladigan kapital mablag'lar binoning umumiy qiymatining 20%gacha, ekspulatsion mablag'lari esa umumiy ekspulatsion mablag'larning 30-50% gacha sarflanadi. havoni konditsialash tizimlarida energiyatejamkorlik Havoni konditsialash tizimlarining mutaxasislari boshqa soha muxandislari va arxitektorlar bilan birgalikda muammolar yechimini o'z ichiga oladi. Havoni konditsialash tizimlari samaradorligi issiqlik, sovuqlik, suv va elektro energiya iste'molini iqtisodiy sarflanishiga binoni loyiha ishlarini qabul qioishla katta ahamiyatga ega. Bino zonalarida tashqi omillarni hisoblab temperaturani sozlanishini qo'llash optimal, rejimlarini sozlash usullarinin qo'llash (minimal energiya iste'miolini taminlab) oddiy avtomatika sozlash va boshqaruvchi EXM vositalari yordamida optimizatsiyalash tugunlari va sarfini ro'yxatlash lozim.

1.2 Binoni qutb yo'nalishiga nisbatan joylashishini tanlash.

Binoni qutb yo'nalishiga nisbatan joylashishini tanlash yilning yoz mavsumida xonaga tushadigan issiqlik oqimlarini kamaytirish maqsadida B.A. Krupnov 1 m² oynalari uchun keltirilgan mablag'larining texnika iqtisodiy xisoblash usullarini ishlab chiqdi va Toshkent shahri uchun 40 °S geografik kenglikdagi 160 m² natijalari 1.1 jadvalda berilgan.

1.1 jadval

Qutb yo'nalishi	Iyun	Dekabr
Meridian geografik kengligi	1000	438
	511	746

Binoni turli qutb yo'nalishi va geografik kengligida sutka davomida tushadigan issiqlik oqimini taqqoslanishi.

Paakso (FRG) ma'lumoti bo'yicha oynada ximoya qurilmalar bo'lmaganda xavoni konditsiyalash tizimlaridagi sovuqlik yuklamalari 1.2 martaga ortgani ta'kidlandi. qator avtorlarning texnika iqtisodiy hisoblash ma'lmuotlariga asosan binoni qutb yo'nalishiga qarab eksplutatsion xarajatlarini 15-18% qisqartirish

mumkin.¹ xuddi shu xulosalar “Spravochnik amerikanskogo obshchestvo injinerov po otopleniyu, konditsionirovaniye vozduxa i xolodilnaya texnika”da bayon etilgan.

1.3 Loyhalashda bino shaklini to‘g‘ri tanlash.

Rejada dumaloq va kvadrat binolarining tashqi devorlari orqali to‘g‘ri turtburchak binolarga nisbatan issiqlik yo‘qolishi va issiqlik tushishini aniqlash mumkin. Qator avtorlar ma’lumotlariga asosan yaqin kelajakda binolarga tushadigan issiqlik oqimlarini kamaytirish maqsadida qurilishda jamoat va ma’muriy binolarni loyihalashda piramida tsilindirlik, sferik shakllarida loyihalash, to‘siqlarga sarf bo‘ladigan qurilish matiraiallarini tejash, issitish ventilyatsiya va xavoni konditsiyalash tizimlariga iste‘mol bo‘ladigan issiqlik va sovuqlikni kamaytiradi.

Tashqi va ichki to‘siq konstruksiyalarini issiqlikni akkmulyatsiya qiluvchi qistirmalar bilan jixozlash hozirgi kunda to‘siqni ichki tashqi sirtini ximoyalovchi qoplamalar bilan qoplash bo‘yicha eksperiment ishlari dapvom etmoqda. Xorij ma’lumotlari bo‘yicha ham aniq ko‘rsmatmalar ham izlanishda.

1.4 Tashqi devorlarni oynalanish darajasini kamaytirish.

Zamonaviy jamoat va mamuriy binolarida tabiiy yorug‘lik bilan ta‘minlash maqsadida iqtisodiy jixatdan qimmat bo‘lishiga qaramay issiqlik oqimlari judda katta va o‘lchamlari ham shunga yarasha bo‘lgan oynalar bilan jixozlanmoqda. yuqori darajali oynaband binolarda keskin kontinental iqlim sharoitida xavoni konditsiyalash tizimini loyihalashning asosiy sabablaridandir, yoki tizimsiz yillining issiq mavsumida 35-40 S va undan yuqori bo‘lishi mumkin. yilning sovuq mavsumida esa sovuq xavo oqima hona bo‘ylab aylanib yuradi. Havoni konditsiyalash tizimlarida sovuqlik sarfi jamoat binolarida oynalanish darajasi ortgan sari quyoshdan himoya qurilmalar bo‘lganda ham sovuqlik iste‘mol sarfi ortadi. Oynalardan tushadigan issiqlik sarfini issiqlik oqimlarini tabiiy yoritilganligini ta‘minlash darajasiga oynalar o‘lchamini kamaytirish mumkin, issiqlikni yutuvchi va issiqlikni tarqatuvchi oynalarni ishlatish bilan; quyoshdan ximoya qurilmalar o‘rnatish bilan arxitektura panjaralarini o‘rnatib oynalardagi issiqlikni kamaytiruvchi oynalar orasida ventilyatsion qurilmalarni o‘rnatilishi bilan issiqlik oqimni kamaytirish mumkin. xorijiy mamalatlarda oynalanish darajasini ilgari 75-80% qabul qilinsa hozirgi kunda ayniqsa energiya krizisi munosabati bilan 15-20% qabul qilishni tavsiya etilmoqda O‘zbekiston Respublikasida oynalanish darajasini tabiiy yoritilganlikdan kelib chiqqan holda va albatta texnika iqtisodiy xisoblar natijasida qabul qilinadi.

1.5 Arxitekturaviy qurilmalar o‘rnatilishi bilan quyosh radiatsiyasidan tushadigan issiqlikni kamaytirish.

¹ ASHRAL Handbook Fundamentals New York 2011

Binoni oynalanish darajasi asoslangan holda tanlanganda yilning issiq mavsumida quyosh radiatsiyasidan tushadigan issiqlik oqimini kamaytirish chora tadbirlari ko‘rinadi. yani balkonlarda oynalar tepasiga, gorizontal yoki vertikal to‘smalar qobirg‘alar o‘rnatiladi.


Issiqlik oqimini yutuvchi oynalarni ishlatish, issiqlik oqimini yutuvchi oynalarda ma‘lum foizda metal bo‘lib to‘lqinlar uzunligi 0.7mm bo‘lgan nurlarni yutadi. quyosh nurlarini yutganda oyna isib uning temperaturasi 40-50S yetadi, konvektiv oqimlar ichki yuzalarida paydo bo‘ladi bunday ko‘ngilsiz voqealarni bartaraf etish uchun derazalarni shamollatib turish lozim.

1.6 Quyoshdan himoya qilish qurilmalarini o‘rnatish.

Quyoshdan himoya qilish qurilmalari sifatida turli xil jalyuzilar (panjralar), turli xil panjaralar, markiza va pardalar ishlatiladi. xorijda esa oq rangli yoki qaymoq rangli jalyuzalarni o‘rnatish, ularning o‘tkazish koeffitsiyenti tarqatuvchi oynalarninkiga teng, to‘q rangli tashqi jalyuzilarning issiqlik o‘tkazishi ichki jalyuzilarning issiqlik o‘tkazuvchanligidan katta demak tashqi jalyuzilarni tez tez changdan tozalab tkrish lozim.

1.7 Ramalar orasidagi ikki va uch qavatli jalyuzili ventiliyatsilanadigan derazalar.

Ikki va uch qavatli oynalangan ventiliyatsiyalanadigan derazalarni o‘rnatish eng samarali tadbirlardan biridir.



1.5 rasm: Ventilyatsiyalanadigan uch qavatli deraza blokining sxemasi

Xonadan chiqarib yuboriladigan havo honaga qaratilgan oyna orqasiga uzatiladi va keyin ventilyatsiyalanadigan yoritgichlar teploutilizatsion qurilmalar orqali o'tadi yoki atmosferaga chiqarib yuboriladi. Oynalar orasida quyoshdan ximoyalash jalyuzilari o'rnatiladi yilning sovuq mavsumida ventilyatsiyalanadigan oyna tashqariga chiqarib yuborilayotgan havo uchun utilizatoridir. Yilning issiq mavsumida quyoshdan ximoyalash qurilmalar vazifasini bajaradi. Yuzasi xonaga qaratilgan oynaning temperaturasi ko'tariladi xonadan to'siq konstruksiyalari orqali yo'qoladigan issiqlik kamayadi, issitish asbobining yuzasi va metall sarfi kamayadi. Eni 1 metrlik oyna uchun havoning soatli solishtirma sarfi odatda 40-60 m³/(s.m) jalyuzisiz 3 qavatli ventilyatsiyalanadigan oynaning issiqlik o'zatish koeffitsiyenti $K=0.86 Vt (m^2 \cdot S)$ dan oshmaydi, ramalar orasidagi jalyuzi oynlari

uchun $K=0.6 \text{ Vt (m}^2 \cdot \text{S)}$. Quyosh raditsiyasidan issiqlik tushishi jalyuzilar bo‘limganda 37% ga, jalyuzilar bo‘lganda va ular gorizontal holatga aylatiriganda 72% 450 aylantirilganda 82%ga kamayadi. Issitish tizimidagi xonalarni isitish uchun 12-15%gacha, xavoni konditsiyalash tizimlarida 27% gacha kamayadi.

Uch qavatli oynalar orasida jalyuzilarni o‘rnatilishi tushayotgan issiqlik oqimini kamaytiradi. tashqarida o‘rnatilgan jalyuzilarning samaradorligi yuqoriroq lekin ular shamol bo‘lganda shovqinni vujudga keltiradi, qimmatroq. Amalda uch qavatli ventilyatsilanuvchi derazalarning o‘rnatilishi yuqori samarani ko‘rsatdi. GPI-4 yengil sanoat loyiha institutining loyihasida uch qavatli ventilyatsiyalanadigan derazalar Farg‘ona shahrining restoran zallarida o‘rnatilgan. Havo sarfi $0.05 \text{ m}^3/(\text{ms})$, issiqlik uzatish ko‘effitsiyenti $0.58 \text{ Vt}/(\text{m}^2 \cdot \text{S})$ oynalar orqali zaldan tashqariga chiqarib yuboriladigan havoning 30% resirkulyatsiyaga o‘tadi. Xisoblar natijasida uch qavatli oynalarning qabul qilinishi to‘siq konstruksiyalari orqali yo‘qoladigan issiqlikni tashqi temperatura -14°S bo‘lgandan 65 KVTga, yilning issiq mavsumida esa sovuqlik yuklamani 88 KVTga kamayishini ko‘rsatdi. Ikki qavatli ventilyatsiyalanadigan oynalarga nisbatan uch qavatli oynalarning ishlatilishi keltirilgan mablag‘larni 1.694.000 so‘mga kamaytiradi, isitish tizimiga sarf bo‘ladigan issiqlikni 47% ga, sovutish stansiyasiining elektroenergiyasini 49%ni, isitish tizimi elektroenergiyasini 44%, aylanma suv sarfini 43%ga kamayishini tasdiqladi. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiku uch qavatli oynalarni ishlatilishi o‘z samaradorligini ko‘rsatdi. Lekin sanoatda ishlab chiqarish qo‘shimcha mablag‘lar bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli ko‘p seriyali ishlab chiqarilishi to‘xtatilib turibdi.

Nazorat savollari:

1. Havoni konditsiyalash tizimlarida energiyasamaradorligini oshirish uchun qanday chora tadbirlar rejasini tuzish mumkin?
2. Rejadagi binoni qutb yunalishiga nisbatan joylashishida nimalarga e’tibor berish kerak?
3. Nimani xisobiga issiqlik va sovuqlik tejamkorligiga erishish mumkin?
4. Avtomatika va sozlash texnika va texnologiyalasini yaxshilanishi natijasida bino xonalaridagi havoni konditsiyalash tizimlarida qanday o‘zgarishlar bo‘ladi.
5. Loyiha ishlarini bajarishda binoning ratsioanl shaklini tanlash nimalarga tasir qiladi?
6. Binoning tashqi va ichki to‘siqlarini issiqlikni ximoya qiluvchi (teploakkumuliruyushchiye) qistirmalarini ishlatilishi nimalarga olib keladi?
7. Tashqi devorlarda oynalanish darajasi kamayishi natijasida havoni konditsiyalash tizimi unumdorligiga qanday ta’sir qiladi?

Вентиляция ва ҳавони кондициялаш тизимлари

8. Quyosh radiyatsiyasi orqali tushadigan issiqlik oqimini arxitekturaviy qurilmalar yordamida kamayishi HK tizimlaridagi issiqlik va sovuqlik yuklamariga qanday ta'sir qiladi?
9. Jamoat va ma'muriy binolarida issiqlikni yutuvchi oynalarni ishlatilishi XK tizimining strukturasiidagi yuklamalarga ta'siri qanday?
10. Jamoat, ma'muriy va sanoat korxonalarining derazalarida quyoshdan ximoya qurilmalarini ishlatilishida xona ichida qanday o'zgarishlar hosil bo'ladi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Robert McDowall, Fundamentals of HVAC Systems America 2006
2. Energy management series 10 Heating ventilating and air conditioning Canada 2010
3. ASHRAL Handbook Fundamentals New York 2011

2-mavzu. Xonadan ajraladigan zararliklar miqdorini hisoblash. Xonada ajraladigan namlikni hisoblash. Havoning issiqlik namlik balansini tuzish. Xonaga beriladigan toza havoning miqdorini minimal darajada bo'lishini ta'minlash asoslari

Reja:

- 2.1. Xonadan ajraladigan zararliklar miqdorini hisoblash.**
- 2.2. Xonada ajraladigan namlikni hisoblash.**
- 2.3. Havoning issiqlik namlik balansini tuzish.**
- 2.4. Xonada ajraladigan ortiqcha issiqliklar.**
- 2.5. Xonalarda ajraladigan zararli moddalarning turi.**
- 2.6. Karrali usul bilan xavo almashivuni xisoblash.**

Tayanch iboralar: odamlardan ajraladigan oshkora issiqlik, yashirin issiqlik, to'liq issiqlik, odamlardan ajraladigan namlik, qo'yosh radiatsiyasi, xonadagi havoning tarkibiy namligi, xonadagi havoning tarkibiy issiqligi, ajraladigan zararli moddalar miqdori, havoning issiqlik-namlik balansini.

1. Xonada ajraladigan zararli miqdorni aniqlash

Ishlab chiqarish jarayoni odatda havoga gazlar, zararli moddalar bug'lari, changlar, ortiqcha suv bug'lari, issiqlik chiqarish bilan ro'y beradi. Xonada ko'pincha odamlar ham havoga issiqlik, namlik, SO₂ va boshqa gazlar ajratadilar. Uning natajasida xonadagi havoning kimyoviy tarkibi va fizik holati o'zgaradi, bu esa odam o'zini yaxshi xis etishiga, uning sog'ligiga ta'sir etadi va ishlash sharoitini yomonlashtiradi.

Jamoat binolarining ko'p xonalarida asosiy zararli chiqindi sifatida ortiqcha issiqlik va namlik bo'ladi.

Sanoat binolarda ulardan tashqari xonaga gazlar, zararli moddalar bug'lari, changlar, ortiqcha suv bug'lari ro'y beradi.

Ventilyatsiyani hisoblaganda xonaga kirayotgan, ajralayotgan zararli miqdorlarni aniqlash kerak.

2. Xonaga kiradigan issiqlik oqimini aniqlash

Xonaga kirayotgan issiqlik oqimlarini quyidagilar tashkil qiladi;

Вентиляция ва ҳавони кондициялаш тизимлари

$$\sum_{i=1}^n Q_{kup} = Q_{odam} + Q_{quyosh} + Q_{yorit} + Q_{el.dv.} + Q_{pech} + Q_{mat.} + \dots, \forall t \quad (1)$$

bu yerda: Q_{odam} -odamlardan ajraladigan issiqlik; Q_{quyosh} -quyosh radiatsiyasining issiqligi; Q_{yorit} -yoritish jihozlaridan ajraladigan issiqlik; $Q_{el.dv.}$ -stanok va mexanizmlarning elektrodvigatellaridan ajraladigan issiqlik; Q_{pech} - texnologik pechlar; $Q_{mat.}$ - materiallar sovishidan va boshqalar.

Odamlardan issiqlik ajralishini xisoblash

Odamlardan oshkora Q_{osh} va yashirin Q_{yash} issiqlik ajraladi. Bu issiqliklarning oqimi odamlarning holatiga bog‘liq, ya’ni u tinch holatdami, yengil, o‘rtacha, yoki og‘ir ish bajarayaptimi.

Oshkora issiqlik oqimini quyidagi formulalar yordamida topish mumkin:

$$Q_{osh} = \beta_u \cdot \beta_{kiy} \cdot (2,5 + 10,3 \sqrt{\bar{v}_x}) (35 - t_x), \forall t \quad (2)$$

bu yerda: β_u -tuzatish koeffitsiyenti, u odamning holatini hisobga oladi, ya’ni ishning intensivligini; $\beta_u=1$ tinch va yengil ish uchun; $\beta_u=1,07$ o‘rtacha og‘irlikdagi ish uchun; $\beta_u=1,15$ og‘ir ish bajarilganda; β_{kiy} -kiyimning turiga bog‘liq bo‘lgan koeffitsiyent; $\beta_{kiy}=1$ yengil kiyim uchun; $\beta_{kiy}=0,65$ —oddiy kiyim uchun; $\beta_{kiy}=0,4$ issiq kiyim uchun; v_x - havo tezligi, m/s; t_x - xonaning harorati, °S.

Odamlardan ajraladigan issiqlik oqimi boshqa ifodadan aniqlanishi ham mumkin

$$Q = q \cdot n, \forall t \quad (3)$$

bu yerda: q -bitta odamdan ajraladigan issiqlik oqimi, [10], [11], [12], [13] adabiyotlarda keltirilgan jadvallardan hamda 1-jadvaldan olish mumkin;

n - odamlar soni.

Bitta odamdan ajraladigan issiqlik oqimi, $\forall t$.

1-jadval.

Энергия тежамкор вентиляция ва хавони кондициялаш тизимлари

Parametrlar	Xona havosini haroratiga, °S, mos parametrlarni soni				
	15	20	25	30	35
Tinch holat					
Oshkora issiqlik	116	87	58	40	16
To'liq issiqlik	145	116	93	93	93
Yengil ish					
Oshkora issiqlik	122	99	64	40	8
To'liq issiqlik	157	151	145	145	145
O'rta og'irlik ish					
Oshkora issiqlik	133	104	70	40	8
To'liq issiqlik	208	203	197	197	197
Og'ir ish					
Oshkora issiqlik	162	128	93	52	16
To'liq issiqlik	290	290	290	290	290

Eslatma; Jadvalda erkaklardan ajraladigan issiqlik oqimi keltirilgan. Ayollar va bolalardan ajralib chiqayotgan issiqlik oqimiga mos ravishda erkaklardan ajralib chiqayotgan issiqlik oqimi 85% va 75% ga teng deb qabul qilinadi.

Odamlardan ajraladigan issiqlik okimi

2-jadval

Hona №	Bitta odamdan ajraladigan issiqlik oqimi (oshkora) q, Vt	Bitta odamdan ajraladigan issiqlik oqimi (to'liq) q, Vt	Odamlar soni n	Odamlardan ajraladigan issiqlik oqimi (oshkora) Q, Vt	Odamlardan ajraladigan issiqlik oqimi (to'liq) Q, Vt
1	2	3	4	5	6
101					

3.Yoritish jihozlaridan issiqlik ajralishi

Вентиляция ва ҳавони кондициялаш тизимлари

Sun'iy yoritish jihozlaridan ajraladigan issiqlik oqimi uning quvvatiga qarab aniqlanadi. Odatda, xonani yoritish uchun mo'ljallangan energiya issiqlikka aylanadi va xonaning havosini isitadi deb qabul qilinadi.

Agarda yoritish jihozlari quvvati noma'lum bo'lsa ulardan ajraladigan issiqlik oqimi quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$Q_{yorit} = E \cdot F \cdot q_{yor} \cdot \eta_{yor}, \quad Vt \quad (4)$$

bu yerda: Ye -yoritilganligi (освещенность),lk, 2-jadvaldan qabul qilinadi; F - xona maydoni, m²; q_{yor} .-solishtirma issiqlik ajralishi, Vt/m², 3.1.3-jadvaldan olinadi; η_{yor} -xonaga tushadigan issiqlik energiyasining ulushi; xonaning tashqisida joylashgan yoritgichlar uchun -0,45 lyuminessent lampalar va 0,15 qizitish lampalari uchun;

Xonalarni umumiy yoritilganlik darajasi

3-jadval.

Xonalar	Ishchi yuzalar yoritilganligi, lk
Jamoat binolar va ishlab chiqarish binolarni yordamchi xonalari;	
kutubxona qiroatxonasi, loyihalash kabinetlari, ishchi va sinf xonalari, auditoriyalar, loyihalash zallari, konstruktorlik byuro, kengash zallari, klublarning sport, majlis va ko'rish zallari, teatr foyellari, usti yopiq basseynlar, kinoteatr va klublar foyellari	300 500 200 150
Kinoteatrlarning ko'rish zallari	75
sanatoriyalarning palatalar va yotadigan xonalar	75
bufet va ovqatlanish zallari	200
mehmonxonalar nomerlari	100
<i>Do'konlarni savdo zallari:</i>	
oziq-ovqat	400
sanoat mollar	300
xo'jalik mollar	200

Lyuminessent lampalarda solishtirma issiqlik ajralishi 4-jadval.

Энергия тежамкор вентиляция ва хавони кондициялаш тизимлари

Yoritish jihoz turi	Yorug'lik oqimining taqsimlanishi, %		Xonaning yuzasiga, m ² , qarab o'rtacha solishtirma issiqlik ajralishi Vt/(m ² lk)					
	tepaga	past ga	>200		50-200		<50	
			xonaning balandligi, m					
			4,2	4,2	3,6	3,6	3,6	3,6
Yorug'likni to'g'ri yo'naltirilgan	5	95	0,067	0,560	0,074	0,058	0,102	0,077
Yorug'likni asosan to'g'riyo'naltiradigan	25	75	0,082	0,071	0,087	0,073	0,122	0,190
Yorug'likni diffuz tarqoqli yo'naltiradigan	50	50	0,094	0,077	0,102	0,079	0,166	0,116
Yorug'likni asosan akslantiradigan holda yo'naltiradigan	75	25	0,140	0,108	0,152	0,114	0,232	0,166
Yorug'likni akslantiradigan holda yo'naltiradigan	95	5	0,145	0,108	0,154	0,264	0,264	0,161

Eslatma: qizitish lampalar ishlatilganda jadvalda keltirilgan sonlarga 2,75 tuzatish koeffitsiyentni kiritish kerak.

Yoritish jixozlaridan ajraladigan issiqlik okimi

(5-jadval)

Hona №	Yoritilganlik darajasi E.,lk	Solishtirma issiqlik ajralishi q _{yor}	Xonaga tushadigan issiqlik energiyasining ulushi η _{yor}	Xona maydoni F m ²	ΣQ _{yorit}
1	2	3	4	5	6
101					

4. Elektrodvigatellardan ajraladigan issiqlik oqimi

Вентиляция ва ҳавони кондициялаш тизимлари

Elektrodvigatellardan ajralib chiqadigan umumiy issiqlik oqimi quyidagicha aniqlanadi:

$$Q_{el.dv.} = N_{o'r} \cdot K_{foyl} \cdot K_{yuk} \cdot K_{bir} (1 - \eta + K_{foyl} \eta), \text{ Vt} \quad (5)$$

bu yerda: $N_{o'r}$ -o'rnatilgan elektrodvigatelning quvvati, Vt; $K_{foyl}=0,7-0,9$ -o'rnatilgan quvvatidan foydalanish koeffitsiyenti; $K_{yuk}=0,5-0,8$ - yuklanish koeffitsiyenti; $K_{bir}=0,5-1$ -elektrodvigatelning birdaniga ishlash koeffitsiyenti; $K_{foyl}=0,1-1$ -mexanik energiyasi issiqlik energiyasiga o'tish koeffitsiyenti.

6. Pechlardan va boshka jihozlardan chiqadigan issiqlik oqimi

$$Q = \alpha_{yuz} F (t_{yuz} - t_x), \quad \text{Vt} \quad (6)$$

bu yerda: α -issiqlik berish koeffitsiyenti; Vt/m² °S; F -jihozning yuzasi, m²; t_{yuz} -tashqi yuzaning harorati, °S; t_x -xonadagi havoning harorati, °S.

7. Materiallar sovushida ajraladigan issiqlik oqimi

$$Q_{mat} = 0,278 M \cdot s (t_b - t_{ox}) \beta, \quad \text{Vt} \quad (7)$$

bu yerda: M -materiallar massasi, kg; s -materialning o'rtacha issiqlik sig'imi, kJ/kg⁰S; t_b -materialning boshlang'ich harorati, °S; t_{ox} -materialning oxirgi harorati, °S; β -issiqlik berishni vaqt bo'yicha o'zgarishini hisobga oluvchi o'lchamsiz koeffitsiyent.

8. Quyosh radiatsiyasining issiqlik oqimini aniqlash

Quyosh radiatsiyasining issiqligi tashqi to'siqlar: deraza, devor, ship orqali xonaga kiradi.

9. Derazadan quyosh radiatsiyasi orqali kiradigan issiqlik oqimini aniqlash

Deraza orqali xonaga kirayotgan issiqlik oqimini qo‘yidagi formula yordamida topish mumkin

$$Q_{max} = (q_{yor} F_{yor} + q_s F_s) K_{n.o}, \quad \forall t \quad (8)$$

bu yerda: q_{yor}, q_c - mos ravshida quyoshdan yoritilgan va soyada bo‘lgan 1 m², bir qavatli, oddiy, qalinligi $\delta=2,4\div3,2$ mm oyna orqali xonaga kirayotgan issiqlik oqimi, Vt/m²; F_{yor}, F_s - mos ravishda quyoshdan yoritilgan va soyada bo‘lgan oynaning yuzasi, m²; $K_{n.o}$ - oynadan quyosh radiatsiyasi nisbiy kirish koeffitsiyenti.

Qurilish joyining jo‘g‘rofiy kengligi va bino oynalarining oriyentatsiyasiga qarab maksimal yoki belgilangan hisobiy soat uchun q_{yor}, q_c qiymatlari aniqlanadi.

Oynani quyosh azimuti $A_{o,q} < 90^0$ bo‘lganda. ya’ni tik oyna ayrim yoki to‘liq quyosh nuri bilan yoritilgan bo‘lganda

$$q_{yor} = (q_{to'g'r} + q_{tarq}) k_1 k_2 \quad (9)$$

Agarda tik oyna soyada joylashgan bo‘lsa, ya’ni $A_{o,q} \geq 90^0$ bo‘lganda, yoki oynaning tashqarisidan quyoshdan ximoya qiluvchi qurilmalardan soya tushsa

$$q_s = q_{tarq} k_1 k_2 \quad (10)$$

Bu formulalarda $q_{to'g'r}, q_{tarq}$ mos ravishda to‘g‘ri va tarqoq quyosh radiatsiyasining issiqlik oqimini eng katta qiymati 4-jadvaldan olinadi; k_1 - atmosfera iflosligini va deraza panjarasidan tushgan soyani e‘tiborga oluvchi tuzatish koeffitsiyenti, 5-jadvaldan qabul qilinadi; k_2 – oynani iflosligini hisobga oluvchi tuzatish koeffitsiyenti, 6-jadvaldan olish mumkin.

Oyna orqali xonaga kirayotgan quyosh radiatsiyasining issiqlik oqimining qiymatlarini aniqlash

6-jadval.

Hisobiy jo‘g‘rofiy kengligi ⁰ Shl. k.	Haqiqiy quyosh tushish vaqti, soat	Derazani oriyentatsiyasi bo‘yicha issiqlik oqimi, Vt/m ²

Вентиляция ва ҳавони кондициялаш тизимлари

			Tushgacha							
			Shl	ShlShq	Shq	JShq	J	JG'	G'	ShlG'
	Tush gacha	Tush dan keyin	tushdan keyin							
Shl			ShlG'	G'	JG'	J	JShq	Shq	ShlShq	
36	5-6	18-19	69/36	117/36	116/24	24/28	-/16	-/16	-/21	-/19
	6-7	17-18	53/71	334/91	348/109	156/86	-/52	-/36	-/44	-/47
	7-8	16-17	27/81	369/114	435/134	273/109	-/71	-/56	-/55	-/56
	8-9	15-16	-/71	274/104	419/123	307/108	-/77	-/60	-/64	-/60
	9-10	14-15	-/64	148/80	345/99	298/91	35/78	-/63	-/62	-/62
	10-11	13-14	-/62	38/71	186/185	230/83	87/78	-/65	-/62	-65
	11-12	12-13	-/60	-/67	33/76	119/74	110/78	2/69	-/67	-/65
40	5-6	18-19	71/31	170/47	214/47	50/35	-/20	-/20	-/21	-/22
	6-7	17-18	51/71	350/97	419/112	183/86	-/55	-/42	-/44	-/47
	7-8	16-17	6/78	345/114	493/133	302/109	-/71	-/56	-/55	-/57
	8-9	15-16	-/71	258/104	471/121	354/108	60/78	-/60	-/60	-/60
	9-10	14-15	-/64	116/80	363/99	342/95	150/70	-/63	-/62	-/62
	10-11	13-14	-/62	6/71	191/81	274/83	222/81	-/67	-/62	-/65
	11-12	12-13	-/60	-/67	35/43	172/77	257/81	45/72	-/65	-/65
44	5-6	18-19	84/38	222/53	292/58	72/40	-/23	-/22	-/22	-/23
	6-7	17-18	42/70	369/98	452/112	209/86	-/55	-/44	-/44	-/33
	7-8	16-17	-/77	357/110	509/130	333/109	-/71	-/55	-/55	-/55
	8-9	15-16	-/71	256/101	490/121	398/108	66/79	-/60	-/59	-/60
	9-10	14-15	-/64	84/80	371/100	389/101	162/81	-/63	-/60	-/62
	10-11	13-14	-/60	-/71	193/80	305/86	245/84	-/67	-/60	-/64
	11-12	12-13	-/59	-/67	37/72	214/79	288/85	73/77	-/65	-/65

Oyna orqali xonaga kirayotgan quyosh radiatsiyasining issiqlik oqimining derazaning qavatli va panjarali ko'effitsiyentlari

7-jadval

Oyna	Atmosferadagi ko'effitsiyent K_1 qiymati	
	Ifloslan magan	quyidagi 0Shl . k geografik kengliklarda joylashgan sanoat tumanlarida ifloslangan

Энергия тежамкор вентиляция ва хавони кондициялаш тизимлари

	(nurlanishga bog'liq emas)	36-40	44-68	36-40	44-68
		Hisoblanayotgan soatlarda quyosh tushayotgan oyna uchun		Hisoblanayotgan soatlarda soyada bo'lgan oyna uchun	
Bir qavatli panjarasiz, shisha blok va profilli shisha bilan to'ldirilishi	1	0,7	0,75	1,6	1,75
Ikki qavatli panjarasiz	0,9	0,63	0,68	1,45	1,58
Panjarali bir qavatli: metalli	0,8	0,56	0,6	1,28	1,4
Yog'ochli	0,65	0,46	0,48	1,04	1,14
Panjarali ikki qavatli: metalli	0,72	0,51	0,54	1,15	1,26
Yog'ochli	0,6	0,42	0,45	0,96	1,05

Oyna orqali xonaga kirayotgan quyosh radiatsiyasining issiqlik oqimini oynaning ifloslanganligi darajasidagi koeffitsiyent

8-jadval

Oynaning ifloslanganligi	Vertikal oynalarni to'ldiruvchi koeffitsiyent K_2 qiymatlar $80^0 < \nu < 90^0$
Juda iflos	0,85
Sezilarli	0,9
Sezilmas	0,95
Toza	1

Eslatma: 1. Xonadagi havoda chang, tutun konsentratsiyasi 10 mg/m^3 va undan ortiq bo'lsa juda iflos, $5-10 \text{ mg/m}^3$ bo'lsa sezilarli darajada iflos, 5 mg/m^3 dan ortiq bo'lmasa sezilmas darajada iflos deb hisoblanadi.

2. ν -oyna sirti va gorizonttal sirt orasidagi o'tkir burchak.

Oynalarning azimut absolyut qiymati $A_{o,q}$ quyidagi formulalardan aniqlanadi:

JShq yo'nalishda tushdan keyin va JShq yo'nalishida tushdan oldin

$$A_{o,q} = A_q + A_o \quad (11)$$

F, ShIF, JF yo'nalishda tushdan keyin, Shq, ShlShq, JShq yo'nalishda tushdan oldin va Shl, J yo'nalishlarga

$$A_{o,q} = A_q - A_o \quad (12)$$

F, ShIF yo'nalishda tushdan keyin va Shq, ShlShq yo'nalishda tushdan keyin

Вентиляция ва ҳавони кондициялаш тизимлари


$$A_{o,q} = 360 - (A_q - A_o) \tag{13}$$

Bu yerda A_q -quyosh azimuti ya'ni quyosh nurini gorizonttal proyeksiyasi va janub yo'nalishi orasidagi burchak (.7-jadval, .1-rasm).

A_o -oynani azimuti, ya'ni oyna yuzasi va normal orasidagi burchak yoki soat mili yo'nalishi yo unga teskari yo'nalish bo'yicha hisoblanganda, shu normal gorizonttal proyeksiyasi bilan janubiy yo'nalish orasidagi burchak (1-rasm).

Rasm-1. Quyosh nurining va azimutlari proyeksiyasi:

1-quyosh nuri; 2-nur to'playotgan oyna sirti; 3-gorizonttal sirt; 4-oyna sirtiga nisbatan normal; 5-quyosh nurining gorizonttal proyeksiyasi; h-quyosh balandligi; ν -oina va gorizonttal sirt orasidagi o'tkir burchak.



Oynaning oriyentatsiyasi	Shl	ShlShq	Shq	JShq	J	J/	G'	Shl/
A_o	180	135	90	45	0	45	90	135

Geografik kengliklardagi quyosh azimutining qiymatlari

9-jadval

Haqiqiy quyosh vaqti		Geografik kengliklardagi quyosh azimutining qiymatlari ^o Shl. k. A_q			
tushgacha	tushdan keyin	36	40	44	48
2-3	21-22	-	-	-	-
3-4	22-21	-	-	-	-
4-5	19-20	-	-	-	-
5-6	18-19	111	111	111	110
6-7	17-18	104	104	100	99
7-8	16-17	94	93	90	87
8-9	15-16	86	82	78	76
9-10	14-15	75	69	65	60

10-11	13-14	56	49	45	40
11-12	12-13	24	20	18	16
12 tush		0	0	0	0

Eslatma: Quyosh azimuti kunning birinchi yarmida (tushgacha) janubiy yo‘nalishga nisbatan soat mili harakatiga teskari, kunning ikkinchi yarmida (tushdan keyin) soat mili harakati bo‘yicha hisoblanadi.

Agarda xonada oynalar xar xil yo‘nalishda joylashgan bo‘lsa, hamda bir-biri orasida 90° li burchak bo‘lsa va hisobiy soat belgilanmagan bo‘lmasa, xonaga kirayotgan issiqlikni xar bir devorda joylashgan oyna orqali hisoblash kerak va xonalar kishilar bilan band bo‘lgan yoki korxonada ishlayotgan davr uchun eng katta qiymat olinishi lozim.

Quyoshdan himoya qiluvchi qurilmalar derazalarga o‘rnatilmagan bo‘lsa xonaga kirayotgan issiqlikning hisobiy qiymatini aniqlashda xonadagi ichki to‘siqlar ayrim issiqlikni akumulatsiya qilishni hisobga olish kerak.

Ichki to‘siqlarning issiqlikni akumulatsiya qilish qobiliyatini hisobga olganda xonaga kirayotgan hisobiy issiqlikni quyidagicha aniqlash mumkin; oynalarda quyoshdan himoya qiluvchi tashqi qurilmalar bo‘lmaganda

$$Q_x = Q_{\max} \left(\frac{F_1 m_1 + F_2 m_2 + F_3 m_3 + 0,5 F_4 m_4 + 1,5 F_5 m_5}{F_1 + F_2 + F_3 + F_4 + F_5} \right) \quad (14)$$

shu qurilmalar bo‘lganda

$$Q_x = Q_{\max} \left(\frac{F_1 m_1 + F_2 m_2 + F_3 m_3 + F_4 m_4 + F_5 m_5}{F_1 + F_2 + F_3 + F_4 + F_5} \right) \quad (15)$$

bu yerda: F_1, F_2, F_3 -xonadagi ichki devorlarini yuzasi, m^2 ; F_4, F_5 -mos ravishda ship va polning yuzalari, m^2 ; m_1, m_2, m_3, m_4, m_5 -issiqlikni akumulatsiya qilinishlikni hisobga oluvchi tuzatish koeffitsiyentlar mos ravishda ichki devorlar, ship va pol uchun 10-jadvaldan har bir to‘siq uchun qabul qilinadi.

10-jadval

Material	Hisobiy qalinlik δ , sm	Issiqlik o‘tqazish koeffitsiyenti λ , $Vt/(m.K)$	Harorat o‘tqazish koeffitsiyenti a , $m^2/soat$	Bino old qismiga (fasad) quyosh radiatsiyasi tik tushgan davriga ko‘ra koeffitsiyent m qiymati, soat			
				12	10	8	6

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	
1.																				

10. Shift orqali xonaga kiradigan issiqlik oqimi

Shift orqali xonaga kiradigan issiqlik oqimini qo‘yidagi formula yordamiga topish mumkin

$$Q = q_o + \beta A_q, \text{ Vt} \quad (16)$$

bu yerda: q_o –xonaga kirayotgan sutkali o‘rtacha issiqligi, Vt; β - sutkadagi bir soat uchun belgilangan koeffitsiyenti, 9-jadvaldan olinadi; A_q - issiqlik oqimning tebranish amplitudasi, Vt.

Sutkaning turli soatlarida mos ravishda o‘zgarayotgan issiqlik oqimi miqdorini aniqlash uchun ishlatiladigan koeffitsiyent, β ni qiymati 12-jadvalga asosan qabul qilinadi.

12-jadval

Kiradigan issiqlikni maksimumdan oldin yoki keyin olingan soat soni	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
β koeffitsiyenti	1	0,97	0,87	0,71	0,5	0,26	0,0	-0,26	-0,5	-0,71	-0,87	-0,97	-1

Xonaga kirayotgan sutkali o‘rtacha issiqlikni quyidagi formula yordamida topish mumkin

$$q_o = \frac{F}{R_o} (t_{m.x}^{uapm} - t_{chik}), \text{ Bt} \quad (17)$$

bu yerda: F-shipning yuzasi, m²; R_o-shipning termik qarshiligi, (m²k)/Vt, shipning issiqlik texnik hisobi asosida olinadi yoki bu hisob bajarilmaganda QMQ 2.01.04-97 me’yorni 2a, 2b, 2v-jadvallardan qabul qilish mumkin; t_{chik}-xonadan chiqarib yuborilayotgan havoning harorati, ° S; t_{t.x}^{shart}-tashqi havoni shartli sutkali o‘rtacha harorati.

Вентиляция ва ҳавони кондициялаш тизимлари

Tashqi havoni shartli sutkali o'rtacha harorati taxminan quyidagi formuladan topiladi

$$t_{m.x}^{uapm} = t'_{m.x} + \frac{\rho I_{yp}}{\alpha'_T}, ^\circ C \quad (18)$$

bu yerda: $t'_{t.x}$ -tashqi havoning hisobiy harorati, iyul oyini o'rtacha haroratiga teng deb QMQ 2.01.01-94 ni jadvalidan olinadi.

ρ -shipning tashqi yuzasi materialini quyosh radiatsiyasini yutish koeffitsiyenti, QMQ 2.01.04-97 ni 6 ilova bo'yicha qabul qilinadi;

I_{yp} -yig'ma quyosh radiatsiyasini (to'g'ri va tarqoq) o'rtacha qiymati QMQ 2.01.04-97 bo'yicha qabul qilinadi;

To'siq konstruksiyasining tashqi sirtidagi ashyosi bilan quyosh radiatsiyasining yutish koeffitsiyentlari

13-jadval.

To'siq konstruksiyasi tashqi sirtining ashyosi	Quyosh radiatsiyasining yutish koeffitsiyenti
1. Alyuminiy	0,5
2. Asbest-sement taxtalari	0,65
3. Asfalt-beton	0,9
4. Betonlar	0,7
5. Bo'yalmagan yog'och	0,6
6. Och rang shag'aldan rulonli tomlarning himoyalash qatlami	0,65
7. Qizil pishiq g'isht	0,7
8. Silikat g'asht	0,6
9. Oq tabiiy tosh qoplamasi	0,45
10. To'q kulrang silikat bo'yoq	0,7
11. Oq ohak bo'yoq	0,3
12. Qoplama keramik plitka	0,8
13. Qoplama ko'k shishali plitka	0,6

Энергия тежамкор вентиляция ва хавони кондициялаш тизимлари

14. Oq yoki sarg'ish qoplama plitka	0,45
15. Qum sepmali ruberoid	0,9
16. Oq bo'yoq bilan bo'yalgan po'latli	0,45
17. To'q qizil bo'yoq bilan bo'yalgan po'latli list	0,8
18. Yashil bo'yoq bilan bo'yalgan po'latli list	0,6
19. Ruxlangan tombop po'lat	0,65
20. Qoplama shisha	0,7
21. To'q kulrang yoki qizg'ish sariq rang ohakli suvoq	0,7
22. Och havo rangli sementli suvoq	0,3
23. To'q yashil rangli sementli suvoq	0,6
24. Och sariq (sarg'ish) sementli suvoq	0,4

14-jadval

Ko'rsatgich	Geografik kengligi, °/k.								
	37	38	39	40	41	42	43	44	45
I_{max}	949	942	935	928	922	915	905	894	884
$I_{o'r}$	335	334	333	333	333	334	333	331	329
$I_{max} - I_{o'r}$	614	608	602	595	589	582	573	563	555

α'_T -yoz sharoitlari bo'yicha to'siq konstruksiyalarini tashqi yuzasining issiqlik berish koeffitsiyenti, $Вт/(m^2 \cdot S)$.

Tashqi yuzaning issiqlik berish koeffitsiyenti quyidagi formula bo'yicha aniqlanishi lozim

$$\alpha'_T = 1,16(5 + 10\sqrt{g}), \text{Вт}/(m^2 \cdot C) \quad (19)$$

bu yerda: ν -takrorlanishi 16% va undan yuqori bo'lgan rumblar bo'yicha iyul uchun shamolning o'rtacha minimal tezligi, QMQ 2.01.04-94 ga asosan qabul qilinadi, lekin bu kattalik 1 m/s dan kam bo'lmasligi kerak.

Issiqlik oqimini tebranish amplitudasi quyidagi formuladan aniqlanadi

Вентиляция ва ҳавони кондициялаш тизимлари

$$A_q = \alpha_u F A_{\tau_u}, \text{ ВТ} \quad (20)$$

bu yerda: α_u -shipni ichki yuzasini issiqlik berish koeffitsiyenti, $\text{Vt}/(\text{m}^2 \text{ } ^\circ\text{s})$, QMQ 2.01.04-97 ni 5-jadvaliga asosan qabul qilinadi;

A_{τ_u} -shipni ichki yuzasi haroratining tebranish amplitudasi, $^\circ\text{s}$;

To'siq konstruksiyasining ichki yuzasi harorati tebranish amplitudasini quyidagi formulaga ko'ra aniqlash lozim

$$A_{\tau_u} = \frac{A_{t_T}^{xuc}}{\nu}, \text{ } ^\circ\text{C} \quad (21)$$

bu yerda: ν -to'siq konstruksiyasida tashqi havo harorati tebranishining hisobiy amplitudasining A_{τ_u} so'nish kattaligi;

$A_{t_T}^{xuc}$ -tashqi havo harorati tebranishining hisobiy amplitudasi, $^\circ\text{s}$.

tashqi havo harorati tebranishining hisobiy amplitudasi $A_{t_T}^{xuc}$, $^\circ\text{s}$, quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi

$$A_{t_T}^{xuc} = 0,5 A_{t_T} + \frac{\rho(I_{\max} - I_{yp})}{\alpha'_T}, \text{ } ^\circ\text{C} \quad (22)$$

bu yerda: A_{t_T} -iyul oyida tashqi havo harorati kunlik tebranishni maksimal amplitudasi, $^\circ\text{S}$, QMQ 2.01.04-94 ga asosan qabul qilinadi; I_{\max} -yig'ma quyosh radiatsiyasini (to'g'ri tarqoq) maksimal qiymati Vt/m^2 , QMQ 2.01.01-94 ga asosan qabul qilinadi.

Bir turdagi qatlamlardan tashkil topgan to'siq konstruksiyasida tashqi havo haroratining tebranishini hisobiy amplitudasining so'nish ν kattaligi quyidagi formuladan aniqlanadi

$$\nu = 0,9e^{\frac{D}{\sqrt{2}}} \frac{(S_1 + \alpha_u)(S_2 + Y_1) \dots (S_n + Y_{n-1})(\alpha'_T + Y_n)}{(S_1 + Y_1)(S_2 + Y_2) \dots (S_n + Y_n)\alpha'_T}, \quad (23)$$

bu yerda: $ye=2,718$ -natural logariflar asosi; D -to'siq konstruksiyasining issiqlik inersiyasi; $S_1, S_2 \dots S_n$ -to'siq konstruksiyalari alohida qatlamlari materialini hisobiy issiqlik o'zlashtirish koeffitsiyenti, $Vt/(m^2 \cdot ^\circ S)$, QMQ 2.01.04-97 ni 1 ilova bo'yicha qabul qilinadi; $Y_1, Y_2, \dots Y_{n-1}, Y_n$ -to'siq konstruksiyalarining alohida qatlamlari tashqi yuzasini issiqlik o'zlashtirish koeffitsiyenti, $Vt/(m^2 \cdot ^\circ S)$. Eslatma, (23) formuladan qatlamlarni raqamlashtirish tartibi ichki yuzadan tashqarisiga yo'nalish bo'yicha qabul qilingan.

To'siq konstruksiyalarining alohida qatlamlari tashqi yuzalarini issiqlik inersiyasini D_i .

D -ni oldindan hisoblash lozim (to'siq konstruksiyalarini issiqlik uzatishga qarshiligini hisobi asosida QMQ 2.01.04-97 dan topiladi).

Issiqlik inersiyasi $D \geq 1$ bo'lgan qatlam tashqi yuzasini issiqlik o'zlashtirish koeffitsiyenti Y , $Vt/(m^2 \cdot ^\circ S)$ konstruksiyaning shu qatlami S materialining hisobiy issiqlik o'zlashtirish koeffitsiyentiga teng deb, QMQ 2.01.04-97 ni 1 ilovasi bo'yicha qabul qilish lozim.

Issiqlik inersiyasi $D < 1$ bo'lgan qatlam tashqi yuzasini issiqlik o'zlashtirish koeffitsiyenti birinchi qatlam (to'siq konstruksiyasini ichki yuzasidan sanab) dan boshlab, quyidagi hisoblar orqali aniqlanadi:

a) birinchi qatlam uchun

$$Y_1 = \frac{R_1 S_1^2 + \alpha_u}{1 + R_1 \alpha_u}, \text{ BT}/(M^{20} \text{ C}) \quad (24)$$

b) i -nchi qatlam uchun quyidagi formula bo'yicha aniqlash lozim

Вентиляция ва ҳавони кондициялаш тизимлари

$$Y_i = \frac{R_i S_i^2 + Y_{i-1}}{1 + R_i Y_{i-1}}, \text{ Вт}/(\text{м}^2 \cdot \text{C}), \tag{25}$$

bu yerda: R_i , R_i -to‘siq konstruksiyasini mos ravishda birinchi va i -nchi qatlamlarining termik qarshiligi, $(\text{m}^2 \cdot \text{S})/\text{Vt}$, QMQ 2.01.04-97 da keltirilgan formula bo‘yicha aniqlanadi

$$R_1 = \frac{\delta_1}{\lambda_1}, R_i = \frac{\delta_i}{\lambda_i} \tag{26}$$

bu yerda: δ_i , δ_i -mos ravishda 1-nchi va i -nchi qatlam qalinligi, m; λ_1 , λ_i -mos ravishda 1-nchi va i -nchi qatlam ashyosini issiqlik o‘tkazuvchanligi hisobiy koeffitsiyenti, $\text{Vt}/(\text{m} \cdot \text{S})$, QMQ 2.01.04-97 ni 1- sonli ilovasidan qabul qilinadi; S_i , S_i -mos ravishda birinchi va i -nchi qatlam materialining hisobiy issiqlik o‘zlashtirish koeffitsiyenti, $\text{Vt}/(\text{m}^2 \cdot \text{S})$, QMQ 2.01.04-97 ni 1-sonli ilovasidan qabul qilinadi; Y_i , Y_i , Y_{i-1} -to‘siq konstruksiyasini mos ravishda birinchi, i -nchi va $(i-1)$ -nchi qatlamlar tashqi yuzasini issiqlik o‘zlashtirish koeffitsiyentlari, $\text{Vt}/(\text{m}^2 \cdot \text{S})$.

Xonaga issiqlikni kirish maksimum vaqti Z^{max} , soat, quyidagi formuladan topish lozim

$$Z^{\text{max}} = 13 + 2,7D \tag{27}$$

bu yerda: D -to‘siq konstruksiyani issiqlik inersiyasi.

Shift orqali xonalarga kiradigan issiqlik oqimi

(15-jadval)

Xon a №	α_i	F	A_{ri}	A_q	$\frac{1}{R0}$	t_{Tx}^{sh} - t_{chib}	q_0	$\frac{\beta * Aq}{\beta = 1}$	Q
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
101									

11. Xonaga ajralib chiqayotgan namlik miqdorini aniqlash

Xonaga ajraladigan namlik miqdorlarini qo‘yidagilar tashkil qiladi:

$$\Sigma W_i = W_{odam} + W_{k.suv.} + W_{mat} + W_{adr.} + \dots \text{ g/soat} \quad (28)$$

bu yerda: W_{odam} —odamlardan; $W_{k.suv.}$ -qaynayotdan suvning ochik sathidan; W_{mat} -namlandan material va ashyolardan; W_{adr} -ishlab chiqarish agregat va quvurlar teshiklaridan;

Odamlardan ajraladigan namlik miqdori qo‘yidagi ifodadan aniqlanadi

$$W_{odam} = w \cdot n, \text{ g/soat} \quad (29)$$

bu yerda: w -bitta odamdan ajraladigan namlik, g/soat, [10], [11], [12], [13] adabiyotlardan aniqlanadi; n -odamlar soni.

Bir nafar odamdan ajraladigan namlik miqdori, g/soat

16-jadval.

Parametrlar	Xona havosining haroratiga, °S, mos parametrlarining soni				
	15	20	25	30	35
Tinch holat					
Namlik	40	40	50	75	115
Yengil ish					
Namlik	55	75	115	150	200
O‘rta og‘ir ishi					
Namlik	110	140	185	230	280
Og‘ir ish					
Namlik	185	240	295	355	415

Qaynamayotgan suvning ochiq sathidan ajraladigan namlikning miqdori keltirayotgan issiqlik oqimiga bog‘liq bo‘lib, texnologlar beradigan ma’lumotlar asosida olinadi.

Вентиляция ва ҳавони кондициялаш тизимлари

Ko‘pincha namlangan materiallar va ashyolardan ajraladigan namlik miqdori ham texnologlar beradigan ma’lumotlar asosida olinadi. Masalan: polni yuzasidan adiabatik jarayon sharoitida bug‘lanish natijasida ajraladigan namlik miqdori quyidagi ifodadan aniqlanadi.

$$W_{mat}=6 F (t_k -t_n) 10^{-3}, \text{ kg/soat} \quad (30)$$

bu yerda: F -bug‘lanish sathi, m^2 ; t_k-t_n -quruq va nam termometr ko‘rsatgan xonadagi havoning harorati, $^{\circ}S$.

Xonaga ajralib chiqayotgan namlik miqdorini aniqlash

(17-jadval)

Xona №	Bitta odamdan ajraladigan namlik w	Odamlar soni n	Odamlardan ajraladigan namlik miqdori W g/soat
1	2	3	4

XONALARDAGI ISSIQLIK BALANSINI TUZISH

(18-jadval)

Xona №	Odamlardan ajraladigan issiqlik oqimi Q tulik	Shift orqali kiradigan issiqlik oqimi Q shift	Yoritish jixozlaridan issiqlik ajralishi Q _{yor}	Deraza orqali kiradigan issiqlik oqimi Q _{deraza}	Odamlardan ajraladigan namlik miqdori W	ΣQ
1	2	3	4	5	6	7

Konditsiyalangan xonalarning issiqlik balanslari yilning issiq va sovuq davrlari uchun tuziladi.

2.1. Xonada ajraladigan ortiqcha issiqliklar.

Zararli moddalar deganda odam organizmiga tushib unda zaharlanish yoki har xil kasalliklarga olib keladigai moddalar tushuniladi. Asosiy zararliklar: issiqlik, namlik, gaz va zararli moddalarni bug‘lari, chang. Xonaga kirayotgan issiqlik bu odamlardan va texnik jihozlardan ajraladigan issiqliklar odamlardan ajraladigan issiqlik miqdori ularni harakatiga va xonaning haroratiga bog‘liq. Ularning sonini belgilangan adabiyotlardagi jadvallardan olish mumkin.

Texnologik jihozlardan ajraladigan issiqlik miqdori jihozlarning turlariga, ularni tashqi yuzasining haroratiga va hokazolarga karab topiladi.

Namlik (suv bug‘lari) odamlardan va texnologik jarayonlardan ajraladi. Namlikning miqdorini issiqlik miqdoriga o‘xshash usuli bilan topiladi.

2.2. Xonalarda ajraladigan zararli moddalarning turi.

Gazlar va zararli moddalar bug‘lari texnologik jarayonda ajraladi va sanitar – gigiyenik me‘yorlarda ularning chegaraviy ruxsat etilgan konsentratsiyasi (PDK) belgilanadi.

Odam organizmiga ta’siri bo‘yicha ular to‘rtta guruhga bo‘linadi:

1. Bo‘g‘uvchi gazlar (uglerod oksidi, sinil kislotasi)
2. Noxush gazlar (xlor, oltin gugurt gazi va h.k.)
3. Giyoxvandlik (benzin, benzol, nitrobenzol)
4. Zaharlovchi (fosfor, simob va h.k.)

Kimyoviy ta’siri bo‘yicha gaz va zararli moddalar bug‘lari ikki turga bo‘linadi:

1. Odam organizmiga kimyoviy ta’sir ko‘rsatadigan moddalar
2. Kimyoviy ta’sir ko‘rsatmaydigan moddalar

Moddalarning zaharlilik darajasi (toksichnost) ularning kimyoviy strukturasi, fizik xususiyatlariga va agregat holatiga bog‘liqdir.

Changlar ikki turga bo‘linadn:

1. Zaharli (ko‘rg‘oshin, simob va boshqalar)
2. Zaharli bo‘lmagan (qum, asbest va boshqalar)

Zaharli bo‘lmagan changlar odam organizmiga uzoq vaqt ta’sir ko‘rsatsa u har xil o‘pka kasalliklarga olib keladi (silikoz, asbestioz va boshqalar).

Organik va organik bo‘lmagan, yonadigan moddalarni maydalash jarayonida hosil bo‘lgan changlar ko‘pincha portlashga xavfli bo‘ladi. Buning sababi chang holatida bu moddalarning yoqilg‘i yuzasi keskin ortib ketadi va yonish tezligi ko‘payib portlashga olib keladi. Bunday changlarga un, ko‘mir, tamaki, shakar changlari kiradi.

Portlashga xavfli darajasi changlarning o‘lchamlariga bog‘liq bo‘ladi. Masalan: 75 mkm o‘lchamli ko‘mir changini zarrachalari juda ham portlashga xavflidir. Shu changni o‘zi zarrachalari 10 mkm bo‘lganda portlash xavfi pasayadi, nega deganda oksidlanish tezligi ortib jarayoni to‘xtaydi.

Вентиляция ва ҳавони кондициялаш тизимлари

Yilning issiq va sovuq davrlari uchun havo almashinishi L , $m^3/soat$, kirayotgan va chiqayotgan havoning zichligi $1,2 \text{ kg/m}^3$ ga teng deb olinganda qo'yidagi formulalar bilan aniqlanadi:

a) oshkora issiqlik ortiqligi bo'yicha

$$L = L_u + \frac{3,6Q_0 - cL_u(t_u - t_0)}{c(t_x - t_0)}, m^3/soat \quad (2.1)$$

b) ajralib chiqayotgan zararli moddalarning massasi bo'yicha

$$L = L_u + \frac{m_3 L_u (K_u - K_0)}{K_x - K_0}, m^3/soat \quad (2.2)$$

v) namlikning ortiqligi bo'yicha

$$L = L_u + \frac{G - 1,2L_u(d_u - d_0)}{1,2(d_x - d_0)}, m^3/soat \quad (2.3)$$

d) to'liq issiqlikning ortiqligi bo'yicha

$$L = L_u + \frac{3,6Q_t - 1,2L_u(I_u - I_0)}{1,2(I_x - I_0)}, m^3/soat \quad (2.4)$$

2.3. Karrali usul bilan xavo almashivuni xisoblash.

d) me'yorlangan almashishning karraligi bo'yicha

$$L = V \cdot n, m^3/soat \quad (2.5)$$

e) oqib kelayotgan havoning me'yorlangan solishtirma sarfi bo'yicha

$$L = A \cdot k, m^3/soat \quad (2.6)$$

$$L = N \cdot m, m^3/soat \quad (2.7)$$

bu formulalarda:

L_u -xonaning xizmat ko'rsatiladigan yoki ishchi zonasidan mahalliy so'rma tizimlar orqali chiqarib yuboriladigan va texnologik ehtiyojlarga havoning sarfi, $m^3/soat$;

Q_o, Q_t -xonadagi ortiqcha oshkora va to'la issiqlik oqimi, Vt ;

$S=1,2 \text{ kJ}/(m^3 \cdot ^\circ S)$ ga teng havoning issiqlik sig'imi;

t_u -xonaning xizmat ko'rsatiladigan yoki ishchi zonasidan mahalliy so'rma tizimlar orqali chiqarib yuboriladigan va texnologik ehtiyojlar uchun havo harorati, $^\circ S$;

t_x -xizmat ko'rsatiladigan zonasidan tashqaridagi xonadan chiqarib yuboriladigan havoning harorati, $^{\circ}\text{S}$;

t_o -xonaga beriladigan havoning harorati, $^{\circ}\text{S}$;

G - xonadagi namlikning ortiqligi, g/soat;

d_u - xonaning xizmat ko'rsatiladigan yoki ishchi zonasidan mahalliy so'rma tizimlar orqali chiqarib yuboriladigan va texnologik ehtiyojlar uchun havoning tarkibiy namligi, g/kg

d_x -xizmat ko'rsatiladigan yoki ishchi zonasidan tashqaridagi xonaga chiqarib yuboriladigan havoning tarkibiy namligi, g/kg;

d_o -xonaga beriladigan havoning tarkibiy namligi, g/kg;

I_u -xonaning xizmat ko'rsatiladigan yoki ishchi zonasidan mahalliy so'rma tizimlar orqali chiqarib yuboriladigan va texnologik ehtiyojlar uchun havoning solishtirma entalpiyasi, kJ/kg;

I_x -xizmat ko'rsatiladigan yoki ishchi zonasidan tashqaridagi xonaga chiqarib yuboriladigan havoning solishtirma entalpiyasi, kJ/kg;

I_o -xonaga beriladigan havoning entalpiyasi, kJ/kg;

m_z -xona havosiga kiradigan zararli yoki havfli portlovchi moddalardan har birining sarfi, mg/soat;

K_u, K_o - xonaning xizmat ko'rsatiladigan yoki ishchi zonasidan mahalliy so'rma tizimlar orqali chiqarib yuboriladigan va uning tashqarisidagi havodagi zararli yoki xavfli portlovchi moddalarning konsentratsiyasi, mg/ m³

K_x -xonada beriladigan havodagi zararli yoki havfli portlovchi moddalarning konsentratsiyasi mg/ m³

V -xonaning ichki hajmi, m³

A -xonaning maydoni, m²

n - havo almashinuvini me'yorlanadigan karraligi, 1/soat;

k - xona polining me'yorlangan 1 m² ga oqimli havoni me'yorlanadigan sarfi, m³/soat m²;

m - 1 kishiga, 1 ishchi o'ringa, 1 qatnovchiga yoki jihozlar birligiga oqib keladigan havoning me'yorlanadigan sarfi, m³/soat;

Вентиляция ва ҳавони кондициялаш тизимлари

N - odamlar, ishchi o‘rinlari jihozlar, birligi

(2.1)-(2.4) formulalardan aniqlangan havo almashinuvni miqdorlaridan hisobiy deb eng katta miqdorli havo almashinuv qabul qilinadi.

Havo almashinishning karraligi jihozlar birligiga oqib keladigan, yoki so‘rib chiqadigan havoning me‘yorlangan sarfi binolarni va xonalarni turiga qarab aniqlanishi mumkin. Masalan, jamoat binolari tarkibiga kiruvchi yordamchi va sanitariya gigiyena vazifasini o‘tovchi yanada keng tarqalgan xonalarda havo almashitirishi karraligi 2.1-jadvalda keltirilgan.

2.1-jadval

Xonalar	Kamida 1 soatda havo almashtiri karraligi	
	Oqim	Tortish
Vestibyul	2	-
Kuluarlar, foye	Havo balansini saqlash sharti bilan	1,5
Kiyimxona	-	2
Bufet	Loyihalashtirishga berilgan topshiriqqa muvofiq hisob bo‘yicha, biroq xonaning havosini almashtirish uch martadan kam bo‘lmasligi kera	
Sanitariya tarmoqlari	-	1 unitazga 100 m ³ /soat va 1 pissuarga 50 m ³ /soat
Yuz yuvish xonalari	-	Sanitariya tarmoqlaridan havoning chiqarib yuborilishi
Dushxonalar	-	5
Dushxonalardagi yechinish joylari	Dushxonalardan tortish hajmida	-
Chekish joylari	-	10
Shaxsiy gigiyena xonalari	-	5
Vrachlar kabinetlari tibiiy	2	1,5

punktlari		
Saqlanadigan inventarlar, idora maydonchasi, asboblari	-	1
Xuddi shunday, xizmatchi xodimlarning uzoq muddatli bo'lishi	-	2
Isitish-ventilyatsiya qurilmalari xonasi	-	3
Sovitish stansiyasi	4	5
Nasos filtrlovchi qurilmalar xonasi	2	3
Ishqorli, akkumulyator va elektrolitni saqlash xonasi	2	3
Kislotalar, akkumulyatorlar xonasi	8	10
Axlat kameralari (isitilmaydigan)	-	1

Eslatma: 1. Teshiklar yoki tutash xonalardagi yopilmaydigan teshiklari bo'lgan boshqa vazifadagi xonalar bilan qo'shishda hisob haroratini yonma-yon xonalar bilan bir xil qilib qabul qilishga ruxsat etiladi. Havoni konditsiyalash yoki su'niy ravishda tortish ventilyatsiyasiga havo oqimini binodagi havo balansini ta'minlash shartidan kelib chiqqan holda hisob bo'yicha nazarda tutishga ruxsat etiladi.

Nazorat savollari:

1. Gazlar va zararli moddalar bug'lari qanday ajraladi.
2. Sanitariya gigiyenik me'yorlarida zararli moddalarning turi nimasi bilan belgilanadi.
3. Odam organizmiga ta'siri bo'yicha zararli moddalar necha guruxga bo'linadi.

Вентиляция ва ҳавони кондициялаш тизимлари

4. Zaxarli bo‘lmagan changlar inson organizmiga qanday ta’sir qiladi.
5. Sanitariya – gigiyenik talablarga nimalardan iborat?
6. Texnologik talablar nimalardan iborat?
7. Asosiy zararli moddalar nimalardan iborat?
8. Odam organizmiga ta’siri bo‘yicha zararli gazlarning turi?
9. Changlar turi?
10. Xonalarda havo almashinuvini tashkil etilishiga ko‘ra ventilyatsiya tizimlari qaysi turlarga bo‘linadi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Robert McDowall, Fundamentals of HVAC Systems America 2006
2. Energy management series 10 Heating ventilating and air conditioning Canada 2010
3. ASHRAL Handbook Fundamentals New York 2011

3-mavzu. Markaziy konditsionerlar: KTS-3 va KSKP. Ularning asosiy baza sxemalari, ishlovchi bloklari, konstruktiv tavsiflari va prinsipial sxemalari. Chiller va fankoyl tizimlarining tuzilishi va asosiy jixozlari. Sovutgichlar va issiqlik nasoslarining tuzilishi va ishlash prinsiplari.

Reja:

3.1. Markaziy konditsionerlar: KTS-3 va KSKP. Ularning asosiy baza sxemalari, ishlovchi bloklari, konstruktiv elementlari.

3.2. Chiller va fankoyl tizimlarining tuzilishi va asosiy jixozlari.

3.3. Sovutgichlar (sovitish mashinalari) va issiqlik nasoslarining tuzilishi va ishlash prinsiplari.

Tayanch iboralar: issiqlik massa almashuv bo'limi, purkash bo'limi, isitish bo'limi, chiller, fankoyl, kompressor, bo'g'latgich, bo'g' kompression, absorbsion, vintli kompressorlar, porshenli kompressorlar.

3.1. Markaziy konditsionerlar: KTS-3 va KSKP. Ularning asosiy baza sxemalari, ishlovchi bloklari, konstruktiv elementlari.

Havoni markaziy konditsiyalash uskunalari

Havoni markaziy konditsiyalash tizimlarida Havoni konditsiyalash tizimlari tashki havoga ishlov berilishi konditsiyalanuvchi xonalardan tashqarida joylashgan, bir biri bilan havo kanallari yordamida bog'langan, havoni konditsiyalash uskunnalarida amalga oshiriladi.

Tashqi harorat, namlik va ishlov berilayotgan havoning tozaligi, havoni konditsiyalash uskunalaridagi aloxida bo'limlarida ishlov berilishi natijasida KMK 2.04.05-97 talablariga monand qiymatlar bilan ta'minlanadi.

Havoni konditsiyalash uskunalaridagi, birlashtiruvchi havo kanallaridagi havoning harakatlanishi esa, ventilyator agregatlari yordamida havo harakatlantiriladi. 3.1, 3.2, 3.3 rasmlarda havoni markaziy konditsiyalash uskunasi 3 ta baza sxemasi va uning asosiy bo'limlari: ventilyator agregati (issiqlik va massa almashuv bo'limi BTMO-3, isitish bo'limi, purkash bo'limi OKF-3, OKS-3, filtr va sozlovchi havo klapanlari tavsifnomalari 3.1, 3.2, 3.3, 3.4 jadvallarida keltirilgan). Havoni markaziy konditsiyalash uskunalari, aloxida bo'limlardan tashkil topgan bo'lib, ular uz navbatida aniq bir texnologik jarayonni bajaradi. Bo'limlar uzaro bir biri bilan asosiy bo'limga xizmat qilish uchun muljallangan, germetik eshikli, xizmat qiluvchi bo'lim yordamida birlashtiriladi.


Вентиляция ва ҳавони кондициялаш тизимлари

Havoni markaziy konditsiyalash uskunasi Xarkovdagi mashinasozlik zavodida ishlab chiqariladi. Shartli ravishda quyidagicha belgilanadi: K-konditsioner, T – tipovoy, M –markaziy, uchinchi konstruksiyali modernizatsiyasi ya’ni KTM-3. Markaziy konditsionerlarni belgilanishi va ularni ishlab chiqarish unumdorligi quyida jadvalda keltirilgan:

3.1 jadval


Ish/chik. sh. Unumdorligi min. kub. m. soat	10	20	31,5	40	63	80	125	160	200	250
Ish/chik. sh. Unumdorligi min. kub. m. soat	12,5	25	40	50	80	100	160	200	250	315

3.2 jadval




3.1 Rasm. Birinchi baza sxemasi

3.3 jadval



3.2 Rasm. Ikkinchi baza sxemasi

3.4 jadval



3.3 Rasm. Uchinchi baza sxemasi

Markaziy konditsiyalash qurilmalarida havoga ishlov beruvchi purkash bo'limi, prinsipial sxemalari va texnik tavsiflari


Purkash bo'limlari OKF-3 va OKS-3 havo markaziy konditsiyalash uskunalarida havoga adiabatik va politropik jarayonlarda ishlov beruvchi asosiy bo'limlardir. Purkash bo'limida suvni mayda zarrachalarga parchanalishi okibatida, suv bilan havo orasida juda katta mulokatdagi yuza vujudga keladi. KTM-3 konditsionerlarida havo oqimi gorizontol harakatlanuvchi 2 qatorli purkash bo'limlari ishlatiladi. Purkash bo'limiga kirishda havo oqimini me'yorlanishini ta'minlash uchun u yo'naltiruvchi plastinalar bilan jixozlangan. Bo'limdan chikishda esa havo oqimini yo'nalishini bir necha marta uzgartiradigan egilgan plastinalar, ya'ni tomchi ushlagichlar urnatilgan. Natijada havo oqimini muvozanatlovchi suv tomchilari plastinalar yuzasida ushlanib, taglikka okib tushadi.

Suv tomchilarini ushlab qoluvchi, egilgan plastinalarda havoning harakat kilish tezligi, purkash bo'limining ko'ndalang kesim yuzasida 3 m/s dan oshmasligi kerak. Shuning uchun havoni harakatlanish tezligini kiymati 2,6-2,8 m/s bo'lishi, uning maksimal ishlab chiqarish unumdorligini ta'minlaydi.

Tajribalar natijasidan ma'lum bo'ldiki, purkagichlarni 2 qator joylashishi: ya'ni birinchi qatori havo oqimi buyicha, ikkinchi qatori esa havo oqimiga qarama-qarshi yo'naltirilgan xolda samaradorlik koeffitsiyenti yuqori bo'ladi.

Purkash bo'limidagi issiqlik va massa almashish jarayonining samaradorligi yuqori bo'lishida purkalanayotgan suv tomchilarining diametri hamda sovitish va quritish jarayonlari juda katta ahamiyatga ega. Havoni sovitish jarayoni, ma'lum bir qat bajarililganda, ya'ni agarda tomchi yuzasidagi harorat, shudring tushish haroratidan past bo'lganda sodir bo'ladi. Lekin odagda bo'limda yirik tomchilar bilan birgalikda mayda suv tomchilari bulib* ular tezda buglanib, harorati shabnam tushish haroratiga tenglashishi natijasida havoni kurish jarayonining samaradorligi kamayadi. Shuning uchun havoni sovitish va quritish jarayonlarida yirik tomchili purkagkchlar ishlatilishi maqsadga muvofikdir. KTM-3 konditsionerdagi OKF-3 purkash bo'limida,

purkash doirasi keng bo'lgan, diametri 10 mm, 150-250 kPa bosimda ishlovchi EShF-7/10 purkagichlar ishlatiladi. (3.4 -rasm)



3.4 Rasm. Purkash bo'limi OKF-3.

1-bak, 2-karkas, 3- havo taqsimlagich, 4-ship, 5-kollektor, 6-eshikcha, 7-tomchi ushlagich, 8-qobiq, 9-yoritgich, 10-mufta, 11-rezina qopqoq

Purkash bo'limining texnik tavsifi 3.5 jadvalda keltirilgan. Purkash bo'limining aerodinamik qarshiyai nominal ishlab chiqarish unumdorligida-120 Pa (12 kgs/m²), maksimal unumdorligida - 190 Pa (19 kgs/m²).


Purkash bo‘limi OKF-3 ning texnik tavsifnomasi

3.5 Jadval

indeks	konditsioner	Tayanchlar soni			Purkagichlar soni, dona				Massa kg
		3	4	5	6	7	8	9	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
		Havo yo‘nalishi bo‘yicha, 1-chi qatorda	Ikkinchi qatorda havo yo‘nalishi bo‘yicha, dona	jami	Bitta toyangda	Umuman 1-chi qatorda havo yo‘nalishi bo‘yicha	Ikkinchi qatorda havo yo‘nalishi bo‘yicha dona	Jami	
01.0130 4	KTM-10	2 2	1 2	3 4	6 6	12 12	16 12	18 24	406
02.0130 4	KTMZ-20	4 4	3 4	7 8	6 6	24 24	18 24	42 48	647
03.0130 4	KTMZ-31,5	4 4	3 4	7 8	9 9	36 36	27 36	63 72	1083
04.0130 4	KTMZ-40	4 4	3 4	7 8	12 12	48 48	36 48	84 96	1244
06.0130 4	KTMZ-63	9 9	7 9	16 18	9 9	81 81	63 81	144 162	1911
08.0130 4	KTMZ-80	9 9	7 9	16 18	12 12	108 108	84 108	192 216	2055
12.0130 4	KTMZ-125	18 18	14 18	32 36	9 9	162 162	126 162	288 324	3173
16.0130 4	KTMZ-160	18 18	14 18	32 36	12 12	216 218	168 216	384 432	3655
20.0130 4	KTMZ-200	26 26	20 26	46 52	9 9	234 234	180 234	414 468	4561
25.0130 4	KTMZ-250	26 26	20 26	46 52	12 12	312 312	240 312	552 624	5250

Markaziy konditsiyalash qurilmalarida havoga ishlov beruvchi setkali purkash bo'limi OKS1-3

Setkali purkash bo'limi OKS1-3 markaziy konditsioner tarkibidagi havoga adiabatik va politropik jarayonlarini amalga oshirish uchun ishlatiladi. Konstruktiv sxemasi 3.5-rasmda keltirilgan



3.5-rasm. Setkali purkash bo'limi OKS1-3

1- бак; 2-каркас; 3-олди девор; 4-то'р жихоз; 5- коллектор; 6-шип; 7-эшикча; 8-ушлагич; 9-14- девор; 10-Муфтаушлагич; 9-14-девор; 10-Муфта; 11-филтр; 12-ортиқча сувни оқизиш; 13-сув иситгич; 14-оқизиш тугуни; 15-йоритгич; 16-резинали пробка.

Kollektor gorizontol xolatda purkash bo'limining yuqorisida joylashgan. Setkalardagi tomchilarning parchalanishi xisobiga issiqlik almashish yuzasi vujudga keladi.

Setkali purkash bo'limidagi purkagichlar diametri 14 mm ga teng bo'lib, purkagichlar aslo kir bilan bekilib kolmaydigan xususiyatlarga ega (3.5-rasm.).

Setkali purkash bo'limining nominal havo unumdorligidagi aerodinamik qarshiligi 105 kPa (10,5 kgs/m²), maksimalda esa 164 Pa (16,4 kgs/m²).

Issiqlik va massa almashuv qiymati bo'limi (BTMO-3)

Вентиляция ва хавони кондициялаш тизимлари

Konditsiyalanuvchi xavoni isitish, sovitish va quritish jarayonlari sodir bo'lishi uchun xavoni markaziy konditsiyalash uskunlarida issiqlik almashgich kuvurlar ishlatiladi. Havo utadigan tarafdin issiqlik almashashishini jadallashtirish maqsadida qobirg'ali kuvurlar kullaniladi. Qobirg'ali balandligi kuvurlarning diametriga boglik bo'lib, issiqlik almashgichlarning belgilanishiga boglik bo'ladi.

Xavoni markaziy konditsiyalash uskunalaridagi issiqlik almashgichlar bo'limidagi quvurlar esa metall dan yasaladi.


Issiqlik almashuvchi kuvurlar balandligi bo'yicha to'rt ulchamli 1,0 m, 1,25 m, 1,5 m, 2,0 m bo'ladi.

3,6 chizmada sirtli isitish bo'limining konstruktiv elementlari va 3.6. jadvalda ularning texnik tavsiflari keltirilgan.

Xavoni markaziy konditsiyalash uskunlarida xavoni quritish bilan bir vaqtning o'zida uzgarmas tarkibiy namlikda sovitish jarayoni sodir bo'lishi uchun issiqlik almashishi kuvurlari ishlatiladi. Kuvurlarda sovuq suv harakat qiladi. Sovitish bo'limining konstruksiyasi yuqorida keltirgan isitish bo'limining konstruksiyasidagidek. KTM-3 turidagi xavo markaziy konditsiyalash uskunalarining sovitish bo'limida issiqlik va massa almashuv bo'limi BTMO-3 ishlatiladi. BTMO-3 ning konstruktiv sxemasi 3,6. chizmada keltirilgan.

Issiqlik va massa almashuv (BTMO-3) bo'limi sovitish bo'limi sifatida ishlatilganda, sovuqlik yurituvchi sifatida sovuq suv ishlatilib, uning bosimi 1,2 MPa (12 kgs/sm^2) dan oshmasligi kerak.

Issiqlik va massa almashuv (BTMO-3) bo'limining aerodinamik karishligi eng kam unumdorligida 180 Pa (18 kgs/sm^2), maksimal unumdorligida esa – 280 Pa (28 kgs/m^2) ga teng.



3.6 -расм. Иссиқлик ва масса алмаштин булимия БТМО-3;
 1-бак, 2- олдинги бет, 3- орка бет, 4- шип, 5- иссиқлик алмашичлар, 6- томчиушлагич, 7- эшикча, 8- еритгич, 9- кувурлар, 10- насос, 11- туркани тизими, 12- муфта.

Havo oqimini tozalovchi, sozlovchi va uni harakatga keltiruvchi uskunalar

Havodagi changni tozalash uchun havoni konditsiyalash uskunalarda filtr oʻrnatish koʻzda tutilgan. Uning konstruktiv yechimlari changning xarakteriga va havoning talab kilingan tozaligiga karab aniqlanadi.

Filtrlar filtrlovchi mato FRNK-PT yoki IFP-1 bilan taʼminlanadi Filtrdagi filtrlovchi mato 6 marta filtrning koʻndalang kesimiga nisbatan ortiq. FRNK-PG matoning havoni tozalash samaradorligi 88% dan kam emas, IFP- 1_mato niki esa 90% dan kuprok.

Filtrning boshlangʻich aerodinamik qarshiligi 55 Pa dan oshmaydi Filtrning aerodinamik qarshiligini oʻlchash uchun manovakuumetrdan foydalaniladi.


Havoni konditsiyalash uskunalardagi ventilyatorning ishlashida, filtrlovchi mato orkali havo utib, havodagi chang zarrachalari esa, matoning tolalarida ushlanib koladi.

Matoda changni yigilishi natijasida filtrning aerodinamik qarshiligi ortib boradi.


Filtrlovchi matoni changlanish darajasini filtr kobigining oldi tarafida oʻrnatilgan manovakuumetring koʻrsatkichi boʻyicha aniqlanadi. Filtrning aerodinamik qarshiligi 200 Pa dan yuqori darajaga yetganda, havoni konditsiyalash

Вентиляция ва хавони кондициялаш тизимлари

uskunasining ventilyator agregati to'xtatilib, elektr manbai o'chiriladi, changlangan matoni galkadagi rulonga o'raydi. Maxsus uskunada changlangan mato changdan tozalanadi (regeneratsiyalanadi) va yana ishlatiladi. Regeneratsiyani 4-5 martagacha qaytarish mumkin. Filtrning asosiy konstruktiv elementlari 3.7 chizmada keltirilgan.



KT43-200; KT43-250



3.7-rasm


Xizmat kilish bo‘limi

Xizmat kilish bo‘limi havo oqimini meyorlashga va konditsionerning asosiy bo‘limiga xizmat kilishga mo‘ljallangan.

Xizmat kilish bo‘limida germetik eshikcha bulib, ichiga 10-12 voltli yoritgich o‘rnatiladi.

Ventilyator agregati

Ventilyator agregatlari havoni konditsiyalash uskunasidagi havoni harakatlanishiga va tizimdagi elementlarni birlashtirishga xizmat qiladi KTM-3 turidagi xamma markaziy konditsionerlarda radial ventilyator agregatlari ishlatiladi. Ventilyator agregatlarning konstruktiv sxemalari va ularning ulchamlari 3.8 chizmada ketirilgan.



3.8 Rasm. Ventilyator agregatlarini (11,2; 16; №16,2 birlashtirish o‘lchamlari)

Вентиляция ва ҳавони кондициялаш тизимлари

Spiral qobiq ichidagi ishlovchi gildirakda parraklar oʻrnatilgan. Soʻrgich tarafida sozlovchi apparat oʻrnatilgan boʻlib, ventilyatorning unumdorligi va bosimini sozlaydi. Soʻrish jarayoni sozlovchi apparat parraklarini aylanishi natijasida ventilyatorning kirish qismidagi qirqimini oʻzgarishi natijasida sodir boʻladi. Ishlovchi gildiraklar elektrodvigatel bilan birgalinda qurilmaga maxkamlanadi.

Ventilyator agregatini prujinali vibroizolyator bilan birgalikda, qurilish fundamentiga mustaxkamlanadi.

Konditsionerning elementlari ventilyator agregata bilan qayishqoq birlashtirgich va birlashtiruvchi blok yordamida ulanadi.

Ventilyatorda sodir boʻladigan toʻliq bosim, ishlovchi gildirak aylanish chastotasi bilan proporsional ravishda oʻzgaradi. Bosim koʻpayishi bilan shovkin quvvati ham koʻpayadi.

Havo, oqimi orqali uzatiladigan shovkinni havo kanallarida oʻrnatiladigan shovkin soʻndirgich yordamida pasaytiriladi.

Qabul kilish boʻlimlari (BPP-3, BPE-3)

Qabul kilish boʻlimlari ikki xil turda boʻladi: bir oqimli va aralashtiruvchan. Havo klapanlarini manbaga ulanishi buyicha esa:

Bir oqimli, elektroprivodli BPE-3

Bir oqimli pnevmoprivodli BPP-3

Aralashtiruvchan elektroprivodli BSE-3

Aralashtiruvchi pnevmoprivodli BSP-3

Bir oqimli soʻrish boʻlimlari konditsionerga kelayetgan tashqi havoni toʻliq koʻndalang kesimi boʻyicha qabul kilish,sozlash, aralashtirish va taqsimlash uchun xizmag qiladi. Soʻrish va aralashtirish boʻlimlarida esa konditsionerga kelayotgan tashqi havoni, tizimdan kelayetgan resirkulyatsion havo bilan aralashtirish, sozlash, taksimlash uchun muljallangan.

KSKP tur (M karkas panelli konditsionerlar)

1. Karkas – panelli KSKP turdagi (oqimli kameralar) markaziy konditsionerlar

Karkas – panelli KSKP turdagi (oqimli kameralar) markaziy konditsionerlar
Tu – 4862 – 011 – 40149 ROSS RU.AYa04.VO7508 karkas – panelli
(oqimli kameralar) larning gigiyenik sertifikatini



3.9-rasm

Konditsionerlar sanoat korxonalarini, jamoat va ma'muriy binolarni havosini konditsiyalash, ventilyatsiyasi va havo bilan isitish tizimlarida ishlatish uchun belgilangan.

KSKP turidagi konditsionerlarda tashqi havoga barcha turdagi jarayonlarni filtrlar, isitish, sovutish, quritish, namlash, issiq va sovuqni rekuperatsiya va regeneratsiya qilish, shovqindan himoyalash, dezinfektsiyalash (havoni zararsizlantirish) va xizmat qiluvchi xonalarda berilgan parametrlil sun'iy iqlimni ta'minlaydi.

Konditsionerlar avtomatika va sozlash jihozlari bilan iste'molchiga yetkazib beriladi. Havoga ishlov berishning qabul qilingan texnologik jarayoni unga mos avtomatika bilan uyg'unlashib, parametrlarni aniq sozlanishini ta'minlaydi, konditsionerlarni ishlatish diapazonini kengaytiradi va har bir konkret variantlarda optimal energetik va iqtisodiy mablag'larni optimal ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

Konditsionerni tanlash uchun maxsus kompyuter programmasi "KSKP" ishlab chiqilgan funksional bloklarni ichki hajmini germetikli issiqlik va

Вентиляция ва ҳавони кондициялаш тизимлари

shovqindan izolyatsiyasi konditsionerni aynan sanoat korxonasida oʻrnatishga imkoniyat yaratadi.

Konditsionerlarni ishlab chiqariladigan nomenklaturasi quyida sxemada koʻrsatilgan.


Oʻlcham qatorlari

KSKP turidagi konditsionerlar

Nominal havo unumdorligi 200 dan – to 100000 m³

Konditsionerning qatorlar oʻlchami dunyo amaliyotiga mos keladigan etib tanlangan boʻlib, uning asosi etib turli moduldagi 610 – 610 mm havo filtrlarining uygʻunlashuvida uning yarmi (305 x 610) va choragiga (305 x 305) ularning bazasida (asosida) konditsioner bloklarining frontal oʻlchamlari belgilanadi.

Umumiy KSKP turidagi va metropolitenlar uchun ishlab chiqariladigan konditsionerlar.



3.10-rasm


Metropolitan va umumsanoatda ishlatiladigan markaziy karkas panelli konditsionerlar

Кондиционернинг индекси	КЦКП-1.6	КЦКП-3.15	КЦКП-5	КЦКП-6.3	КЦКП-8	КЦКП-10	КЦКП-12.5	КЦКП-16	КЦКП-20	КЦКП-25	КЦКП-31.5	КЦКП-40	КЦКП-50	КЦКП-63	КЦКП-80	КЦКП-100
Ҳаво унумдорлиги	1600	3150	5000	6300	8000	10000	12500	16000	20000	25000	31500	40000	50000	63000	80000	100000

Марказий Каркас панелли кондиционер 1.6



3.11-rasm



3.12-rasm

Tashqarida gigiyena uchun ishlab chiqariladigan konditsionerlarning havo unumdorligining chegara doirasi.

Энергия тежамкор вентиляция ва хавони кондициялаш тизимлари

Гигиеник ва ташқарида ўрнатиладиган кондиционерлар

Қаторларнинг ўлчам турлари	№ 1.6	№ 3.15	№ 5	№ 6.3	№ 8	№ 10	№ 12.5	№ 16	№ 20	№ 25	№ 31.5	№ 45	№ 50	№ 63	№ 80	№ 100
Номиналь ҳаво унумдорлиги	1600	3150	5000	6300	8000	10000	12500	16000	20000	25000	31500	45000	50000	63000	80000	100000

Бошланғич модуллари	
orqali havo tarqatuvchi panjaralar yordamida honalarga uzatiladi. Shuni takidlash lozimki interyer dizayni o'zgarmaydi chunki barcha uskunalar o'sma shift tagida joylashgan. Hona interyerida faqatgina havoni uzatish uchun chiroyli dekorativ panjaralar qoladi. Tashqi va ichki bloklar o'zoro izolatsiyalangan freon mis quvurchalar bilan birlashtiriladi oqimli ventilyatsili split tizimlar elektron boshqaruv tizimi bilan jixozlangan bo'lib yilning xoxlagan mavsumida mikroiklimning zaruriy paramerlarini ta'minlaydi. Yoz mavsumida havo kanallari sovutiladi va honadagi belgilangan xarorat ta'minlanadi. Kuz va qish mavsumlarida kondinsioner issiqlik nasosi rejimiga o'tadi va havo kanallarini kolorifersiz isitadi

Agarda havo xarorati 0 S dan pastga tushsa qo'shimcha kolorifer yoqiladi. Koloriferni elektron boshqaruv moduli tashqi havoning tempraturasiga bog'liq bo'lgan xolda uning quvvatini bir meyorga sozlashi mumkun va elektr energiyasini minemal istemolini ta'minlaydi. Magazin xonalaridagi xavo balansini yaratish uchun so'rib oluvchi ventilyatsiyani qo'llash ko'zda tutigan.

Chiller va fankoillar bazasida gurux ofis xonalarida X.K tizimlarini ishlab chiqish.

Ofis xonalari (7 xona) umumiy yuzasi 120 m² xona balandligi h=3 m. Faqat koridorda osma shift "Armstrong" xonalarni tabiiy ventilyatsiya qilish imkoniyati mavjud.(Deraza va eshiklarni ochish va yopish mumkun.)

Binoning fasadi markaziy ko'chaga qaragan bo'lib, xech qanday tashqi bloklarni o'rnatish mumkun emas.

Ofislardagi komfort sharoitni yaratish uchun eng optimal variantlardan biri "Chiller va fankoilli" X.K tizimlari. Chiller sovutish mashinasi bino tomida o'rnatiladi. Fankoillar xar bir xonaning shift ostiga o'rnatiladi.

DELONGHI firmasining fankoillari chiroyli dizayn va eng ilg'or texnologiyaga javob beruvchi yuqori sifatda yasaladi.

Tizimni issiq suv (45-40 °S) bilan nafaqat yoz mavsumida , yilning o'tish davrida , xali isitish tizimi ishga tushmagan o'zimiz chillerni WRAN rusumli CLIVET firmasining chillerini issiqlik nasosi bilan jixozlaymiz.

Bunday ishlash rejimi " issiq-sovuq" riversiv sovutish konturi (issiqlik nasosi) ishlatilishi xisobiga yuqori energetik samaradorlikka erishish mumkun chillerning tashqi qobig'i "Peraluman" forishmasidan yasalgan bo'lib bino tashqarisida o'rnatilishi mumkun.

WRAN bloki sinash sozlash va bvrcha funksiyalarini optimizatsiya qiladigan boshqaruv tizimli mikroprotssessor bilan jixozlangan , mikroprotssessorga ulangan. Distansion boshqaruv pulti yordamida barcha sozlash va chillerni masofadan boshqarishni nazorat qilish mumkun.

Ichki bloklar (fankoyillar) va tashqi blok (chiller) o‘zoro suv gaz o‘tqazuvchi po‘lat quvurlar bilan birlashtirilgan bo‘ladi. Yoz mavsuida parametrlari $t_1=7^{\circ}\text{S}$ $t_2=12^{\circ}\text{S}$ ga teng quvurlarda sovuqlik tashuvchi sirkulatsiya qilganda quvur devorlarida shudring tushishini bartaraf etish maqsadida quvurlarni albatta izolatsiya qilish tavsiya etiladi. Fankoyldan chiqayotgan kondensatni yig‘ish uchun xar bir fankoyil taglik bilan jixozlangan bo‘lib drenaj quvurga ulanadi. Barcha drenaj quvurlar umumiy kollektorga birlashtirilib kanalizatsiya tarmog‘iga ulanadi. Barcha komunikatsiyalar koridor bo‘ylab osma shift zonasida o‘tkaziladi.

Drenaj quvurlarni yotqizish uchun 1m uzunlikdagi quvurga 10mm nishablikni ta‘minlash lozim . Sovuqlik tashuvchini sirkulyatsiyasini ta‘minlash uchun tizimda nasos stansiyasini avtomatik sozlash tizimi va barcha texnologik ulanishlar ko‘zda tutilgan. Elektrik va gidravlik tizimlarga ulangandan so‘ng ular ishlashga tayyor buladi.Xavoni kondensiyalash tizimlaridagi uskunalarni o‘lchamlarini aniqlash uchun o‘ziga xos hisoblash ishlarini bajarish lozim.

Issiqlik almashgichlarni xisoblash va uskunalar tanlash

Fankoillarning issiqlik yuklamasini xisoblash xonadagi odamlar , texnika soni va boshqa issiqlik ajralib chiqadigan uskunalar to‘g‘risida ma‘lumotga ega bo‘lish kerak. Xar bir xona uchun umumiy issiqlik ajralishi aniqlanadi va DEILONGHI firmasining katalogidan , sovuqlik ishlab chiqarish unumdorligi bo‘yicha fankoil modeli aniqlanadi. Xisoblash natijalari va fankoillarni tanlash IX.22 jadvalda ko‘rsatilgan.

IX.22 jadval

Исходные данные				Расчетные данные	
№ пом.	Объем помещ. V, м ³	Колич. людей в помещ., чел.	Колич. орг-техники, шт.	Общее колич. теплоизб., кВт	Модель выбранного оборудования и его характеристики
1	35	1	1	1,45	FC 20 Холод-1,5 кВт Тепло-1,81 кВт
2	88	3	2	3,53	FC 50 Холод-3,64 кВт Тепло-4,27 кВт
3	88	3	2	3,53	FC 50 Холод-3,64 кВт Тепло-4,27 кВт
4	92	3	2	3,65	FC 50 Холод-3,64 кВт Тепло-4,27 кВт
5	71	3	2	3,12	FC 50 Холод-3,64 кВт Тепло-4,27 кВт

Barcha fankoyllarning umumiy sovuqlik unumdorligidan (19.6 kvt) kelib chiqib CLIVET firmasining katalogidan chiller tanlanadi-WRAN (sovuqlik-20.6 kvt , issiqlik -23.1 kvt). Chillerni issiqlik nasosi bilan tanlash, havoni konditsiyalash tizimini yilning o'tish davrida , isitish tizimi ishlamaganda , xonalarni isitish imkonini yaratadi.

Umumiy issiqlik ajralishini xisoblash natijasida quyidagilar aniqlanadi: tizimning umumiy issiqlsmk yuklamasi $Q=19.6$ kvt,

Issiqlik –sovuqlik tashuvchi parametrlari 7-12 °S li suv gaz o'tkazuvchi po'lat o'uvurlar.

Chiller WRAN 91 (sovuqlik unumdorligi) 7-12 °Sli suv –gaz o'tkazuvchi po'lat quvurlar.

Tizimning gidravlik xisobi.


Вентиляция ва ҳавони кондициялаш тизимлари

Gidravlik xisobni bajarishdan maqsad tizimning xar bir uchaskasidagi quvurlarning diametri aniqlash, suv tizimini barqaror ishlashini ta'minlash uchun nasos stansiyasini tanlash. Agarda chiller nasos stansiyasi bilan jixozlangan bo'lsa (gidravlik kontur bilan), tizimni bir meyorda ishlashini ta'minlash uchun bosim yetarli bo'lishini aniqlash lozim. Agarda chiller nasos stansiyasi bilan jixozlanmagan bo'lsa (gidravlik kontursiz) gidravlik xisoblashning ma'lumotiga asosan nasos stansiyasini tanlash lozim.

Xonalarni rejasiga asosan tizimning aksonometrik sxemasi (chiller-fankoyil) chiziladi, uchaskalar tartib raqami uzunligi aniqlanadi. (Rasm 9.23)

Bosim yoqolishini xisobi eng uzoq joylashgan fankoyil uchun bajariladi. Bizni varyantimizda fankoyil FC-30. Bosim yo'qolishi uzunlik bo'yicha va maxalliy qarshiliklarda bosim yo'qolishidan tashkil topadi.

Uzunlik bo'yicha bosim yo'qolishi suv ta'minoti quvurlarini xisoblashdagi jadvallardan foydalaniladi. Maxalliy qarshiliklarda bosim yo'qolishi uzunlik bo'yicha bosim yo'qolishining 30 % iga teng bo'lishi muimkun. Gidravlik hisobning usulini quyidagi misolda ko'rishimiz mumkun: uchastka1 (IX.23.Rasm).



1-Uchastka-bu chiller va suv yoʻnalishi boʻyicha birinchi fankoyl orasidagi masofa. Uning yuklamasi –tizimning umumiy $Q_1=19.7$ kvt yoki $Q_2=19.7:1.16 \times 1000=16982$ kkal/s

Fankoyilga kiradigan va undan chiqadigan suvning xaroratlar farqi , katalogdagi maʼlumotlarga asosan $dt = 5$ °S (katalogdan). Shunday qilib №1 uchaskadagi suvning sarfini aniqlaymiz.

$$G_1=Q_2/cdt,$$

Bu yerda Q_2 -issiqlik yuklama , kkal/s

S-suvning issiqlik sigʻimi 1 kkal/kg °S

$$G_1=16896/1 \times 5=3379 \text{ kg/soat } (0.9391/\text{s})$$

Suv taʼminoti tizimlari jadvali xisobidan (spravochnik proyektirovshchika) quvur diametrini $d=32$ mm , suvning tezligi 1m/s dan oshmasligini inobatga olgan shart boʻyicha.

Uzunligi boʻyicha solishtirma bosim yoʻqolishi $R=77$ mm.suv.ust/m

A) R va uchastka uzunligini bilib, uchastkaning qarshiligini R_1 aniqlash mumkun.


$$R_1=385 \text{ mm.suv.ust}$$

B) Undan keyin barcha uchastkalar uchun xisobni bajaramiz. Xisoblash natijalarini IX.24 jadvalga kiritamiz.

№ участка	Q1, кВт	Q2, ккал/ч	G1, кг/ч	G2, л/с	Ø, мм	R, мм в. ст.	l, м	R × l, мм в. ст.
1	2	3	4	5	6	7	8	9
1	19,6	16897	3379	0,94	32	77	5	385
2	18,09	15595	3119	0,87	32	73	3	219
3	14,45	12457	2491	0,69	32	47,5	6	285
4	10,81	93119	1864	0,52	32	29	7	203
5	7,17	6181	1236	0,34	25	56	5	280
6	3,53	3043	609	0,17	20	65	7	455
7	2,02	1741	348	0,1	15	100	4	400
Последний фанкойл								900
8	2,02	1741	348	0,1	15	100	4	400
9	3,53	3043	609	0,17	20	65	7	455
10	7,17	6181	1236	0,34	25	56	5	280
11	10,81	9319	1864	0,52	32	29	7	203
12	14,45	12457	2491	0,69	32	47,5	6	285
13	18,09	15595	3119	0,87	32	73	3	219
14	19,6	16897	3379	0,94	32	77	5	385
Чиллер WRAN								2800
Σ, мм в. ст.								8154

V) Fankoylning gidravlik qarshiligi 900 mm.suv.ust katalogdagi maʼlumotga asosan.

Suvning sarfini aniqlab va tanlangan chillerning markasiga qarab , chillerdagi issiqlik almashgichning qarshiligini diagramma yordamida topamiz (IX.25.Rasm)



Ko‘rilgan misolda issiqlik almashgichning qarshiligi 28 kpa yoki 2800mm.suv.ust


G) Barcha uchastkalardagi qarshiliklarni qo‘shib tizimdan yoqolgan umumiy bosimni aniqlaymiz. Yana 30% maxalliy qarshiliklardagi zaxiraga 30% va nasos stansiyasi vujudga keltiradigan zaruriy bosimni topamiz.

$dP_n > 106 \text{ kpa}$

$dP = R_1 + 30\% (R_1) = 8454 + 0.3 \times 8154 = 10600 \text{ mm.suv.ust} = 106 \text{ kpa}$

SLIVET firmasining katalogidagi diagrammadan (IX.26.Rasm) nasos stansiyasining markasini №, tarmoqda 135 kpa bosimni ta’minlaydi ya’ni 106 kpa dan katta qo‘rilgan loyixada ishlatilgan uskunalar ro‘yxati IX.27 jadvalda keltirilgan.

IX.26.Rasm



jadval 9.27

№ пп	Модель	Наименование оборудования	Кол-во
1	WRAN 91	Чиллер холод — 20,6 кВт тепло — 23,1 кВт	1 шт.
2	GRA-M2-1-150	Насосная станция	1 шт.
3	FC 20	Фанкойл холод — 1,51 кВт тепло — 1,6 кВт	2 шт.
4	FC 50	Фанкойл холод — 3,6 кВт тепло — 3,2 кВт	4 шт.
5	FC 30	Фанкойл холод — 2,02 кВт тепло — 2,0 кВт	1 шт.
6		Трубы стальные водогазопроводные Ø15	8 м
7		Трубы стальные водогазопроводные Ø20	28 м
8		Трубы стальные водогазопроводные Ø25	44 м
9		Трубы стальные водогазопроводные Ø32	28 м
10		Вентиль на ответвлениях Ø20	14 шт.
11		Вентиль Ø32	2 шт.
12	ACF 023	Монтажное устройство	1 шт.
13	AC 09 × 22	Теплоизоляция для труб Armaflex	0,6 м³
14	AC 09 × 28	Теплоизоляция для труб Armaflex	2,4 м³
15	AC 09 × 35	Теплоизоляция для труб Armaflex	2,6 м³
16	AC 09 × 42*	Теплоизоляция для труб Armaflex	3,6 м³

Boshlang'ich ma'lumotlar.

2.Tashkent.

Jamoat binosining 3 qavati. (R.IX.28)


Xonalar soni – 10

Umumiy yuzasi – 203 m²

Xonalar balandligi – 3m

Osma shift balandligi-300mm (faqat koridor)

rasm 9.28



Xonalarda tabiiy ventilyatsiya tizimi yo‘q. Misolda bino uchun eng optimal fankoyllar bilan jixozlangan tizim. Misolda keltirilgan tizim qator afzalliklarga yega.

1. fankoyllar ishlatilganligi sababli xoxlagan xonalardagi xarorat istemolchining talabiga ko‘ra sozlanadi.

2. Xavo kanallarining minimal ko‘ndalang kesimga ega bo‘lishiga erishiladi , chunki kondensiyalash uchun xonalarga uzatiladigan havo sarfi (sovutish va isitish uchun) sanitariya-me‘yorlaridan kam , havoni markaziy kondensiyalash tizimlarda fankoyllar ishlatilmaganda.

3. Chillerni issiqlik nasosi bilan ishlatilganda yilning o‘tish davrida , isitish tizimi yoqilmaganda honalarni isitish yoki sovutish mumkun. Chillerni nasos stansiyasi bilan tanlash uchun CLIVET firmasining texnik jurnallaridan foydalanamiz.

Havoni kondensiyalash tizimi quyidagicha yechimga ega.

Ventkameraga markaziy konditsioner o‘rnatiladi. Konditsioner bir oqimli tizimda ishlaydi va havo sarfi QMQ 2040597 dagi sanitariya – meyorlariga mos tanlanadi.

Xozirgi zamonda bunday tizimlarni loyixalash kompyuter –dasturlash programmaları asosida bajarilishi , bajarilgan xisoblash ishlarini yuqori darajada aniq va tez bajarish imkonini beradi. Bu misolda markaziy konditsionerni tanlash VISCLIMA firmasining kataloglarida keltirilgan ma’lumotlar asosida bajarilgan.

Issiqlik va sovuqlik manbai sifatida yilning o‘tish va issiq davrlarida WRAN rusumli issiqlik nasosi , kondensatori havo bilan sovitiladigan chiller ishlatilgan.

Tizimdagi suvni sirkulyatsiyasini ta‘minlash uchun tizimga nasos stansiyasini o‘rnatish tavsiya etiladi.

Chiller va nasos stansiyasi hovlida maxsus fundamentlarda o'rnatiladi . havo-
 issiqlik balanslari xisobi IX.29 jadvalda keltirilgan.

Markaziy konditsioner bloklarini xisoblash va tanlash quyidagi ketma-ketlikda olib
 boriladi:

A) tashqi va ichki havo parametrlarini tanlash.

-xavoni konditsiyalash – 3 toifali


Tashqi havo parametrlari:

$t=37.7^{\circ}\text{S}$ $J=16.0 \text{ kkal/k}$

ichki havo parametrlari:

$t=22-24^{\circ}\text{S}$ $f = 40-60 \%$.

B) J-d diagrammada jarayon tuzish ketma-ketligi (R.IX.30)



Havoga ishlov berish jarayoni - to'g'ri oqimli bir kanalli tizim.

Qish mavsumi : filtrlash va isitish (1-2 jarayon)

$t_4=14.5^{\circ}\text{S}$ (N.4. J-d diagrammada) fankoilga keladi va xar bir honadagi resirkulyatsion havo bilan aralashadi. Sovugach , tashqi va resirkulyatsion havo fankoylga keladi va fankoyilda qo'shimcha sovutiladi so'ng honalarga uzatiladi.

V) Markaziy konditsionerning xisobiy unumdorligi bo'yicha 1320 m³/s (jadval IX.29) dan katalogdagi ma'lumotlarga asosan markaziy konditsionerning to'g'ri keladigan modeli tanlanadi.

Nazorat savollari:

1. Chiller nima?
2. Chillerning konstruktiv uskunalariga qaysi uskunalar kiradi, ularining texnik tafsiflari va konstruksiyalarini keltiring?
3. Sovuqlik tashuvchi sifatida nima ishlatiladi?
4. Fankoyl nima?
5. Fankoylning konstruktiv uskunalariga qaysi uskunalar kiradi, ularining texnik tafsiflari va konstruksiyalarini keltiring?
6. Fankoyllar qayerda o'rnatilishi mumkin?
7. Fankoyllar qanday boshqariladi?
8. Chiller qaysi mavsumda issiqlik nasosi vazifasini bajaradi?
9. Chillerdagi kondensatorlar nima bilan sovutiladi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sapali, S. N. "Lithium Bromide Absorption Refrigeration System".p.258.ISBN 978-81-203-3360-4.
2. Robert McDowall, Fundamentals of HVAC Systems America 2006
3. Energy management series 10 Heating ventilating and air conditioning Canada 2010

Kurs bo'yicha adabiyotlar ro'yxati

1. Быков А.В, Калинин И.М, Крузе А.С, Холодильные машины и тепловые насосы.
2. Малигина Е.В, Малигин Ю.В, Суедов В.П, Холодильные машины и установки. Пищевое промышленност. 1980-592 с.
3. Yusufbekov N.R, Zokirov S.G, "Kimyo va oziq-ovqat sanoatining asosiy jarayoni va qurilmalarini hisoblash va loyihalash" Nurmuxammedov X.S, taxriri ostida-Toshkent 231-b.
4. Соколов Р.С, Химическая технология –М Владос 2000-Т1-2.-814 с.
5. Кавецкий Г.Д, Васильев Б.В, Процессы и аппараты пищевой технологии –М. Колос 1999-551с.

IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-amaliy mashg'ulot: Ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlarini loyixalashda ichki va tashqi xavolarni parametrlarini tanlash.

Ishdan maqsad: Bajarilayotgan loyihada tashqi parametrlarni berilgan shahar uchun tug'ri aniqlash, ichki parametrlarini xonalarning belgilanishiga qarab KMK talablari darajasida qabul qilish va tizimning unumdorligini to'g'ri xisoblash.

Masalaning qo'yilishi: Tashqi havo - parametr A, parametr B, issiq;, sovuk, davr, xarorat, entalpiya, xarakat tezligi;

Ichki havo - optimal, chegaraviy, ruxsat etilgan parametrlar, sovu davr, issiq; davr, xarorat, nisbiy namlik, xarakat tezligi.

1. LOYIXALASH UCHUN BOSHLANGICH MA'LUMOTLAR

Toshkent shaxridagi jamoat binosini xavosini konditsiyalash uchuchn boshlangich ma'lumotlar kuyidagilar:

$$t= \text{ }^{\circ}\text{C}$$

$$J=kDj/kg$$

$$V= m/s$$

1.1 ICHKI VA TASHQI HAVONING BELGILANGAN HISOBIY

PARAMETRLARI

QMQ 2.04.05.94 ning 2.14 bobiga muvofiq konditsiyalash tizimining yozgi va qishki ish tartibini hisoblashda tashqi havoning harorati "B" parametrlardan olinadi.

Yoz va qishda ishlash uchun tashqi havoning hisobiy parametrlarini haqiqiy qiymatlari KMK 2.01.01.97 ning ilovasidan olinadi. (1)

Jamoat, ma'muriy-maishiy bino xonalariga xizmat ko'rsatishda va ishlab chiqarish korxonalarining GOST 12.1.005-76 bo'yicha ish zonalarida (meteorologik shart-sharoitlarning miqdorlari alohida hujjatlar bilan belgilangan xonalardan tashqari) mo'tadillashda xonalardagi meteorologik sharoitlarni ta'minlashda belgilangan miqdorlarning eng qulay chegaralarida (4.1 ilovada) ko'rsatilganidek bo'lmog'i lozim.


Turar joy, jamoat va ma'muriy-maishiy xonalarning xizmat ko'rsatish xonalarida havoning eng qulay belgilangan haroratlari nisbiy namlik va harakat tezliklari 1-jadvalda berilgan.

Energiya iste'molini pasaytirish maqsadida issiq davrda "φ" ning eng katta qiymatini, sovuq davrda esa eng kichigini qabul qilishga rioya qilinadi.

Yilning mavsumi	Harorati, °S	Nisbiy namlik, % hisobida	Havo harakatining tezligi, v, m/sek
Issiq	20-22	60-30	0,2
	23-25	60-30	0,3
Sovuq va o'tish davri	20-22	45-30	0,2

1 gurux, uchun topshirik "Balik skeleta" sxemasi

2-ilova



Ventilatsiya va havoni koditsiyalash tizimlarini loixalashda havoni xisobiy parametrini tanlash

2 guruh uchun topshirik

Ventilatsiya va havoni koditsiyalash tizimlarini loixalashda havoni xisobiy parametrini tanlashni asosiy tushunchasini taxlil kiling. Mavzuga oid blits savolnoma o‘tkazing.

Blits savolnoma- o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha olingan bilimlarni umumlashtirish, mushoxada qilish maqsadida o‘quv mashg‘ulotida oxirida 5 daqiqa oralig‘ida olib boriladi.

O‘qituvchi taklif etadi:

1. Nima uchun Ventilatsiya va havoni koditsiyalash tizimlarini loixalashda havoni xisobiy parametrini tanlash kerak.
2. Nima uchun Ventilatsiya va havoni koditsiyalash tizimlarini loixalashda havoni xisobiy ichki parametrini tanlash kerak.
3. Nima uchun Ventilatsiya va havoni koditsiyalash tizimlarini loixalashda havoni xisobiy tashqi parametrini tanlash kerak.

QMQ 2.04.05.94 ning 2.14 bobiga muvofiq to‘liq mo‘‘tadillash tizimining yozgi va qishki ish tartibini hisoblashda tashqi havoning harorati “B” parametrlardan olinadi.

3-sinf mo‘‘tadillash qurilmasining loyahasini ishlashda qishda ishlash tartibi uchun tashqi havoning parametrlari “B” grafadan, yozda ishlashi uchun esa “A” grafadan olinadi.

Yoz va qishda ishlash uchun tashqi havoning hisobiy parametrlarini haqiqiy qiymatlari KMK 2.01.01.97 ning ilovasidan olinadi. (1)

Jamoat, ma‘muriy-maishiy bino xonalariga xizmat ko‘rsatishda va ishlab chiqarish korxonalarining GOST 12.1.005-76 bo‘yicha ish zonalarida (meteorologik shart-sharoitlarning miqdorlari alohida hujjatlar bilan belgilangan xonalardan tashqari) mo‘‘tadillashda xonalardagi meteorologik sharoitlarni ta‘minlashda belgilangan miqdorlarning eng qulay chegaralarida (4.1 ilovada) ko‘rsatilganidek bo‘lmog‘i lozim.

Turar joy, jamoat va ma‘muriy-maishiy xonalarning xizmat ko‘rsatish xonalarida havoning eng qulay belgilangan haroratlari nisbiy namlik va harakat tezliklari 1-jadvalda berilgan.

Energiya iste‘molini pasaytirish maqsadida issiq davrda “φ” ning eng katta qiymatini, sovuq davrda esa eng kichigini qabul qilishga rioya qilinadi.

Yilning mavsumi	Harorati, °S	Nisbiy namlik, % hisobida	Havo harakatining tezligi, v, m/sek
Issiq	20-22	60-30	0,2
	23-25	60-30	0,3
Sovuq va o‘tish davri	20-22	45-30	0,2

4-ilova

Guruhlar faoliyatini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari

Guruhlar	Misolning to‘g‘ri yechilishi 0-5 ball	Guruh a‘zolarining faolligi 0-5 ball	Jami 10 ball
1			
2			
3			

10 – 8 ball – «a’lo». 8 – 6 ball – «yaxshi». 6 – 3 ball – «qoniqarli».

5 - ilova

Mashg‘ulotning uslubiy ta‘minoti:

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1 КМК 2.01.01-94 «Климатические и физико-геологические данные для проектирования» Госкомитет по архитектуре и строительству РУз., Ташкент, 1994.

Вентиляция ва ҳавони кондициялаш тизимлари

2. КМК 2.04.05-97 «Отопление вентиляция и кондиционирование»
Госкомитет по архитектуре и строительству РУз., Ташкент, 1997.
3. Ананьев В.А., Балужева Л.Н., Гальперин А.Д. и др. Учебное пособие - М.:
“Евроклимат” Изд. “Арина 2005” Системы вентиляции и
кондиционирования. Теория Проектика
4. Robert McDowall, Fundamentals of HVAC Systems America 2006
5. Energy management series 10 Heating ventilating and air conditioning Canada
2010

2-amaliy mashg'ulot: Xonadan ajraladigan zararliklar miqdorini hisoblash. Xonada ajraladigan namlikni hisoblash. Xonada hisobiy havo almashinishini tanlash. Havo almashinuvi miqdorini xisoblash. Havoning issiqlik namlik balansini tuzish

Ishdan maqsad: Havoning termodinamik paraiyetrlarini to'g'ri xisoblash issiqlik namlik tenglamalaridan to'g'ri foydalanish havo xususiyatlarini o'rganish.

Masalaning qo'yilishi: 1. Xonada ajraladigan zararli miqdorni aniqlash

Ishlab chiqarish jarayoni odatda havoga gazlar, zararli moddalar bug'lari, changlar, ortiqcha suv bug'lari, issiqlik chiqarish bilan ro'y beradi. Xonada ko'pincha odamlar ham havoga issiqlik, namlik, SO₂ va boshqa gazlar ajratadilar. Uning natajasida xonadagi havoning kimyoviy tarkibi va fizik holati o'zgaradi, bu esa odam o'zini yaxshi xis etishiga, uning sog'ligiga ta'sir etadi va ishlash sharoitini yomonlashtiradi.

Jamoat binolarining ko'p xonalarida asosiy zararli chiqindi sifatida ortiqcha issiqlik va namlik bo'ladi.

Sanoat binolarda ulardan tashqari xonaga gazlar, zararli moddalar bug'lari, changlar, ortiqcha suv bug'lari ro'y beradi.

Ventilyatsiyani hisoblaganda xonaga kirayotgan, ajralayotgan zararli miqdorlarni aniqlash kerak.

2. Xonaga kiradigan issiqlik oqimini aniqlash

Xonaga kirayotgan issiqlik oqimlarini quyidagilar tashkil qiladi;

$$\sum_{i=1}^n Q_{kup} = Q_{odam} + Q_{quyosh} + Q_{yorit} + Q_{el.dv.} + Q_{pech} + Q_{mat.} + \dots, \forall t \quad (1)$$

bu yerda: Q_{odam} -odamlardan ajraladigan issiqlik; Q_{quyosh} -quyosh radiatsiyasining issiqligi; Q_{yorit} -yoritish jihozlaridan ajraladigan issiqlik; $Q_{el.dv.}$ -stanok va mexanizmlarning elektrodvigatellaridan ajraladigan issiqlik; Q_{pech} - texnologik pechlar; $Q_{mat.}$ - materiallar sovishidan va boshqalar.

Odamlardan issiqlik ajralishini xisoblash

Odamlardan oshkora Q_{osh} va yashirin Q_{yash} issiqlik ajraladi. Bu issiqliklarning oqimi odamlarning holatiga bog‘liq, ya’ni u tinch holatdami, yengil, o‘rtacha, yoki og‘ir ish bajarayaptimi.

Oshkora issiqlik oqimini quyidagi formulalar yordamida topish mumkin:

$$Q_{osh} = \beta_u \cdot \beta_{kiy} \cdot (2,5 + 10,3 \sqrt{\bar{v}_x}) (35 - t_x), \quad \forall t \quad (2)$$

bu yerda: β_u -tuzatish koeffitsiyenti, u odamning holatini hisobga oladi, ya’ni ishning intensivligini; $\beta_u=1$ tinch va yengil ish uchun; $\beta_u=1,07$ o‘rtacha og‘irlikdagi ish uchun; $\beta_u=1,15$ og‘ir ish bajarilganda; β_{kiy} -kiyimning turiga bog‘liq bo‘lgan koeffitsiyent; $\beta_{kiy}=1$ yengil kiyim uchun; $\beta_{kiy}=0,65$ —oddiy kiyim uchun; $\beta_{kiy}=0,4$ issiq kiyim uchun; v_x - havo tezligi, m/s; t_x - xonaning harorati, °S.

Odamlardan ajraladigan issiqlik oqimi boshqa ifodadan aniqlanishi ham mumkin

$$Q = q \cdot n, \quad \forall t \quad (3)$$

bu yerda: q -bitta odamdan ajraladigan issiqlik oqimi, [10], [11], [12], [13] adabiyotlarda keltirilgan jadvallardan hamda 1-jadvaldan olish mumkin;

n - odamlar soni.

Bitta odamdan ajraladigan issiqlik oqimi, Vt.

1-jadval.

Parametrlar	Xona havosini haroratiga, °S, mos parametrlarni soni				
	15	20	25	30	35
Tinch holat					
Oshkora issiqlik	116	87	58	40	16
To‘liq issiqlik	145	116	93	93	93
Yengil ish					

Энергия тежамкор вентиляция ва хавони кондициялаш тизимлари

Oshkora issiqlik	122	99	64	40	8
To'liq issiqlik	157	151	145	145	145
O'rta og'irlik ish					
Oshkora issiqlik	133	104	70	40	8
To'liq issiqlik	208	203	197	197	197
Og'ir ish					
Oshkora issiqlik	162	128	93	52	16
To'liq issiqlik	290	290	290	290	290

Eslatma; Jadvalda erkaklardan ajraladigan issiqlik oqimi keltirilgan. Ayollar va bolalardan ajralib chiqayotgan issiqlik oqimiga mos ravishda erkaklardan ajralib chiqayotgan issiqlik oqimi 85% va 75% ga teng deb qabul qilinadi.

Odamlardan ajraladigan issiqlik okimi

2-jadval

Hona №	Bitta odamdan ajraladigan issiqlik oqimi (oshkora) q, Vt	Bitta odamdan ajraladigan issiqlik oqimi (to'liq) q, Vt	Odamlar soni n	Odamlardan ajraladigan issiqlik oqimi (oshkora) Q, Vt	Odamlardan ajraladigan issiqlik oqimi (to'liq) Q, Vt
1	2	3	4	5	6
101					

3.Yoritish jihozlaridan issiqlik ajralishi

Sun'iy yoritish jihozlaridan ajraladigan issiqlik oqimi uning quvvatiga qarab aniqlanadi. Odatda, xonani yoritish uchun mo'ljallangan energiya issiqlikka aylanadi va xonaning havosini isitadi deb qabul qilinadi.

Agarda yoritish jihozlari quvvati noma'lum bo'lsa ulardan ajraladigan issiqlik oqimi quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$Q_{yorit} = E \cdot F \cdot q_{yor} \cdot \eta_{yor}, \quad Vt \quad (4)$$

Вентиляция ва ҳавони кондициялаш тизимлари

bu yerda: Ye -yoritilganligi (освещенност),lk, 2-jadvaldan qabul qilinadi; F - xona maydoni, m²; Q_{yor} —solishtirma issiqlik ajralishi, Vt/m², 3.1.3-jadvaldan olinadi; η_{yor} -xonaga tushadigan issiqlik energiyasining ulushi; xonaning tashqisida joylashgan yoritgichlar uchun -0,45 lyuminessent lampalar va 0,15 qizitish lampalari uchun;

Xonalarni umumiy yoritilganlik darajasi

3-jadval.

Xonalar	Ishchi yuzalar yoritilganligi, lk
Jamoat binolar va ishlab chiqarish binolarni yordamchi xonalari;	
kutubxona qiroatxonasi, loyihalash kabinetlari, ishchi va sinf xonalari,	300
auditoriyalar, loyihalash zallari, konstruktorlik byuro, kengash zallari, klublarning sport, majlis va ko‘rish zallari, teatr foyellari, usti yopiq basseynlar, kinoteatr va klublar foyellari	500 200 150
Kinoteatrlarning ko‘rish zallari	75
sanatoriyalarning palatalar va yotadigan xonalar	75
bufet va ovqatlanish zallari	200
mehmonxonalar nomerlari	100
<i>Do‘konlarni savdo zallari:</i>	
oziq-ovqat	400
sanoat mollar	300
xo‘jalik mollar	200

Lyuminessent lampalarda solishtirma issiqlik ajralishi 4-jadval.

Yoritish jihoz turi	Yorug‘lik oqimining taqsimlanishi, %		Xonaning yuzasiga, m ² , qarab o‘rtacha solishtirma issiqlik ajralishi Vt/(m ² lk)		
	tepaga	past ga	>200	50-200	<50
			xonaning balandligi, m		

Энергия тежамкор вентиляция ва хавони кондициялаш тизимлари

			4,2	4,2	3,6	3,6	3,6	3,6
Yorug'likni to'g'ri yo'naltirilgan	5	95	0,067	0,560	0,074	0,058	0,102	0,077
Yorug'likni asosan to'g'ri yo'naltiradigan	25	75	0,082	0,071	0,087	0,073	0,122	0,190
Yorug'likni diffuz tarqoqli yo'naltiradigan	50	50	0,094	0,077	0,102	0,079	0,166	0,116
Yorug'likni asosan akslantiradigan holda yo'naltiradigan	75	25	0,140	0,108	0,152	0,114	0,232	0,166
Yorug'likni akslantiradigan holda yo'naltiradigan	95	5	0,145	0,108	0,154	0,264	0,264	0,161

Eslatma: qizitish lampalar ishlatilganda jadvalda keltirilgan sonlarga 2,75 tuzatish koeffitsiyentni kiritish kerak.

Yoritish jixozlaridan ajraladigan issiqlik okimi

(5-jadval)

Hona №	Yoritilganlik darajasi E.,lk	Solishtirma issiqlik ajralishi q_{yor}	Xonaga tushadigan issiqlik energiyasining ulushi η_{yor}	Xona maydoni $F \text{ m}^2$	ΣQ_{yorit}
1	2	3	4	5	6
101					

4. Elektrovigatellardan ajraladigan issiqlik oqimi

Elektrovigatellardan ajralib chiqadigan umumiy issiqlik oqimi quyidagicha aniqlanadi:

$$Q_{el.dv.} = N_{o'r} \cdot K_{foy} \cdot K_{yuk} \cdot K_{bir} (1 - \eta + K_{foy} \eta), \text{ Vt} \quad (5)$$

bu yerda: $N_{o'r}$ -o'rnatilgan elektrodvigatelning quvvati, Vt; $K_{foy}=0,7-0,9$ -o'rnatilgan quvvatidan foydalanish koeffitsiyenti; $K_{yuk}=0,5-0,8$ - yuklanish koeffitsiyenti; $K_{bir}=0,5-1$ -elektrodvigatelning birdaniga ishlash koeffitsiyenti; $K_{foy}=0,1-1$ -mexanik energiyasi issiqlik energiyasiga o'tish koeffitsiyenti.

6. Pechlardan va boshka jihozlardan chiqadigan issiqlik oqimi

$$Q = \alpha_{yuz} F (t_{yuz} - t_x), \quad \text{Vt} \quad (6)$$

bu yerda: α -issiqlik berish koeffitsiyenti; Vt/m² °S; F -jihozning yuzasi, m²; t_{yuz} -tashqi yuzaning harorati, °S; t_x -xonadagi havoning harorati, °S.

7. Materiallar sovushida ajraladigan issiqlik oqimi

$$Q_{mat} = 0,278 M s (t_b - t_{ox}) \beta, \quad \text{Vt} \quad (7)$$

bu yerda: M -materiallar massasi, kg; s -materialning o'rtacha issiqlik sig'imi, kJ/kg°S; t_b -materialning boshlang'ich harorati, °S; t_{ox} -materialning oxirgi harorati, °S; β -issiqlik berishni vaqt bo'yicha o'zgarishini hisobga oluvchi o'lchamsiz koeffitsiyent.

8. Quyosh radiatsiyasining issiqlik oqimini aniqlash

Quyosh radiatsiyasining issiqligi tashqi to'siqlar: deraza, devor, ship orqali xonaga kiradi.

9. Derazadan quyosh radiatsiyasi orqali kiradigan issiqlik oqimini aniqlash

Deraza orqali xonaga kirayotgan issiqlik oqimini qo'yidagi formula yordamida topish mumkin

$$Q_{max} = (q_{yor} F_{yor} + q_s F_s) K_{n.o'}, \quad \forall t \quad (8)$$

bu yerda: q_{yor}, q_c - mos ravshida quyoshdan yoritilgan va soyada bo'lgan 1 m², bir qavatli, oddiy, qalinligi $\delta=2,4\div 3,2$ mm oyna orqali xonaga kirayotgan issiqlik oqimi, Vt/m²; F_{yor}, F_s - mos ravishda quyoshdan yoritilgan va soyada bo'lgan oynaning yuzasi, m²; $K_{n.o'}$ - oynadan quyosh radiatsiyasi nisbiy kirish koeffitsiyenti.

Qurilish joyining jo'g'rofiy kengligi va bino oynalarining oriyentatsiyasiga qarab maksimal yoki belgilangan hisobiy soat uchun q_{yor}, q_c qiymatlari aniqlanadi.

Oynani quyosh azimuti $A_{o,q} < 90^0$ bo'lganda. ya'ni tik oyna ayrim yoki to'liq quyosh nuri bilan yoritilgan bo'lganda

$$q_{yor} = (q_{to'g'r} + q_{tarq}) k_1 k_2 \quad (9)$$

Agarda tik oyna soyada joylashgan bo'lsa, ya'ni $A_{o,q} \geq 90^0$ bo'lganda, yoki oynaning tashqarisidan quyoshdan ximoya qiluvchi qurilmalardan soya tushsa

$$q_s = q_{tarq} k_1 k_2 \quad (10)$$

Bu formulalarda $q_{to'g'r}, q_{tarq}$ mos ravishda to'g'ri va tarqoq quyosh radiatsiyasining issiqlik oqimini eng katta qiymati 4-jadvaldan olinadi; k_1 - atmosfera iflosligini va deraza panjarasidan tushgan soyani e'tiborga oluvchi tuzatish koeffitsiyenti, 5-jadvaldan qabul qilinadi; k_2 –oynani iflosligini hisobga oluvchi tuzatish koeffitsiyenti, 6-jadvaldan olish mumkin.

Oyna orqali xonaga kirayotgan quyosh radiatsiyasining issiqlik oqimining qiymatlarini aniqlash

6-jadval.

Hisobiy jo'g'rofiy kengligi ⁰ Shl. k.	Haqiqiy quyosh tushish vaqti, soat	Derazani oriyentatsiyasi bo'yicha issiqlik oqimi, Vt/m ²
---	------------------------------------	---

Вентиляция ва ҳавони кондициялаш тизимлари

			Tushgacha							
			Shl	ShlShq	Shq	JShq	J	JG'	G'	ShlG'
	Tush gacha	Tush dan keyin	tushdan keyin							
Shl			ShlG'	G'	JG'	J	JShq	Shq	ShlShq	
36	5-6	18-19	69/36	117/36	116/24	24/28	-/16	-/16	-/21	-/19
	6-7	17-18	53/71	334/91	348/109	156/86	-/52	-/36	-/44	-/47
	7-8	16-17	27/81	369/114	435/134	273/109	-/71	-/56	-/55	-/56
	8-9	15-16	-/71	274/104	419/123	307/108	-/77	-/60	-/64	-/60
	9-10	14-15	-/64	148/80	345/99	298/91	35/78	-/63	-/62	-/62
	10-11	13-14	-/62	38/71	186/185	230/83	87/78	-/65	-/62	-65
	11-12	12-13	-/60	-/67	33/76	119/74	110/78	2/69	-/67	-/65
40	5-6	18-19	71/31	170/47	214/47	50/35	-/20	-/20	-/21	-/22
	6-7	17-18	51/71	350/97	419/112	183/86	-/55	-/42	-/44	-/47
	7-8	16-17	6/78	345/114	493/133	302/109	-/71	-/56	-/55	-/57
	8-9	15-16	-/71	258/104	471/121	354/108	60/78	-/60	-/60	-/60
	9-10	14-15	-/64	116/80	363/99	342/95	150/70	-/63	-/62	-/62
	10-11	13-14	-/62	6/71	191/81	274/83	222/81	-/67	-/62	-/65
	11-12	12-13	-/60	-/67	35/43	172/77	257/81	45/72	-/65	-/65
44	5-6	18-19	84/38	222/53	292/58	72/40	-/23	-/22	-/22	-/23
	6-7	17-18	42/70	369/98	452/112	209/86	-/55	-/44	-/44	-/33
	7-8	16-17	-/77	357/110	509/130	333/109	-/71	-/55	-/55	-/55
	8-9	15-16	-/71	256/101	490/121	398/108	66/79	-/60	-/59	-/60
	9-10	14-15	-/64	84/80	371/100	389/101	162/81	-/63	-/60	-/62
	10-11	13-14	-/60	-/71	193/80	305/86	245/84	-/67	-/60	-/64
	11-12	12-13	-/59	-/67	37/72	214/79	288/85	73/77	-/65	-/65

Oyna orqali xonaga kirayotgan quyosh radiatsiyasining issiqlik oqimining derazaning qavatli va panjarali ko'effitsiyentlari

7-jadval

Oyna	Atmosferadagi ko'effitsiyent K_1 qiymati			
	Ifloslan magan (nurlanishga)	quyidagi 0Shl . k geografik kengliklarda joylashgan sanoat tumanlarida ifloslangan		
		36-40	44-68	36-40

	bog‘liq emas)	Hisoblanayotgan soatlarda quyosh tushayotgan oyna uchun		Hisoblanayotgan soatlarda soyada bo‘lgan oyna uchun	
Bir qavatli panjarasiz, shisha blok va profilli shisha bilan to‘ldirilishi	1	0,7	0,75	1,6	1,75
Ikki qavatli panjarasiz	0,9	0,63	0,68	1,45	1,58
Panjarali bir qavatli: metalli	0,8	0,56	0,6	1,28	1,4
Yog‘ochli	0,65	0,46	0,48	1,04	1,14
Panjarali ikki qavatli: metalli	0,72	0,51	0,54	1,15	1,26
Yog‘ochli	0,6	0,42	0,45	0,96	1,05

Oyna orqali xonaga kirayotgan quyosh radiatsiyasining issiqlik oqimini oynaning ifloslanganligi darajasidagi koeffitsiyent

8-jadval

Oynaning ifloslanganligi	Vertikal oynalarni to‘ldiruvchi koeffitsiyent K_2 qiymatlar $80^0 < \nu < 90^0$
Juda iflos	0,85
Sezilarli	0,9
Sezilmas	0,95
Toza	1

Eslatma: 1. Xonadagi havoda chang, tutun konsentratsiyasi $10\text{mg}/\text{m}^3$ va undan ortiq bo‘lsa juda iflos, $5\text{-}10\text{ mg}/\text{m}^3$ bo‘lsa sezilarli darajada iflos, $5\text{ mg}/\text{m}^3$ dan ortiq bo‘lmasa sezilmas darajada iflos deb hisoblanadi.

2. ν -oyna sirti va gorizonttal sirt orasidagi o‘tkir burchak.

Oynalarning azimut absolyut qiymati $A_{o,q}$ quyidagi formulalardan aniqlanadi:

JShq yo‘nalishda tushdan keyin va JShq yo‘nalishda tushdan oldin

$$A_{o,q} = A_q + A_o \quad (11)$$

F, ShlF, JF yo‘nalishda tushdan keyin, Shq, ShlShq, JShq yo‘nalishda tushdan oldin va Shl, J yo‘nalishlarga

$$A_{o,q} = A_q - A_o \quad (12)$$

F, ShlF yo‘nalishda tushdan keyin va Shq, ShlShq yo‘nalishda tushdan keyin

$$A_{o,q} = 360 - (A_q - A_o) \quad (13)$$


Вентиляция ва ҳавони кондициялаш тизимлари

Bu yerda A_q -quyosh azimuti ya'ni quyosh nurini gorizontaal proyeksiyasi va janub yo'nalishi orasidagi burchak (.7-jadval, .1-rasm).

A_o -oynani azimuti, ya'ni oyna yuzasi va normal orasidagi burchak yoki soat mili yo'nalishi yo unga teskari yo'nalish bo'yicha hisoblanganda, shu normal gorizontaal proyeksiyasi bilan janubiy yo'nalish orasidagi burchak (1-rasm).

Rasm-1. Quyosh nurining va azimutlari proyeksiyasi:

1-quyosh nuri; 2-nur to'playotgan oyna sirti; 3-gorizontaal sirt; 4-oina sirtiga nisbatan normal; 5-quyosh nurining gorizontaal proyeksiyasi; h -quyosh balandligi; ν -oina va gorizontaal sirt orasidagi o'tkir burchak.



Oynaning oriyentatsiyasi	Shl	ShlShq	Shq	JShq	J	J/	G'	Shl/
A_o	180	135	90	45	0	45	90	135

Geografik kengliklardagi quyosh azimutining qiymatlari

9-jadval

Haqiqiy quyosh vaqti		Geografik kengliklardagi quyosh azimutining qiymatlari ⁰ Shl. k. A_q			
tushgacha	tushdan keyin	36	40	44	48
2-3	21-22	-	-	-	-
3-4	22-21	-	-	-	-
4-5	19-20	-	-	-	-
5-6	18-19	111	111	111	110
6-7	17-18	104	104	100	99
7-8	16-17	94	93	90	87
8-9	15-16	86	82	78	76

9-10	14-15	75	69	65	60
10-11	13-14	56	49	45	40
11-12	12-13	24	20	18	16
12 tush		0	0	0	0

Eslatma: Quyosh azimuti kunning birinchi yarmida (tushgacha) janubiy yo‘nalishga nisbatan soat mili harakatiga teskari, kunning ikkinchi yarmida (tushdan keyin) soat mili harakati bo‘yicha hisoblanadi.

Agarda xonada oynalar xar xil yo‘nalishda joylashgan bo‘lsa, hamda bir-biri orasida 90° li burchak bo‘lsa va hisobiy soat belgilanmagan bo‘lmasa, xonaga kirayotgan issiqlikni xar bir devorda joylashgan oyna orqali hisoblash kerak va xonalar kishilar bilan band bo‘lgan yoki korxonada ishlayotgan davr uchun eng katta qiymat olinishi lozim.

Quyoshdan himoya qiluvchi qurilmalar derazalarga o‘rnatilmagan bo‘lsa xonaga kirayotgan issiqlikning hisobiy qiymatini aniqlashda xonadagi ichki to‘siqlar ayrim issiqlikni akumulatsiya qilishni hisobga olish kerak.

Ichki to‘siqlarning issiqlikni akumulatsiya qilish qobiliyatini hisobga olganda xonaga kirayotgan hisobiy issiqlikni quyidagicha aniqlash mumkin;

oynalarda quyoshdan himoya qiluvchi tashqi qurilmalar bo‘lmaganda

$$Q_x = Q_{\max} \left(\frac{F_1 m_1 + F_2 m_2 + F_3 m_3 + 0,5 F_4 m_4 + 1,5 F_5 m_5}{F_1 + F_2 + F_3 + F_4 + F_5} \right) \quad (14)$$

shu qurilmalar bo‘lganda

$$Q_x = Q_{\max} \left(\frac{F_1 m_1 + F_2 m_2 + F_3 m_3 + F_4 m_4 + F_5 m_5}{F_1 + F_2 + F_3 + F_4 + F_5} \right) \quad (15)$$

bu yerda: F_1, F_2, F_3 -xonadagi ichki devorlarini yuzasi, m^2 ; F_4, F_5 -mos ravishda ship va polning yuzalari, m^2 ; m_1, m_2, m_3, m_4, m_5 -issiqlikni akumulatsiya qilinishlikni hisobga oluvchi tuzatish koeffitsiyentlar mos ravishda ichki devorlar, ship va pol uchun 10-jadvaldan har bir to‘siq uchun qabul qilinadi.

10-jadval

Material	Hisobiy qalinlik δ , sm	Issiqlik o‘tqazish koeffitsiyenti λ ,	Harorat o‘tqazish koeffitsiyenti a ,	Bino old qismiga (fasad) quyosh radiatsiyasi tik tushgan davriga ko‘ra koeffitsiyent m qiymati, soat
----------	--------------------------------	---	--	--

Вентиляция ва ҳавони кондициялаш тизимлари

		Vt/(m.K)	m ² /soat	12	10	8	6
Beton	3,5	1-1,8	0,002-0,003	0,78	0,71	0,64	0,54
Temir beton	5			0,70	0,64	0,55	0,45
				0,60	0,53	0,45	0,38
Tabiiy toshlar	15			0,53	0,48	0,42	0,36
	28			0,45	0,41	0,36	0,31
	≥40			0,42	0,40	0,35	0,30
G'isht, yengil	6	0,7-0,9	0,0012-0,0019	0,74	0,65	0,57	0,49
	13			0,60	0,55	0,49	0,43
	19			0,58	0,53	0,47	0,42
Betonlar	≥26			0,55	0,50	0,45	0,41
Gips materiallar	5	0,2-0,5	0,00115-0,0012	0,88	0,84	0,79	0,72
YoG'och materiallar	2,5	0,2-0,3	0,0005-0,0007	0,84	0,81	0,75	0,69
Issiqlik tovushni izolyatsiyalovchi materiallar: g'ovak plastmassalar va polimerlar	≥5	0,06-0,12	0,001-0,0015	1	0,99	0,98	0,95

Eslatma: 1. Ko'p qatlamli to'suvchi konstruksiyalarda faqat nur tushayotgan qatlamga eng yaqin asosiy qatlam hisobga olinadi.

2. Quyosh bilan qizigan ikki yonma-yon xonalarni bo'lib turuvchi devor yoki to'siqning hisobiy qalinligini, ularning haqiqiy qalinligini yarmiga teng etib qabul qilinishi lozim. Isiydigan va isimaydigan binolarni ajratib turuvchi devor va to'siqlarning hisobiy qalinligini ularning haqiqiy qalinligiga teng etib qabul qilish lozim.

3. Nuri tushadigan oynalar J, JG' va G' ga qaragan bo'lsa m ning qiymati koeffitsiyent 1,2 ga ko'paytirib olinadi.

4. 3.1.8-jadvalda ko'rsatilmagan materiallar uchun haroratni o'tqazish koeffitsiyenti **a** ni aniqlashda λ , s_0 , γ_0 qiymatlari qurilish issiqlik texnikasi QMQ 2.01.04-97 dan muvofiq boblardan olinadi.

Deraza orqali quyosh radiatsiyasi berilayotgan issiqlik oqimini aniqlash

11-Jadval

No	$q_{\text{tog'}}$	q_{tar}	K_1	K_2	q_{yor}	K_{max}	F_{yor}	Q_{max}	F_1	F_2	F_3	F_4	F_5	M_1	M_2	M_3	M_4	M_5	Q_h
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
2.																			

10. Shift orqali xonaga kiradigan issiqlik oqimi

Shift orqali xonaga kiradigan issiqlik oqimini qo‘yidagi formula yordamiga topish mumkin

$$Q = q_o + \beta A_q, \text{ Vt} \quad (16)$$

bu yerda: q_o –xonaga kirayotgan sutkali o‘rtacha issiqligi, Vt; β - sutkadagi bir soat uchun belgilangan koeffitsiyenti, 9-jadvaldan olinadi; A_q - issiqlik oqimning tebranish amplitudasi, Vt.

Sutkaning turli soatlarida mos ravishda o‘zgarayotgan issiqlik oqimi miqdorini aniqlash uchun ishlatiladigan koeffitsiyent, β ni qiymati 12-jadvalga asosan qabul qilinadi.

12-jadval

Kiradigan issiqlikni maksimumdan oldin yoki keyin olingan soat soni	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
β koeffitsiyenti	1	0,97	0,87	0,71	0,5	0,26	0,0	-0,26	-0,5	-0,71	-0,87	-0,97	-1

Xonaga kirayotgan sutkali o‘rtacha issiqlikni quyidagi formula yordamida topish mumkin

$$q_o = \frac{F}{R_o} (t_{\text{шарм } m.x} - t_{\text{уик}}), \text{ ВТ} \quad (17)$$

bu yerda: F-shipning yuzasi, m²; R_o-shipning termik qarshiligi, (m²k)/Vt, shipning issiqlik texnik hisobi asosida olinadi yoki bu hisob bajarilmaganda QMQ

2.01.04-97 me'yorni 2a, 2b, 2v-jadvallardan qabul qilish mumkin; $t_{chik-xonadan}$ chiqarib yuborilayotgan havoning harorati, $^{\circ}S$; $t_{t,x}^{shart}$ -tashqi havoni shartli sutkali o'rtacha harorati.

Tashqi havoni shartli sutkali o'rtacha harorati taxminan quyidagi formuladan topiladi

$$t_{m,x}^{uapm} = t'_{m,x} + \frac{\rho I_{yp}}{\alpha'_T}, ^{\circ}C \quad (18)$$

bu yerda: $t'_{t,x}$ -tashqi havoning hisobiy harorati, iyul oyini o'rtacha haroratiga teng deb QMQ 2.01.01-94 ni jadvalidan olinadi.

ρ -shipning tashqi yuzasi materialini quyosh radiatsiyasini yutish koefitsiyenti, QMQ 2.01.04-97 ni 6 ilova bo'yicha qabul qilinadi;

I_{yp} -yig'ma quyosh radiatsiyasini (to'g'ri va tarqoq) o'rtacha qiymati QMQ 2.01.04-97 bo'yicha qabul qilinadi;

To'siq konstruksiyasining tashqi sirtidagi ashyosi bilan quyosh radiatsiyasining yutish koefitsiyentlari

13-jadval.

To'siq konstruksiyasi tashqi sirtining ashyosi	Quyosh radiatsiyasining yutish koefitsiyenti
25. Alyuminiy	0,5
26. Asbest-sement taxtalari	0,65
27. Asfalt-beton	0,9
28. Betonlar	0,7
29. Bo'yalmagan yog'och	0,6
30. Och rang shag'aldan rulonli tomlarning himoyalash qatlami	0,65
31. Qizil pishiq g'isht	0,7
32. Silikat g'asht	0,6

Энергия тежамкор вентиляция ва хавони кондициялаш тизимлари

33. Oq tabiiy tosh qoplamasi	0,45
34. To‘q kulrang silikat bo‘yoq	0,7
35. Oq ohak bo‘yoq	0,3
36. Qoplama keramik plitka	0,8
37. Qoplama ko‘k shishali plitka	0,6
38. Oq yoki sarg‘ish qoplama plitka	0,45
39. Qum sepmali ruberoid	0,9
40. Oq bo‘yoq bilan bo‘yalgan po‘latli	0,45
41. To‘q qizil bo‘yoq bilan bo‘yalgan po‘latli list	0,8
42. Yashil bo‘yoq bilan bo‘yalgan po‘latli list	0,6
43. Ruxlangan tombop po‘lat	0,65
44. Qoplama shisha	0,7
45. To‘q kulrang yoki qizg‘ish sariq rang ohakli suvoq	0,7
46. Och havo rangli sementli suvoq	0,3
47. To‘q yashil rangli sementli suvoq	0,6
48. Och sariq (sarg‘ish) sementli suvoq	0,4

14-jadval

Ko‘rsatgich	Geografik kengligi, ° /k.								
	37	38	39	40	41	42	43	44	45
I_{max}	949	942	935	928	922	915	905	894	884
$I_{o'r}$	335	334	333	333	333	334	333	331	329
$I_{max} - I_{o'r}$	614	608	602	595	589	582	573	563	555

α'_{T-yoz} sharoitlari bo‘yicha to‘siq konstruksiyalarini tashqi yuzasining issiqlik berish koeffitsiyenti, $Вт/(m^2 \cdot S)$.

Tashqi yuzaning issiqlik berish koeffitsiyenti quyidagi formula bo‘yicha aniqlanishi lozim

$$\alpha'_T = 1,16(5 + 10\sqrt{g}), \text{ BT}/(M^2 \text{ C}) \quad (19)$$

bu yerda: ν -takrorlanishi 16% va undan yuqori bo'lgan rumblar bo'yicha iyul uchun shamolning o'rtacha minimal tezligi, QMQ 2.01.04-94 ga asosan qabul qilinadi, lekin bu kattalik 1 m/s dan kam bo'lmasligi kerak.

Issiqlik oqimini tebranish amplitudasi quyidagi formuladan aniqlanadi

$$A_q = \alpha_u F A_{\tau_u}, \text{ Вт} \quad (20)$$

bu yerda: α_i -shipni ichki yuzasini issiqlik berish koeffitsiyenti, $\text{Вт}/(\text{m}^2 \text{ } ^\circ\text{S})$, QMQ 2.01.04-97 ni 5-jadvaliga asosan qabul qilinadi;

A_{τ_u} -shipni ichki yuzasi haroratining tebranish amplitudasi, $^\circ\text{S}$;

To'siq konstruksiyasining ichki yuzasi harorati tebranish amplitudasini quyidagi formulaga ko'ra aniqlash lozim

$$A_{\tau_u} = \frac{A_{t_T}^{xuc}}{\nu}, \text{ } ^\circ\text{C} \quad (21)$$

bu yerda: ν -to'siq konstruksiyasida tashqi havo harorati tebranishining hisobiy amplitudasining A_{τ_u} so'nish kattaligi;

$A_{t_T}^{xuc}$ -tashqi havo harorati tebranishining hisobiy amplitudasi, $^\circ\text{S}$.

tashqi havo harorati tebranishining hisobiy amplitudasi $A_{t_T}^{xuc}$, $^\circ\text{S}$, quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi

$$A_{t_T}^{xuc} = 0,5 A_{t_T} + \frac{\rho(I_{\max} - I_{yp})}{\alpha'_T}, \text{ } ^\circ\text{C} \quad (22)$$

bu yerda: A_{t_T} -iyul oyida tashqi havo harorati kunlik tebranishni maksimal amplitudasi, $^\circ\text{S}$, QMQ 2.01.04-94 ga asosan qabul qilinadi; I_{\max} -yig'ma quyosh

radiatsiyasini (to‘g‘ri tarqoq) maksimal qiymati Vt/m^2 , QMQ 2.01.01-94 ga asosan qabul qilinadi.

Bir turdagi qatlamlardan tashkil topgan to‘siq konstruksiyasida tashqi havo haroratining tebranishini hisobiy amplitudasining so‘nish ν kattaligi quyidagi formuladan aniqlanadi

$$\nu = 0,9e^{\frac{D}{\sqrt{2}}} \frac{(S_1 + \alpha_u)(S_2 + Y_1) \dots (S_n + Y_{n-1})(\alpha'_T + Y_n)}{(S_1 + Y_1)(S_2 + Y_2) \dots (S_n + Y_n)\alpha'_T}, \quad (23)$$

bu yerda: $ye=2,718$ -natural logariflar asosi; D -to‘siq konstruksiyasining issiqlik inersiyasi; $S_1, S_2 \dots S_n$ -to‘siq konstruksiyalari alohida qatlamlari materialini hisobiy issiqlik o‘zlashtirish koeffitsiyenti, $Vt/(m^2 \cdot ^\circ S)$, QMQ 2.01.04-97 ni 1 ilova bo‘yicha qabul qilinadi; $Y_1, Y_2, \dots Y_{n-1}, Y_n$ -to‘siq konstruksiyalarining alohida qatlamlari tashqi yuzasini issiqlik o‘zlashtirish koeffitsiyenti, $Vt/(m^2 \cdot ^\circ S)$. Eslatma, (23) formuladan qatlamlarni raqamlashtirish tartibi ichki yuzadan tashqarisiga yo‘nalish bo‘yicha qabul qilingan.

To‘siq konstruksiyalarining alohida qatlamlari tashqi yuzalarini issiqlik inersiyasini D_i .

D -ni oldindan hisoblash lozim (to‘siq konstruksiyalarini issiqlik uzatishga qarshiligini hisobi asosida QMQ 2.01.04-97 dan topiladi).

Issiqlik inersiyasi $D \geq 1$ bo‘lgan qatlam tashqi yuzasini issiqlik o‘zlashtirish koeffitsiyenti Y , $Vt/(m^2 \cdot ^\circ S)$ konstruksiyaning shu qatlami S materialining hisobiy issiqlik o‘zlashtirish koeffitsiyentiga teng deb, QMQ 2.01.04-97 ni 1 ilovasi bo‘yicha qabul qilish lozim.

Issiqlik inersiyasi $D < 1$ bo‘lgan qatlam tashqi yuzasini issiqlik o‘zlashtirish koeffitsiyenti birinchi qatlam (to‘siq konstruksiyasini ichki yuzasidan sanab) dan boshlab, quyidagi hisoblar orqali aniqlanadi:

a) birinchi qatlam uchun

$$Y_1 = \frac{R_1 S_1^2 + \alpha_u}{1 + R_1 \alpha_u}, \text{ ВТ}/(\text{М}^2 \text{ } ^\circ\text{С}) \quad (24)$$

b) i -nchi qatlam uchun quyidagi formula bo'yicha aniqlash lozim

$$Y_i = \frac{R_i S_i^2 + Y_{i-1}}{1 + R_i Y_{i-1}}, \text{ ВТ}/(\text{М}^2 \text{ } ^\circ\text{С}), \quad (25)$$

bu yerda: R_1, R_i -to'siq konstruksiyasini mos ravishda birinchi va i -nchi qatlamlarining termik qarshiligi, $(\text{m}^2 \cdot ^\circ\text{С})/\text{ВТ}$, QMQ 2.01.04-97 da keltirilgan formula bo'yicha aniqlanadi

$$R_1 = \frac{\delta_1}{\lambda_1}, \quad R_i = \frac{\delta_i}{\lambda_i} \quad (26)$$

bu yerda: δ_1, δ_i -mos ravishda 1-nchi va i -nchi qatlam qalinligi, m; λ_1, λ_i -mos ravishda 1-nchi va i -nchi qatlam aшыosini issiqlik o'tkazuvchanligi hisobiy koeffitsiyenti, $\text{ВТ}/(\text{m} \cdot ^\circ\text{С})$, QMQ 2.01.04-97 ni 1-sonli ilovasidan qabul qilinadi; S_1, S_i -mos ravishda birinchi va i -nchi qatlam materialining hisobiy issiqlik o'zlashtirish koeffitsiyenti, $\text{ВТ}/(\text{m}^2 \cdot ^\circ\text{С})$, QMQ 2.01.04-97 ni 1-sonli ilovasidan qabul qilinadi; Y_1, Y_i, Y_{i-1} -to'siq konstruksiyasini mos ravishda birinchi, i -nchi va $(i-1)$ -nchi qatlamlar tashqi yuzasini issiqlik o'zlashtirish koeffitsiyentlari, $\text{ВТ}/(\text{m}^2 \cdot ^\circ\text{С})$.

Xonaga issiqlikni kirish maksimum vaqti Z^{\max} , soat, quyidagi formuladan topish lozim

$$Z^{\max} = 13 + 2,7D \quad (27)$$

bu yerda: D -to'siq konstruksiyani issiqlik inersiyasi.

Shift orqali xonalarga kiradigan issiqlik oqimi

(15-jadval)

Xona №	α_i	F	A_{ri}	A_q	$\frac{1}{R0}$	t_{Tx}^{sh} - t_{chis}	q_0	$\frac{\beta * Aq}{\beta = 1}$	Q
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
101									

11. Xonaga ajralib chiqayotgan namlik miqdorini aniqlash

Xonaga ajraladigan namlik miqdorlarini qo‘yidagilar tashkil qiladi:

$$\Sigma W_i = W_{odam} + W_{k.suv.} + W_{mat} + W_{adr.} + \dots \text{ g/soat} \quad (28)$$

bu yerda: W_{odam} —odamlardan; $W_{k.suv.}$ -qaynayotdan suvning ochik sathidan; W_{mat} -namlandan material va ashyolardan; W_{adr} -ishlab chiqarish agregat va quvurlar teshiklaridan;

Odamlardan ajraladigan namlik miqdori qo‘yidagi ifodadan aniqlanadi

$$W_{odam} = w \cdot n, \text{ g/soat} \quad (29)$$

bu yerda: w -bitta odamdan ajraladigan namlik, g/soat, [10], [11], [12], [13] adabiyotlardan aniqlanadi; n -odamlar soni.

Bir nafar odamdan ajraladigan namlik miqdori, g/soat

16-jadval.

Parametrlar	Xona havosining haroratiga, °S, mos parametrlarining soni
-------------	---

Вентиляция ва ҳавони кондициялаш тизимлари

	15	20	25	30	35
Tinch holat					
Namlik	40	40	50	75	115
Yengil ish					
Namlik	55	75	115	150	200
O'rta og'ir ishi					
Namlik	110	140	185	230	280
Og'ir ish					
Namlik	185	240	295	355	415

Qaynamayotgan suvning ochiq sathidan ajraladigan namlikning miqdori keltirayotgan issiqlik oqimiga bog'liq bo'lib, texnologlar beradigan ma'lumotlar asosida olinadi.

Ko'pincha namlangan materiallar va ashyolardan ajraladigan namlik miqdori ham texnologlar beradigan ma'lumotlar asosida olinadi. Masalan: polni yuzasidan adiabatik jarayon sharoitida bug'lanish natijasida ajraladigan namlik miqdori quyidagi ifodadan aniqlanadi.

$$W_{mat} = 6 F (t_k - t_n) 10^{-3}, \text{ kg/soat} \quad (30)$$

bu yerda: F -bug'lanish sathi, m^2 ; $t_k - t_n$ -quruq va nam termometr ko'rsatgan xonadagi havoning harorati, $^{\circ}S$.

Xonaga ajralib chiqayotgan namlik miqdorini aniqlash

(17-jadval)

Хона №	Битта одамдан ажраладиган намлик w	Одамлар soni n	Одамлардан ажраладиган намлик miqdori W g/soat
1	2	3	4

12. Xonaga ajraladigan gazlar

Xonaga ajraladigan gazlar miqdorini quyidagilar tashkil qiladi

$$\sum_{i=1}^{i=n} G = G_o + G_{an} + G_{aBm} + \dots, \text{ g/soat} \quad (31)$$

bu yerda: G_o -odamlardan ajraladigan SO_2 ; G_{an} -apparat va quvurlarning teshiklaridan; G_{avm} -suyuq yonilg'i dvigatelli avtomobil ishlashda. **Odamlardan ajraladigan SO_2** miqdori quyidagi ifodadan aniqlanadi.

$$G_o = g \cdot n, \text{ g/soat} \quad (32)$$

g -bitta odamdan ajralanadigan SO_2 miqdori, g/soat, [10], [11], [12], [13] adabiyotlaridan aniqlanadi.

Bitta odamdan ajraladigan SO_2 miqdori bajariladigan ishning og'irligiga bog'liq

Tinch holat uchun - 23 l/soat;

Yengil ish uchun - 25 l/soat;

O'rta og'irlikdagi ish uchun -35 l/soat;

Og'ir ish uchun - 45 l/soat.

Apparat va quvurlarning teshiklaridan chiqadigan gazlar va bug'lar miqdori [13] quyidagi ifodadan aniqlanadi

$$G_{an} = k \cdot c \cdot V \sqrt{M/T}, \text{ kg/soat} \quad (33)$$

bu yerda: k -zaxira koeffitsiyenti; s -koeffitsiyent-apparatdagi bosimga bog‘liq; V -apparatni ichki xajmi, m^3 ; M -apparatdagi gazlarni molekulyar massasi, g/mol T -apparatdagi gazlarning absolyut harorati, K.

Suyuq yonilg‘i dvigatelli avtomobil ishlashida ajraladigan gazlar miqdori [13] quyidagi ifodalardan aniqlanadi.

Karbyurator dvigatellarga

$$G_k = 15(0,6 + 0,8B) \frac{P}{100} \frac{\tau}{60}, \text{ kg/soat} \quad (34)$$

dizel dvigatellarga

$$G_q = (160 + 13,5B) \frac{P}{100} \frac{\tau}{60}, \text{ kg/soat} \quad (35)$$

bu yerda: 15-1 kg yonilg‘idan paydo bo‘ladigan gazlar, kg; V -dvigatel silindrini ichki ishchi hajmi, l; R -ishlab bo‘lgan gazlardagi zararli massa miqdori, %; τ -dvigatelli ishlash vaqti, min.

Har turli manbalardan ajralib chiqadigan issiqliklar.

Fuqaro binolaridagi havoni konditsiyalashni loyihalashda ko‘pgina umumiy ovqatlanish korxonalarining xonalarini ko‘rib chiqish zarurati tug‘iladi. Bunday holatda issiq ovqatning sovishidan ajralib chiqadigan issiqlik quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Q_{u.oe} = \frac{g \cdot C_{yp} (t_{oe}^{yp} - t_{oe}^o) \cdot n}{\tau}, \quad \text{Vt, kDj/soat} \quad (36)$$

bu yerda $g=0,85$ -bir odamni iste'mol qiladigan ovqatning o'rtacha og'irligi, kg;

$S_{o'r}=0,35$ -ovqatning o'rtacha solishtirma issiqlik sig'imi

$t_{oe}^{yp}=70^{\circ}\text{S}$ - ovqatlanish zaliga kiritiladigan ovqatning o'rtacha harorati, $^{\circ}\text{S}$;

$t_{oe}^o=40^{\circ}\text{S}$ - ovqat iste'mol qilinayotgandagi o'rtacha harorati, $^{\circ}\text{S}$

n -ovqatlanish o'rning soni;

τ -bir odamning ovqatlanish muddati, soat.

(restoranlar uchun -1soat; o'ziga xizmat ko'rsatuvchi oshxonalar uchun-0,3 soat).

Texnologik uskunalardan ajralib chiqadigan issiqlik miqdori 1-ilovada berilgan.

Sovuq davrdagi tashqi to'siqlar orqali yo'qoladigan issiqlik miqdorini quyidagi formula bilan topiladi:

$$Q = Q \frac{t_x^{\text{э.к.}} - t_{oe}^{yp}}{t_x^{\delta} - t_{oe}^o}, \quad \text{Vt;kDj/soat} \quad (37)$$

Tashqaridan ichkariga suqilib kiruvchi sovuq havo hisobiga yo'qotiladigan issiqlik miqdori 9-ilovaning 3-punktida (1-49 bet) ko'rsatmasiga muvofiq aniqlanadi.

Yuqorida ko'rsatilganlardan tashqari qator holatlarda: ya'ni ichkariga kiritiluvchi sovuq materiallarning va transport vositalarining hamda vaqti-vaqti bilan ochiladigan tashqi eshik va darvozalar orqali xonalarga suqilib kiruvchi havoning qizdirishga ketadigan issiqlik yo'qolishlar ham hisobga olinadi.

Вентиляция ва ҳавони кондициялаш тизимлари

Odamlardan ajraladigan namlik, xonalarda odamlardan ajralib chiqadigan umumiy namlik ushbu formula orqali topiladi:

$$W_0 = 0,001 * \Sigma n * \theta, \text{ kg/soat} \quad (38)$$

bu yerda θ -bir odamdan ajraladigan namlikni miqdori, kg/soat odam.

Xonalarda suqilib kiruvchi havo orqali paydo bo'ladigan namlik quyidagi formula orqali topiladi:

$$W_{c.k.} = G(d_m - d_u) \cdot 10^{-3}, \text{ kg/soat} \quad (39)$$

bu yerda suqilib kiruvchi G -suqilib kiruvchi havoning miqdori, kg/soat;

d_1, d_2 -tashqi va ichki havolarning tarkibli namliklari, g/kg quruq havo.

(I-d diagramma bo'yicha) qabul qilinadi.

XONALARDAGI ISSIQLIK BALANSINI TUZISH

(18-jadval)

Xona №	Odamlardan ajraladigan issiqlik oqimi Q_{tulik}	Shift orqali kiradigan issiqlik oqimi Q_{shift}	Yoritish jixozlaridan issiqlik ajralishi Q_{yor}	Deraza orqali kiradigan issiqlik oqimi Q_{deraza}	Odamlar dan ajraladigan namlik miqdori W	ΣQ
1	2	3	4	5	6	7

Konditsiyalangan xonalarning issiqlik balanslari yilning issiq va sovuq davrlari uchun tuziladi.

3-amaliy mashg‘ulot: Nam havoning termodinamikasi. Nam havoning I-d diagrammasi.

Ishdan maqsad: Havoning termodinamik paraiyetrlarini to‘g‘ri xisoblash issiqlik namlik tenglamalaridan to‘g‘ri foydalanish havo xususiyatlarini o‘rganish.

Masalaning qo‘yilishi: Honalarda amalga oshiriladigan maishiy va texnologik jarayonlar odatda zararliklarni ajrab chiqishi bilan sodir bo‘ladi. Ventilyatsiya va xavoni konditsiyalash texnikasida zararliklar deb, umumlashtirilib honaga ortiqcha issiqlik, namlik, gaz va bug‘lar, shuningdek, havo orqali kiradigan changlarga aytiladi. Konditsiyalashda honadan ifloslangan havo olinib, tozasi uzatiladi. Shunday qilib, ventilyatsiya va havoni konditsiyalash jarayonlarida havo asosiy ishchi muxitdir.

Havoning xususiyatlari uning gazli tarkibi, issiqlik va namlik holati, zararli gazlar, bug‘lar, changlar mavjudligi bilan aniklanadi.

Bizning atrofimizdagi havo gazlar aralashmasidan tashkil topgan : azot gazi N_2 (78,13% hajmi bo‘yicha), kislorod O_2 (20,9%), inert gazlar argon va boshqalar (0,94%), CO_2 (0,03%)-karbonat angidrid va boshqalar.

Quruq havoni suv bug‘lari bilan aralashmasiga nam havo deyiladi. Havoni konditsiyalashda nam havo hususiyatlari kuriladi, chunki havoda namlikning borligi jarayonlar termodinamikasiga va odamlarning o‘zini yaxshi his etishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Nam havo odatda ikki ideal gaz aralashmasi deb ko‘riladi: quruq havo va suv bug‘lari.

Dalton qonuniga ko‘ra:

$$Rb = Rk.x. + Rs.b., Pa \quad (1)$$

bu yerda: Rb -barometrik bosim, Pa (normal atmosfera bosimi 101,3kPa); $Rk.x.$, $Rs.b.$ - mos ravishda quruq havoning va suv bug‘larining parsial bosimi, Pa.

Ideal gazning holati Klayperon tenglamasi bilan ifodalanadi:

$$RV = mRT \quad (2)$$

bu yerda: P -bosim, Pa; V -hajm, m³; m -massa, kg; R -gaz doimiysi, J/(kg•K); T -temperatura (harorat), K.

Quruq havo uchun $R_{k.x.} = 286,69$ kJ/(kg•K), suv bug‘lari uchun $R_{s.b.} = 461,89$ kJ/(kg•K).

Shuning uchun:

$$P_{k.x.} V = 286,69 m_{k.x.} T, \quad (3)$$

$$P_{s.b.} V = 461,89 m_{s.b.} T. \quad (4)$$

1. Havoning tarkibiy namligi deb nam havoda uning 1 kg. quruq kismiga to‘g‘ri keladigan suv bug‘larining massa miqdoriga aytiladi va d xarfi bilan belgilanadi:

$$d = \frac{m_{s.b.}}{m_{k.x.}} 1000 = \frac{\frac{P_{s.b.} V}{461,89 T}}{\frac{P_{k.x.} V}{286,69 T}} 1000 = 622 \frac{P_{s.b.}}{P_{k.x.}} = 622 \frac{P_{s.b.}}{P_b - P_{s.b.}}, \text{ r/kg.}$$

2. Havoning namlik sig‘imi deb to‘la to‘yingan nam havoda uning 1 kg quruq qismiga to‘g‘ri keladigan suv bug‘larining massa miqdoriga aytiladi va d_T xarfi bilan belgilanadi

$$d_T = \frac{m_{s.b.}^T}{m_{k.x.}} 1000 = 622 \frac{P_{s.b.}^T}{P_{k.x.}} = 622 \frac{P_{s.b.}^T}{P_b - P_{s.b.}^T}, \text{ r/kg.}$$

1. Havoning nisbiy namligi deb bir hil temperatura (xaroratda) nam havodagi suv bug‘larining haqiqiy parsial bosimini to‘la to‘yingan suv bug‘larining parsial bosimiga bo‘lgan nisbatiga aytiladi va φ xarfi bilan belgilanadi:

$$\varphi = \frac{P_{s.b.}}{P_{s.b.}^T} 100\% = \frac{d}{d_T} 100\%$$

bu yerda: φ -havoning suv bug‘lar bilan to‘la to‘yingan xolatiga nisbatan to‘yinish darajasini foizlar hisobida ko‘rsatadi; $R_{s.b.}$ -to‘la to‘yingan suv bug‘larining parsial bosimi faqat temperaturaga (xaroratga) bog‘liq.

4. Havoning zichligi, ρ , kg/m³:

quruq qismi uchun

$$\varphi = \frac{P_{s.b.}}{P_{s.b.}^T} 100\% = \frac{d}{d_T} 100\%$$

suv bug‘lari uchun

$$\rho_{c.b.} = \frac{m_{c.b.}}{V} = \frac{\frac{P_{c.b.}V}{R_{c.b.}T}}{V} = \frac{P_{c.b.}}{R_{c.b.}T} = 0,002165 \frac{P_{c.b.}}{T}, \text{ кг/м}^3$$

nam havo uchun

$$\rho = \frac{m_{k.x.} + m_{c.b.}}{V} = \frac{1}{T} [0,003488 (P_b - P_{c.b.}^k) + 0,002165 P_{c.b.}] =$$

$$= \frac{1}{T} (0,003488 P_b + 0,001323 P_{c.b.}), \text{ кг/м}^3$$

bu yerda: T -nam havoning temperaturasi, K ; R_b , $R_{s.b.}$ - mos ravishda atmosfera va suv bug‘larining bosimi, Pa.

5. Nam havoning issiqlik sig‘imi uning quruq qismi va suv bug‘larining issiqlik sig‘imlari yig‘indisiga teng:

quruq kismi uchun $Sk.k. = 1,005 \text{ kJ/(kg}\cdot\text{K)}$,

suv bug‘lari uchun

$$\frac{C_{c.b.}d}{1000} = \frac{1,8d}{1000} = 0,0018d, \text{ кЖ/(кг}\cdot\text{K)}.$$

6. Havoning entalpiyasi (issiqlik miqdori).

Havodagi issiqlik miqdorini ko‘rsatadi va I xarfi bilan belgilanib, kJ/(kg quruq havo) birligida o‘lchanadi.

Quruq havo entalpiyasi

$$Ik.x. = Sk.x \cdot t = 1,005 \cdot t, \text{ kJ/kg.}$$

Suv bug‘larining entalpiyasi

$$Is.b. = r + 1,8t, \text{ kJ/kg (13)}$$

bu yerda r -bug‘lanish issikligi, $0 \leq S$ da $r = 2500 \text{ kJ/kg}$ teng.

Nam havoning entalpiyasi uning quruq va nam kismalarining entalpiyalari yigindisiga teng:

$$I = I_{kx} + I_{cb} \frac{d}{1000} = 1,005t + (2500 + 1,8t) \frac{d}{1000}, \text{ кЖ/(кг курук хаво)}$$

Masalan: $t = 0 \leq S$ va $d = 0 \text{ g/kg}$ bo‘lganda havoning entalpiyasi nolga teng, shuning uchun entalpiya xisobi $t = 0 \leq S$ dan olib boriladi.

Nam havoning I-d- diagrammasi

Bu diagramma havoning xamma parametrlarini bir-biri bilan bog‘laydi. Diagrammani 1918 yilda prof. L.K. Ramzin taklif etgan.

Qiya burchak koordinat sistemasida quriladi, absissa va ordinata o‘qlari orasidagi burchak $135 \leq$ ga teng (1-rasm).

Absissa o‘qi bo‘ylab havoning tarkibiy namligi miqdori d qo‘yiladi, ordinata o‘qiga esa uning entalpiyasi I . Bundan tashqari diagrammada bir hil temperaturalar

Вентиляция ва ҳавони кондициялаш тизимлари

t (izotermalar), nisbiy namlik φ , zichlik ρ , suv bug'larining parsial bosimi $R_s.b.$ chiziqlari o'tqazilgan.

Diagramma konkret atmosfera bosimi uchun quriladi. Qurish paytida nam havoning termodinamik tenglamalaridan foydalaniladi.

Masalan: Izotermalar $t = \text{const}$ kurish paytida entalpiya uchun bo'lgan

$I = 1,005t + (2500 + 1,8t) d/1000$ tenglamadan foydalanamiz.

$t = \text{const}$ bo'lganda

$$I = a + vd,$$


bu yerda a va v -o'zgarmas sonlar. Bu to'g'ri chiziq tenglamasi, demak izotermalar ham to'g'ri chizikli bo'ladi. Har bir chiziqni ko'rish uchun 2-ta nuqtani bilish yetarli.

$t = 0^\circ\text{C}$ chiziqni ko'ramiz.

Birinchi nuqtamiz koordinata boshida bo'ladi, ya'ni

$t = 0^\circ\text{C}$ da $d = 0$ g/kg, $I = 0$ kJ/kg

$t = 0^\circ\text{C}$ da $d = 4$ g/kg, $I = 1,005 \cdot 0 + (2500 + 1,8 \cdot 0) 4/1000 = 10$ kJ/kg



1-rasm. Nam havoning I-d- diagrammasi

Ikkinchi nuqtamiz $d = 4$; $I = 10$. Ikkita nuqtalarni birlashtirsak $t = 0 \square S$ ga chizigini topamiz. Shu usulda $t = 1 \square S$ ga teng va boshka izotermalar quriladi.

Kolgan parametrlarning izochiziqlarini (o'zgarmas parametr chiziqlari) ularning termodinamik tenglamalaridan foydalanib chiziladi. $\square = 100\%$ chizigi tuyilgan havo parametrlari ko'rsatadi.

I-d-diagrammasida ko'rsatilgan nuqta havoning xolatini ko'rsatadi. Agarda 5 ta parametrlardan: I , d , t , \square , \square ikkitasi ma'lum bo'lsa, u holda *I-d* diagrammasi yordamida qolgan xamma parametrlarni topish mumkin.

Diagramma havo xolatining faqat parametrlarini aniqlashda emas, balki uning xolatini istalgan ketma-ketlikda va xar hil jarayonlarda: qizdirilganda, sovitilganda, namlanganda, quritilganda, aralashtirilganda, o'zgarishini qurish uchun juda qulaydir.

Havoning asosiy parametrlaridan tashqari, *I-d*-diagramma yordamida yana ikkita parametrlarni topish mumkin. Bu parametrlar ventilyatsiya va havoni konditsiyalashning hisoblarida keng ishlatiladi: *tsh*-shudring nuqtasining xarorati va *tn* - nam termometr harorati.

Yoz mavsumida issiqlik-namlanish jarayonlarini qurish ketma-ketligi.

1. Berilgan vazifaga asosan QMQ 2.01.01.94 dan berilgan shaxar uchun tashqi havo parametrlari (t_t , I) olinadi, *I-d* diagrammasidan tushiriladi va 1 bilan belgilanadi.

2. Xonaning belgilanishiga qarab QMQ 2.04.05.9* dan hona ichidagi parametrlar (t_{ϕ}) olinadi, *I-d* diagrammasiga tushiriladi va 4 nuqta bilan belgilanadi.

3. Yoz mavsumida sodir bo'ladigan xonadagi issiq namlanishning yo'nalish jarayonlarining miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$\varepsilon = \frac{Q_m}{W}, \quad (74)$$


bu yerda Q_m -Xonaga kirib keluvchi barcha issiqlik miqdori, Vt ;

W -ajralib chiqadigan namlik.

4. *I-d* diagrammaning burchak mashtabidan ε yo'nalishini aniqlab, *I-d* diagrammaga paralel tushiramiz jarayonni 4 nuqtadan boshlab Δt_h 8-10 °S ni aniqlab 3 nuqtani topamiz.

4. Xonaga beriladigan havoning parametrlari nuqtasi, ya'ni 3 chi nuqta izoterma Δt_s va ε larning kesishgan joyini 3 nuqta bilan belgilaymiz.

6. Ventilyator va havo kanallarida havoni 1° S isishini inobatga olib 3 nuqtadan $d=\text{const}$ 1° S qabul qilamiz va 2 nuqta bilan belgilaymiz.



2-Rasm. Yoz mavsumida xonada va havoni konditsiyalash uskunasida sodir bo‘ladigan issiqlik va namlanish jarayonlari.

Tashqi havoning parametrlari bilan 2 chi nuqtani tutashtirib (1-nuqta, 1-rasm), purkash bo‘limida yoki issiqlik va massa bo‘limida sodir bo‘ladigan, issiqlik va namlanish jarayoni.

1-2 jarayon-havoni konditsiyalash uskunasida tashqi havoni purkash yoki issiqlik yoki massa almashuv bo‘limida sodir bo‘ladigan sovitish, issiqlik va namlanish jarayonlari.

2-3 jarayon-havoni konditsiyalash ventilyator agregati va havo kanallarida havoning isish jarayoni;

3-4 jarayon xonada sodir bo‘ladigan issiqlik va namlanish jarayoni.

7. Yozda mavsumida xonaga beriladigan havoning miqdori I-d diagrammada qurilgan jarayon asosida quyidagicha aniqlanadi:

$$G = \frac{Q_m}{\Delta I} = \frac{Q_m}{I_4 - I_3} \text{ kg/soat,} \quad (75)$$

Q_m -Xonaga kirib keladigan to‘liq issiqlik, Vt.

I_4 -xona havosining tarkibiy issiqligi, kDj/kg;

I_3 -xonaga beriladigan havoning tarkibiy issiqligi, kDj/kg;

Havo massasining G , uning zichligiga nisbati (ρ) tizimning havo ishlab chiqaruvchanligini beradi va quyidagicha aniqlanadi:

$$L=G/\rho ; \quad \text{m}^3/\text{soat}, \quad (76)$$

Biz hisoblash natijasida markaziy konditsonerning katalogidan KTS- 3 yoki KPMK tanlaymiz yoki purkash bo‘limini hisoblaymiz.

Qish mavsumida issiq namlanish jarayonini I-d diagrammada qurish ketma-ketligi

1. I-d-diagrammaga tashqi havoning parametrlari QMQ 2.01.01.94 dan berilgan shaxar uchun tashqi havo parametrlari (t_t, I) olinadi, I-d diagrammasidan tushiriladi va 5 bilan belgilanadi.

2.Xonaning belgilanishiga qarab QMQ 2.04.05.97* dan hona ichidagi parametrlar ($t_{\phi,}$) olinadi, I-d diagrammasiga tushiriladi va 9 nuqta bilan belgilanadi.

4. (7) formula bo‘yicha aniqlangan xonadagi issiq-namlanish jarayoni asosida 8 nchi nuqtadan aniqlaymiz va I-d diagrammasiga tushiramiz.

Bu 8 chi nuqta xonaga berilayotgan havoning parametrlarini xarakterlaydi.

5. 8 chi nuqtadan pastga to nisbiy namlik $\phi=85-90\%$ gacha $d=\text{const}$ jarayon o‘tkaziladi. (2-rasm, 7-nuqta).

6. 7 nuqtadan havoning adiabatik namlash jarayoni asosida $\Delta I=0$ bilan 5 nuqtadan $d=\text{const}$ jarayonlarni I-d diagrammasiga tushiramiz va ularni kesishgan nuqtasini 6-nuqta bilan belgilaymiz.

2. Xonalarda sodir bo‘ladigan issiq namlanish jarayoni aniqlanadi

$$\varepsilon = \pm \frac{Q_m}{W}, \quad (6)$$

bu yerda Q_m -havoni konditsiyalash tizimining qish mavsumidagi issiqlik quvvati, Vt ;

W -namlikni ajralish miqdori, $kg/soat$;

3. Xonaga beriladigan havoning tarkibiy issiqligini quyidagicha aniqlamiz:


$$I_8 = I_9 \pm \Delta I_x \quad (7)$$

$$I_8 = I_9 \pm Q_m / L, \quad (8)$$

bu yerda I_9 -xonadagi havoning tarkibiy issiqligi kDj/kg , (2-rasm, 9-nuqta);

Q_m -havoni konditsiyalash tizimining issiqlik quvvati, Vt ;

L -tizimning ilgari (76) formula yordamida aniqlangan unumdorligi, $m^3/soat$



2-Rasm. Qish mavsumida xonada va havoni konditsiyalash uskunasida sodir bo‘ladigan issiqlik va namlinish jarayonlari

5-6 jarayon-havoni (aralashtirish bo‘lmaganda) isitish bo‘limining 1-bosqichda isitish jarayoni;

6-7 jarayon-havoni purkash bo‘limida adiabatik namlanish jarayoni;

7-8 jarayon-havoni isitish bo‘limining ikkinchi bosqichida isitilish jarayoni;

8-9 jarayon-xonada sodir bo‘ladigan jarayon.

Nazorat savollari

1. Nam havoning qanday xususiyatlari bor?
2. Nam havo I-d diagrammasida isitish va sovutish jarayonlari qanday tuziladi?
3. Adiabatik, izotermik namlanish jarayonlari qanday olinadi?
4. Issiqlik va massa almashinuvi jarayonlari nima uchun tuziladi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Нестеренко А.В. Основы термодинамических расчетов систем вентиляции и кондиционирования воздуха. Москва, Высшая школа, 1970.
2. Ананьев В.А., Балуева А.Н. и др “Система вентиляции и кондиционирования воздуха» Практика, учебное пособие, М, Евроклимат; Изд. Арктика 2000. 416 с.
4. Robert McDowall, Fundamentals of HVAC Systems America 2006
5. Energy management series 10 Heating ventilating and air conditioning Canada 2010

4-amaliy mashg‘ulot: Ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlaridagi havo kanallarining aerodinamik hisobi.

Ishqalanishga bosim yo‘qolishi o‘rganish. Havo quvurlarining aerodinamik xisobiy yechimi. Issiqlik almashgichlar. Regenirativ va rekuperativ issiqlik almashgichlar. (Teploutilizatorlar) va ularni xisoblash. Ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlarida energiyatejamkorlik samaradorligini oshirish. Havoni konditsiyalash tizimini qurish va undan foydalanish. Teploutilizatorlarning turlari. Teploutilizatorlarni ishlatish va qo‘llanishi. Teploutilizatorlar tayyorlashdagi qo‘llaniladigan materiallari turlari.

Masalaning qo‘yilishi: Havoni konditsiyalashda uning issiqlik, namlik holati o‘zgaradi. Bu o‘zgarishlarni hisoblash va ko‘rsatish uchun $I-d$ – diagrammasidan foydalanish juda qulaydir.

$I-d$ – diagrammasida, havoning boshlang‘ich holatiga mos bo‘lgan 1-nuqtani va uning o‘zgargan holatiga mos bo‘lgan 2-nuqtani ko‘rsataylik (3.3-rasm).


Bu ikkita nuqtani birlashtiruvchi to‘g‘ri chiziq, havoning issiqlik, namlik holatining o‘zgarishni tavsiflaydi va jarayon nuri deb ataladi.

$I-d$ – diagrammasida jarayon nurining holati burchak koeffitsiyenti bilan aniqlanadi. Agar, nam havo o‘zining holatini boshlang‘ich I_1 va d_1 oxirgi I_2 va d_2 qiymatigacha o‘zgartirgan bo‘lsa, unda quyidagi nisbatni yozish mumkin

$$\varepsilon = \frac{I_2 - I_1}{d_2 - d_1} 1000, \quad (3.15)$$

ε - koeffitsiyenti kJ/kg birlikka o‘lchanadi.

Bu parametr yana issiqlik, namlik nisbati deyiladi, chunki u havo 1 kg namlik olinganda (yoki berilganda) issiqlik miqdori qanchaga o‘zgarganini ko‘rsatadi. Agar havoning boshlang‘ich parametrlari har xil bo‘lib, qiymatlari bir xil bo‘lsa, unda havo holatining o‘zgarishini ifodalovchi chiziqlar o‘zaro parallel bo‘ladi.



3.3-rasm. I-d-diagrammasida havoning holatini o‘zgarishi jarayonlarini aniqlash
 1 – havoning boshlang‘ich holati; 2 – havoning oxirgi holati; 1-2 – havoning holati o‘zgarish jarayoni

(3.15) ifodaning surati va maxrajini jarayonda ishtirok etayotgan havoning sarfi G ga, kg/soat, ko‘paytirib, quyidagini topish mumkin:

$$\varepsilon = \frac{(I_2 - I_1)G}{(d_2 - d_1)G} 1000 = \frac{Q_T}{W_{opt}} \quad (3.16)$$

bu yerda Q_T – havoning holati o‘zgarishi jarayonida almashinilgan to‘liq issiqlik oqimi, kJ/soat; W_{opt} – havoning holati o‘zgarishi jarayonida almashinilgan namlik sarfi, kg/soat.

Jarayon chiziqlari $I-d$ – diagrammaga bir nechta usul orqali chizib tushiriladi: hisoblar asosida bevosita chizib tushurish; $I-d$ – diagrammasidagi burchakli masshtabdan foydalanib tushirish; burchakli masshtab transportidan foydalanib tushirish.


Havoni qizdirish va sovitish jarayonlari.

Isitish eng oddiy jarayon bo‘lib, unda quruq issiq sirdan havoga konvektiv issiqlik almashinish orqali oshkora issiqlik beriladi. Bu jarayonda havoning tarkibiy namligi o‘zgarmaydi, shuning uchun $I-d$ -diagrammasida isitish jarayoni $d=\text{const}$ chizig‘i bo‘yicha pastdan yuqoriga yo‘nalgan bo‘ladi.

chizig'i bo'yicha pastga chap tomonga yo'nalgan bo'ladi, masalan 5-nuqtagacha $\varphi = 100\%$ chizig'i bo'yicha sovitish faqatgina oshkora issiqlikni berish bilan bog'liqdir, shuning uchun bu jarayon murakkabroq bo'lgan issiqlik va namlik almashish jarayoniga kiradi.

Adiabatik namlanish jarayoni. Suvning yupqa qatlami yoki tomchisi havo bilan kontaktda bo'lganda nam termometr haroratni qabul qiladi. Bunday haroratga ega bo'lgan suv bilan havo kontaktda bo'lganda, havoni adiabatik (izoentalpiyali) namlanish jarayoni sodir bo'ladi. *I-d*-diagrammada bunday jarayon $I = \text{const}$ chizig'i bo'yicha yo'nalgan bo'ladi (chapdan pastga o'ng tomonga). Agar 1 holatidagi havo (3.6-rasm) nam termometr harorati t_{n1} ga teng bo'lgan suv bilan kontaktda bo'lsa, unda uning holati $I_1 = \text{const}$ chizig'i bo'yicha o'zgaradi, masalan, 2-nuqtagacha, bunda 1kg havoning quruq qismida Δd_1 g. namlik assimilyatsiyalanadi (aralashib ketadi). Mazkur jarayonda havoning oxirgi namlik bilan to'yingan holati 3-nuqtada jarayon nuri va $\varphi = 100\%$ egri chizig'ining kesishgan joyidir.

Konditsiyalashda ko'pincha havoni resirkulyatsiyali suv bilan adiabatik namlashdan foydalaniladi. Buning uchun purkash kamerasida suv yana nasos yordamida olinadi. Suv havo bilan uzluksiz kontaktda bo'lgach, nam termometr haroratiga yaqin haroratga ega bo'ladi va kichik miqdorda (1-3% gacha) bug'lanib, kameradan o'tayotgan havoni namlaydi. Haqiqiy jarayon $I = \text{const}$ chizig'idan, nam havodagi suv bug'i ulushining issiqlik sig'imi ortishi natijasida biroz yuqoriga siljiydi, lekin bu siljish amalda yo'q darajada kamdir.



3.5. – rasm. Havoni izoentalpiyal va izotermik namlanish rejimi ko‘rsatilgan $I-d$ – diagrammasi

Nam termometr sharchasining sirtida sodir bo‘layotgan adiabatik jarayonni ko‘rib chiqaylik (3.5 – rasmga qarang)

$$I_2 = I_1 + (W\delta/G)t_2c_w \text{ yoki } I_2 - I_1 = (W\delta/G)t_2c_w; \quad (3.17)$$

$$d_2/1000 = d_1/1000 + W\delta/G \text{ yoki } (d_2 - d_1)/1000 = W\delta/G; \quad (3.18)$$

(3.17) ifodani (3.18) formulaga bo‘lganda, olamiz:

$$\varepsilon = [(I_2 - I_1)/(d_2 - d_1)] \cdot 1000 = t_2c_w = t_n c_w \quad (3.19)$$


Shunday qilib, nam termometr sharchasining sirtidagi jarayon burchak koeffitsiyentining $\varepsilon = t_n c_w$ ga teng bo‘lgan qiymatida sodir bo‘ladi. Bu yerdan, aytish mumkinki, adiabatik (izoentalpiyal) jarayon faqat $t_n = 0^\circ\text{S}$ qiymatida bo‘lishi mumkin. Qolgan boshqa hollarda izoentalpiyalikdan chetga chiqish kuzatiladi.

Izotermik namlanish jarayoni. Agar havoga, u quruq termometr bo‘yicha ega bo‘lgan haroratiga teng haroratli bug‘ berilsa, unda havo o‘zining haroratini o‘zgartirmasdan turib, namlanadi. Havoni bug‘ bilan izotermik namlanish jarayonini $I-d$ -diagrammasida $t = \text{const}$ chiziqlar bo‘yicha kuzatish mumkin. Parametrlari 1-nuqta bilan aniqlangan havoga bug‘ berilsa (3.5 – rasmga qarang), havoning holati $t_1 = \text{const}$ chizig‘i bo‘yicha o‘zgaradi (chapdan o‘ngga).

Namlanishdan so'ng bu izoterma bo'yicha havoning holati ixtiyoriy nuqtaga mos bo'lishi mumkin, masalan, Δd_2 namlik assimilyatsiyasida 4- nuqta. Mazkur jarayonda havoning oxirgi holati t_1 chizig'ining va $\varphi=100\%$ chizig'ining kesishish nuqtasi 5 dir.

Issiqlik va namlik almashinuvidagi politropik jarayonlarini o'rganish.

Konditsiyalashda havo holatining o'zgarishlari ko'p jarayonlarda havoga bir vaqtning o'zida issiqlik va namlikning berilishi yoki olinishi bilan bog'liqdir. Havo holatining bunday o'zgarishlari, masalan, xonalarda sodir bo'ladi, bu yerda bir vaqtning o'zida oshkora issiqlik va suvning bug'lari ajralib chiqadi yoki bir vaqtning o'zida havo sovutiladi va quritiladi. Havoda assimilyatsiyalangan issiqlik va namlik miqdorlarning ixtiyoriy nisbatida, havo holatining o'zgarishini *I-d*-diagrammada har xil yo'nalishga ega bo'lgan chiziqlar bilan ko'rsatish mumkin (3.6-rasm).



3.6-rasm. Nam havo holatining harakterli o'zgarishlari
 1-2-quruq isish; 1-3-namlanib isish; 1-4-adiabatali namlanish; 1-5-quruq sovush;
 1-6-qurutilib sovush

Agar havo quruq qismining sarfi G kg/soat bo'lgan havo oqimiga, Q kJ/soat issiqlik va W kg/soat namlik berilsa, unda uning entalpiyasi ΔI kJ/kg ga:

$$Q = G \Delta I, \quad (3.20)$$

tarkibiy namligi esa- $\Delta d'$ kg/kg ga o'zgaradi:

$$W = G \Delta d' \quad (3.21)$$

(3.21) va (3.22) tenglamalarning o'ng va chap tomonlarining nisbati, $I-d$ -diagrammasida havo holati o'zgarishi jarayon nuri yo'nalishining ko'rsatkichi bo'lib, burchak koeffitsiyenti ga tengdir.

$$\varepsilon = Q/W = \Delta I / \Delta d' \quad (3.22)$$

Xonalarda yoki kameralarda ishlov berilganda havo holatining o'zgarishi uning entalpiyasi va tarkibiy namligi o'zgarishiga olib keladi. Havoning boshlang'ich holatini va sarfi G ni, to'liq issiqlik kirishi Q ni va havoga namlik berilishi W ni bilib turib, ε ko'rsatkichi va $I-d$ -diagrammasidan foydalanib, havoning oxirgi parametrlarini aniqlash mumkin. Boshqa hollarda, qolgan kattaliklar berilgan bo'lib, noma'lumlar qatorida: havoning sarfi G , issiqlik Q va namli W bo'lishi mumkin.

Ixtiyoriy ε ko'rsatkichi politropik jarayon, o'z ichiga havo holatining hamma mumkin bo'lgan o'zgarishlarini oladi (3.7-rasmga qarang).

Misol: 1-havoning boshlang'ich holati; 1-2 o'zgarmas namlik miqdorida havoning isitish jarayoni $I_2 > I_1 > 0$; $d_2 - d_1 = 0$ bu jarayon isitgichlarda oqib o'tadi (kaloriferlarda)

$$\varepsilon_{1-2} = \frac{I_2 - I_1}{d_2 - d_1} = \frac{I_2 - I_1}{0} = +\infty;$$

1-3-havoni isitish va namlash jarayoni

$$\varepsilon_{1-2} = \frac{I_2 - I_1}{d_2 - d_1} > 0;$$

1-4-havoni adiabatali namlash jarayoni (adiabatik deb nam havoning o'zgarmas entalpiyasi bilan oqib o'tadigan jarayoniga aytiladi, ya'ni havoga issiqlik berishsiz yoki olishsiz amalga oshirilgan jarayonga).

$$\varepsilon_{1-4} = \frac{I_4 - I_1}{d_4 - d_1} = \frac{0}{d_4 - d_1} = 0;$$

1-5-o'zgarmas namlik miqdorida havoni sovitish jarayoni (quruq sovitish):

$$\varepsilon_{1-5} = \frac{I_5 - I_1}{d_5 - d_1} = -\infty;$$

1-6-havoni sovitish va quritish jarayoni:


$$\varepsilon_{1-6} = \frac{I_6 - I_1}{d_6 - d_1} < 0.$$

I-d-diagrammasida chiziqlarni qurish uchun burchak masshtabi quriladi. Bir xil burchak koeffitsiyentiga ega bo‘lgan jarayonlar parallel chiziqlar bilan quriladi.

Konditsiyalashda ba’zi bir hollarda, xonaga beriladigan tashqi havoni ichki havo bilan aralashtirishadi (ichki havoning resirkulyatsiyasi, ya’ni qayta aylanish). Har xil holatlardagi havo massalarini aralashtirishning boshqa hollari ham bo‘lishi mumkin. *I-d*-diagrammasida havoning aralashish jarayoni, aralashayotgan havo massalarining holatini aniqlovchi nuqtalarini birlashtiruvchi to‘g‘ri chiziq bilan ko‘rsatiladi. Agar 1 holatida bo‘lgan (4.7-rasm) *G* miqdordagi havoni, 2 holatida bo‘lgan *nG* miqdordagi havo bilan aralashtirilsa, unda 3 aralashma nuqtasi 1-2 kesmani yoki Δt_{1-2} va Δd_{1-2} bo‘lgan uning proyeksiyalarini 1-2, 3-2 qismlarga yoki Δt_{1-3} , Δt_{3-2} va Δd_{1-3} , Δd_{3-2} ga bo‘ladi:

$$\frac{1-2}{3-2} = \frac{\Delta t_{1-3}}{\Delta t_{3-2}} = \frac{\Delta d_{1-3}}{\Delta d_{3-2}} = \frac{G}{nG} = \frac{1}{n}. \quad (3.23)$$

Shunday qilib, aralashma nuqtasini topish uchun, 1-2 to‘g‘ri chiziqni yoki uning proyeksiyalarini *n+1* qismiga bo‘lib, 1-nuqtadan bir qism, qolgan *n* qismlarni 2- nuqtagacha o‘lchab qo‘yish lozim. Bunday chizish aralashma nuqtasining joylashishini aniqlaydi. Aralashma 3’ nuqtasi $\varphi=100\%$ chizig‘idan pastroq bo‘lishi ham mumkin. Aralashish natijasida tuman hosil bo‘lganini (havodagi suv bug‘laridan tomchilar hosil bo‘lishini, kondensatsiyalanishini) ko‘rsatadi.




3.7-rasm. Har xil holatidagi ikki massa havoning aralashish rejimi tasvirlangan I-d-diagrammasi

Misol: $G_1 = 1000$ kg; $G_2 = 3000$ kg; $d_1 = 10$ g/kg; $d_2 = 5$ g/kg. 1 va 2 nuqtalar orasidagi masofa 140 mm ga teng. Aralashma nuqtasi 3 topilsin.

Yechim: Aralashma nuqtasi 3 1-2 to'g'ri chiziq ustida yotadi (3.7-rasm), bo'lakchalar nisbati quyidagiga teng bo'ladi $1-3/2-3 = 3000/1000 = 3$.

Nuqtalar orasidagi uzunlikni 4ta qismga bo'lamiz. Uchinchi nuqta 2-nuqtadan $140:4 = 35$ mm masofada bo'ladi, ya'ni bir qism uzunligida.

Havoni konditsiyalash tizimlarining struktura sxemasi.



XKKT – havo qabul qilish tizimi.

ISTT – issiq suv bilan ta'minlash tizimi.
STT – sovuqlik bilan ta'minlash tizimi.
ETT – energiya bilan ta'minlash tizimi.
SKT – suv va kanalizatsiya tizimi.
SAT – sozlash va avtomatika tizimi.
XChT – havoni chiqarish tizimi.
XTT – havoni taqsimlash tizimi.
IIBT – ikkilamchi ishlov berish tizimi.

Uskunalar (havoga issiq namlik berish asosida ishlov berish), xona kanallarining tizimlari va qabul qilish ashyolari; taqsimlash; xavoni tashqariga chiqarish va resirkulyatsiya qilish; sozlash ob'ekti bo'lgan xonadir.

Qo'shimcha kontur II (issiqlik va sovuqlik bilan ta'minlash tizimlari) o'z navbatida bular xam uchta asosiy elementlardan tashkil topgan: issiqlik va namlik asosida ishlov berish uskunalar, issiqlik va sovuqlik manbalari (issiqlik almashgichlar, sovitish stansiyalari)

Havoni konditsiyalash tizimi belgilanishiga qarab xonaga issiqlik va namlik holatini sozlash funksiyasi yuklatiladi, oldindan tozalangan hav xonaga uzatiladi. Tashqi havoni havo so'rib olish uskunalar yordamida surib olinadi.(rasm 1.3). Havoni konditsiyalash uskunasidagi filtrda tozalanadi maqsadga muvofiq bo'lsa retsikulyatsion havo bilan almashtiriladi. Maxsus uskunalarida, sozlanuvchi issiqlik-namlanish asosida ishlov beriladi. Dovodchilikda yo'l yo'lakay ishlov beriladi.

Havo konditsiyalash tizimlarini prinsipial va struktura sxemalaridan kelib chiqadiki umumiy kompleksni va uning texnik uskunalarini ikkita bir biri bilan bog'liq bo'lgan kontur sifatida ko'rsatish mumkin. (rasm 1.5).

Asosiy kontur 1. Bu yerda konditsiyalanuvchi havoga ishlov beriladi va harakatlantiriladi, asosan uchta elementdan ya'ni havoni konditsiyalash.

4-ilova

Nazorat savollari

1. Nam havoning termodinamikasi?
2. Nam havoning asosiy parametrlariga nimalar kiradi?
3. Havoning tarkibiy namligi, namlik sig'imi, nisbiy namligi, zichligi, issiqlik sig'imi deb nimalarga aytiladi?
4. Nam havoning I-d diagrammasi kim tomonidan taklif etilgan va qanday tuzilishga egadir?
5. I-d diagrammasida havoning nechta parametrlari o'zaro bog'langan bo'ladi

va qanday topiladi?

6. Shudring nuqtasi deb nimaga aytiladi?
7. I-d diagrammasida havoning nam termometr harorati qanday topiladi?
8. I-d diagrammasida havoning ventilyatsiya tizimlari apparatlaridagi havo holatining o'zgarish jarayonlari qanday ko'rinishga ega?
9. Havoning isitish va sovitish jarayonlarini I-d diagrammasida tasvirlab bering.
10. Havoni adiabatik (izoentalpiyali) namlanish jarayonini I-d diagrammasi tasvirlab bering.
11. Havoni izotermik namlanish jarayonini I-d diagrammasida tasvirlab bering.
12. Havoni issiqlik va namlik almashishdagi politropik jarayonini I-d diagrammasida tasvirlab bering.
13. Havoni aralashish jarayonini I-d diagrammasida tasvirlab bering.

5-ilova

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Нестеренко А.В. Основы термодинамических расчетов систем вентиляции и кондиционирования воздуха. Москва, Высшая школа, 1970.
2. Ананьев В.А., Балуева А.Н. и др "Система вентиляции и кондиционирования воздуха» Практика, учебное пособие, М, Евроклимат; Изд. Арктика 2000. 416 с.
- 4. Robert McDowall, Fundamentals of HVAC Systems America 2006**
5. Energy management series 10 Heating ventilating and air conditioning Canada 2010

4-amaliy mashg‘ulot:. Ventilyatsiya va havoni konditsiyalash tizimlaridagi havo kanallarining aerodinamik hisobi.

III.Erkin havo oqimlarining aerodinamikasi.

Bo‘limlarni ventilyatsiya jarayonida ularda turli xil havo oqimlari paydo bo‘ladi. Havo oqimlari havo quvurlarining oqib kelish teshiklaridan boshlanib xonaga tarqaladi. Bu oqim xona xajmida zararli moddalarning konsentratsiyasi tezlik va xarakat maydonlarini xosil qiladi.

Bo‘limga oqib keladigan havoni to‘g‘ritaqsimlashda havo oqimlari katta rol o‘ynaydi.

Havoni konditsiyalash texnikasida havo oqimlari xonadagi havo bilan aralashadi, bunday oqimlar cho‘ktirilgan deb ataladi.

Gidrodinamik rejimiga ko‘ra havo oqimlari laminar va turbulent bo‘lishi mumkin. Oqib keluvchi ventilyatsion havo oqimlari xar doim turbulent bo‘ladi.

Havo oqimlari izotermik va izotermik bo‘lmagan oqimlarga bo‘linadi.

Izotermik oqimlarda butun oqim bo‘ylab temperatura o‘zgarmas bo‘lib xonadagi havo xaroratiga teng. Agarda temperaturalar farqi mavjud bo‘lsa bunday havo oqimlari izotermik bo‘lmagan oqimlar bo‘ladi. Xonalarni ventilyatsiya qilishda ko‘pincha izotermik bo‘lmagan oqimlar ishlatiladi.

Agarda havo oqimi o‘z yo‘lida to‘siqlarga duch kelmasa va erkin xarakatda bo‘lsa bunday oqim erkin oqim deyiladi. Agarda oqim o‘z yo‘lida to‘siq konstruksiyalari bilan qisilgan bo‘lsa u holda erkin bo‘lmagan yoki qisilgan oqim deyiladi.

Umumiy holda albatta xonaning to‘sik konstruksiyalari oqib keluvchi ventilyatsiya havo oqimlariga ta’sir ko‘rsatadilar. Lekin ma’lum sharoitlarda bu ta’sirni hisobga olmasdan turib oqib keluvchi havo oqimlarini erkin oqimlar deb ko‘riladi. Havo oqimi to‘sik konstruksiyasining sirtiga yaqin joylashgan teshikdan xosil bo‘lsa (masalan shipga) va bu sirtga parallel tarqalib unga yoyilsa bunday oqim yoyilgan deyiladi.

Xamma oqimlar ikki guruxga bo'linadilar:

1. Tezlik vektorlari parallel bo'lgan:
2. Tezlik vektorlari orasida ma'lum burchak bor bo'lgan oqimlar.

Oqib kelish utkazmasini (pritochno'y nasadok) geometrik shakli oqimning shaklini va uning tarqalish qonuniyatlarini aniqlaydi.

Shakli bo'yicha ixcham (kompakt), yassi (ploskiy) va xalqasimon (kolsevoy) oqimlar mavjud.

Ixcham oqimlar havo yumaloq, kvadrat, aylana va to'g'riburchak teshiklardan oqib chiqayotganda paydo bo'ladi. Yumaloq teshiklarda oqib chiqayotgan oqimlar butun uzunligi bo'yicha yumaloq bo'lib o'z o'qiga nisbatan simmetriyali bo'ladi.

Kvadrat va to'g'riburchak teshiklardan oqib chiqayotgan oqimlar boshida o'z o'qiga nisbatan simmetriyali bo'lmaydi, keyinchalik ma'lum masofadan so'ng o'qiga simmetriyali oqim bo'lib qoladi.

Yassi oqimlar uzunligi cheksiz bo'lgan tirqishli teshiklardan oqib chiqish natijasida xosil bo'ladi. Amalda tirqish uzunligi uning balandligidan yigirma marta katta bo'lsa oqim yassi oqim deb hisoblanadi, ya'ni $\ell : 2B_0 \geq 20$.

Agar havo oqimi xalqali teshikdan oqib chiqayotganda kanal o'qiga nisbatan $\beta < 180^\circ$, bunday oqim xalqali, 135° atrofida bo'lsa-to'la konusli, va $\beta = 90^\circ$ -to'la yelpigichli deyiladi.

Tarqatish va so'rish teshiklari atrofidagi havo xarakatining su'rati mutlaqo bir-biridan farqlanadi. Agarda so'rish teshigiga havo oqimi xar tomonlaridan bir hilda oqib kelsa tarqatish teshigida u 25° burchagida yoyiladigan havo oqimida otilib chiqadi.

Sof nazariy nuqtaviy va chiziqli quyilish tushunchalarini ko'rib chiqaylik.

Nuqtaviy quyilishda orasida joylashgan nuqtaga «L» sarfli havo oqimi so'riladi.

Nuqtaviy va chiziqli quyilish tushunchalari real teshiklarda xosil bo'ladigan havoni so'rish xarakatini faqat sifatli baholashni imkoniyat beradi. Eksperimental tekshirishlar so'rish texniklari

oldidagi havo tezliklari ancha nazariya beradigan kattaliklarda farqlanishni ko'rsatadi. Xaqiqiy so'rish teshiklari oldidagi havo harakati uning geometrik shakliga va tomonlarining nisbatlariga bog'liqdir.

III.2. Havo quvurlarining aerodinamik xisobi.

Havo quvurlarini aerodinamik hisoblashdan maqsad ularning o'lchamlarini, kesimini xamda quvur qisimlarida va butun sistemada bosim yo'qotilishini xisoblash. Bu to'g'rimasaladir.

To'g'rimasalada: berilgan kattaliklar l -havoni sarfi, $m^3/soat$ aniqlanadigan: d -diametr, mm, Δr -bosim yo'qolishi, pa. Dinamik bosim bu havo oqimining $1m^3$ xajmiga to'g'rikeladigan kinetik energiyasidir. Dinamik bosim quyidagi formuladan aniqlanadi.

$$P_q = \frac{\rho v^2}{2} \quad (44)$$

Bu yerda: v - kesimdagi havoning tezligi, m/s.


To'liq bosim statik va dinamik bosimlarning yigindisiga teng bo'ladi:

$$R_t = r_{st} + r_d \quad (45)$$

Bosim SI sistemasida Pa da o'lchanadi $1Pa = 1N/m^2$; $mgss$ sistemasida esa kgs/m^2

Ishqalanishga bosim yo'qolishi

Havo quvurining 1-1 va 2-2 kesimlar orasidagi bosim yo'qolishini ko'rib chiqaylik



kesimlar orasidagi masofa l -ga teng bo'lsin, m, kesim yuzasi f , m^2 , perimetr p , m, va havo sarfi l , $m^3/soat$ ga teng bo'lsin.

1-1 kesimda statik bosim r_i , ii-ii-kesimda esa $r_i < r_{ii}$.

Kesimlar orasidagi havo xajmiga $(r_i - r_{ii}) f$, kuch ta'sir qiladi. Bu kuch ishqalanishga sarflanadi, ya'ni

$$(p_i - p_{ii}) f = \tau_0 l p \quad (46)$$

Bu yerdan

$$\tau_0 = \frac{(P_I - P_{II}) f}{\ell \Pi} \quad (47)$$

Bu yerda: τ_0 -urunma kuchlanish (kasatelnoye napryajeniye). Urunma kuch dinamik bosimga to'g'riproporsional bo'ladi

$$\tau_0 = \Psi \frac{\rho v^2}{2} \quad (48)$$

Bu yerda: Ψ -Veysbax formulasidagi ishqalanish koeffitsiyenti.

Yuqoridagi formulalardan bosim yo'qolishini aniqlaymiz

$$\Delta P_u = P_I - P_{II} = \Psi \frac{\ell \Pi}{f} \frac{\rho v^2}{2} \quad (49)$$

Yoki yumaloq havo quvurlari uchun $f/p = d/4$

$$\Delta P_u = \lambda_u \frac{\ell}{d} \frac{\rho v^2}{2} \quad (50)$$

Bu Darsi formulasi bo'lib, unda $\lambda_u = 4\Psi$ -ishqalanish koeffitsiyenti deyiladi.

Ixtiyeriy kesimga ega bo'lgan havo quvurlari uchun

$$\Delta P_u = \lambda_u \frac{\ell \Pi}{4f} \frac{\rho v^2}{2} \quad (51)$$

Bu yerda:

$$\lambda_u = f(\text{Re}, \frac{K}{d}) = 0,11 \left(\frac{68}{\text{Re}} + \frac{K}{d} \right)^{0,25} \quad (52)$$

Muxandislik xisoblarda l uzunlikdagi havo quvurlarda bosim yo'qolishi quyidagi ifodadan aniklash qabul qilingan

$$\Delta P_u = R \ell \quad (53)$$

Bu yerda:

R -1 m havo quvuridagi bosim yo‘qolishi, Pa/m; l -quvur uzunligi, m; r -kattaligi uchun maxsus jadvallar va nomogrammlar mavjud.

Loyhalash tajribasida uch xil ekvivalent diametrlardan foydalaniladi:

1. Tezlik bo‘yicha ekvivalent diametr- d_v
2. Sarf bo‘yicha- d_l
3. Kesim yuzasi bo‘yicha - d_f

Tezlik bo‘yicha ekvivalent diametr quyidagi formulalardan aniqlanadi.

$$\Delta P_{u_T} = \lambda_u \frac{\ell 2(a+b)}{4ab} \frac{\rho v^2}{2} \quad (54)$$

$$\Delta P_{u_{\text{ю}}} = \lambda_u \frac{\ell}{d_v} \frac{\rho v^2}{2} \quad (55)$$

$$\Delta P_{u_T} = \Delta P_{u_{\text{ю}}} \rightarrow d_v = \frac{2ab}{a+b} \quad (56)$$

$$d_v = \frac{2ab}{a+b} \quad (57)$$

Sarf bo‘yicha ekvivalent diametr quyidagi formulalardan aniqlanadi.

$$\Delta P_{u_T} = \lambda_u \frac{\ell 2(a+b)}{4ab} \frac{\rho L^2}{(ab)^2 2} \quad (58)$$

$$\Delta P_{u_{\text{ю}}} = \lambda_u \frac{\ell}{d_L} \frac{\rho L^2}{(\pi d_L^2 / 4)^2 2} \quad (59)$$

$$\Delta P_{u_T} = \Delta P_{u_{\text{ю}}} \quad (60)$$

$$d_L^5 = \frac{32a^3b^3}{\pi^2 (a+b)} = 1,265 \sqrt[5]{\frac{a^3b^3}{a+b}} \quad (61)$$

Kesim yuzasi bo'yicha ekvivalent diametr quyidagi ifodalardan aniqlanadi.

$$a \times b = \frac{\pi d_f^2}{4} \quad (62)$$

$$d_f = 2\sqrt{\frac{ab}{\pi}} \quad (63)$$

Havo quvurlarining aerodinamik xisobi.

Maxaliy qarshiliklarda bosim yo'qolishi Xarakat bo'lgan havo oqimi yulanishni o'zgartirilsa, burulsa, bo'linsa yoki birlashsa, havo quvurlarining kesimi o'zgarsa (diffuzorda kengaysa, yeki konfuzorda kamaysa), drossel, diafragma, shiberlarda rostlansa bosim yo'qolishi kuzatiladi.

Bunday hollarda havo tezlik maydonlari o'zgaradi, o'ramalar paydo bo'ladi, oqim energiya sarflanadi va bosim yo'qoladi.

Maxalliy qarshiliklardagi bosim yo'qolishi dinamik bosimga to'g'riproportionaldir.

$$\Delta P_{MK} = \zeta \frac{\rho v^2}{2} \quad (64)$$

Bu yerda: ζ -maxalliy qarshilik koeffitsiyenti deb nomlanadi.

Havo quvurining uchastkasidagi bosim yo'qolishi quyidagicha ifodadan topiladi

$$Z = \sum \zeta P_q = \sum \zeta \frac{\rho v^2}{2} \quad (65)$$

Bu yerda: $\sum \zeta$ -uchastkadagi maxalliy qarshilik koeffitsiyentlarini yig'indisi.

Umumiy bosim yo'qolishi quyidagicha formuladan topiladi

$$\Delta P_{uch} = Rl + z \quad (66)$$

$$\text{yoki} \quad \Delta P_{uch} = R\beta_u l + z \quad (67)$$

Bu yerda β_u -havo quvurlarini devorlarining g'adir budirligini hisobga oluvchi koeffitsiyent.

Havo quvurlarini aerodinamik hisobi

Aerodinamik hisobi yuqorida keltirilgan formulalar asosida va quyidagi ketma-ketlikda bajariladi.

1. Havoni konditsiyalash konstruktiv yechimiga asoslanib aksonometrik sxema chiziladi. Aksonometrik sxemada uchastkalarining nomerlari uzunligi va havo sarfi beliglanadi. Eng kichik sarfli uchastkadan boshlab uchastakalarga nomer beriladi.

2. Asosiy magistral yoʻnalish tanlanadi. Asosiy magistral yoʻnalish deb ketma-ket joylashgan uchastakalardan iborat uzunligi eng katta boʻlgan magistral qabul qilinadi. Agarda magistrallar uzunligi teng boʻlsa asosiy magistralda yuklamasi katta boʻlgan magistralni qabul qilinadi.

Tabiiy soʻrma sistemalarda esa asosiy magistral yoʻnalishi deb yuqori qavattagi panjaradan eng uzoqda ketma-ket joylashgan uchastkalar qabul qilinadi.

3. Eng uzoqda joylashgan uchastkadan boshlab tarmoqlarning havo sarfini qoʻshib uchastakalardagi hisobiy havo sarfi aniqlanadi.

4. Magsitralni hisobiy uchastkalarni kesim oʻlchamlarini diametrlarini adabiyotlar asosida aniqlanadi. Taxminiy kesim yuzasini quyidagi formuladan qabul qilinadi

$$F = \frac{L}{3600v_{\text{max}}}, \text{ m}^2 \quad (68)$$

Bu yerda: l -uchastkadagi hisobiy havo sarfi, m^3/soat , v_{tav} -ventilyatsiya tizimlarni uchastkalarida tavsiya etiladigan havoning harakat tezligi, m/s .

Kesimni yuzasini taxminan aniqlash uchun tavsiya etilgan havo xarakat tezligi, v_{tav} .

19-jadval.

Havo quvurlari, kanallar va shaxtalar	v_{tav} -qiymatlari, m/s	
	Tabiiy ventilyatsiyada	Sunʼiy ventilyatsiyada
Jamoat binolarida		

Havo qabul qilish jixozlari	0,5-1,0	2,0-4,0
Kanallar va havo oqimi shaxtalar	1,0-2,0	2,0-6,0
Gorizontal to‘planish kanallari	1,0-1,5	5,0-8,0
Vertikal kanallar	1,0-1,5	2,0-5,0
Ship tagidagi havo berish panjaralari	0,5-1,0	0,5-1,0
Havoni so‘rib chiqarish panjaralari	0,5-1,0	1,0-2,0
Havoni so‘rib chiqarish shaxtalar	1,5-2,0	3,0-6,0
Sanoat binolarida		
Magistrallarda	-	12 gacha
Tarmoqlarda	-	5 gacha

5. Qabul qilingan standart havo quvurini kesim yuzasini hisobga olib haqiqiy havoni xarakat tezligi aniqlanadi.

$$v_{\text{хак}} = \frac{L}{3600F_{\text{хак}}}, \text{ м/с} \quad (69)$$

Shu tezlikka asoslanib **1**-formuladan uchastakadagi dinamik bosim hisoblanadi.

6. Po‘latli aylanma kesimli havo quvurlarga tuzilgan nomogrammalardan va jadvallardan 1 m havo quvuridagi bosim yo‘qolishini aniqlanadi.

Boshqa materialli havo quvurini devorlarining g‘adir budurligi po‘lat havo quvurlarini g‘adir budurligiga teng emas holda, ishqalanish qarshilikni hisoblashda shu farqni hisobga oluvchi koeffitsiyentni β ni kiritish kerak.

Kesimi to‘g‘riburchakli **axv** o‘lchamli bo‘lgan havo quvurlarni hisoblashda tezlik bo‘yicha ekvivalent diametr tushinchasi ishlatiladi

$$d_v = \frac{2a \cdot \epsilon}{a + \epsilon} \quad (70)$$

7. Sistemadagi umumiy bosim yo‘qolishi magistral havo quvurlar va ventilyatsiya asbob-uskunalaridagi bosim yo‘qolishini yig‘indisiga teng.

$$\Delta P = \sum (R\beta_u \ell + Z)_{\text{маг}} + \Delta P_{\text{ускун}}, \text{ Па} \quad (71)$$

Tizimdagi umumiy bosim yo‘qolishini soniga ko‘ra sun‘iy undashga ega ventilyatsiya tizimlarida ventilyatorni talab etilgan bosimi aniqlanadi.

Hisobiy natijalar jadvalga kiritiladi

9. Eng uzoqda joylashgan tarmoqdan boshlab magistral va tarmoqdagi bosim yo‘qolishni moslikligi tekshiriladi.

$$P_{\text{таp}} = \sum (R\beta_u \ell + Z)_{\text{маг}} , \text{Pa} \quad (72)$$

$$\frac{\sum (R\beta_u \ell + Z)_{\text{маг}} - P_{\text{таp}}}{P_{\text{таp}}} \times 100 \leq 10 \% \quad (73)$$

Paralel uchastkalaridagi bosim yuqolishni nisbiy mosligi 10 % dan oshmasa tarmoqlarni kesimini o‘lchamlari to‘g‘ri aniqlangan deb hisoblanadi

Ventilyatsiya tizimining aerodinamik hisob jadvali

20-jadval

